

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI

Xurshida Xamrakulova

O'zbek adabiyoti

(Milliy uyg'onish davri (jadid) adabiyoti)

uslubiy qo'llanma

5111200 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim
yo'nalishi uchun

Toshkent - 2020

Ushbu qo'llanma o'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan "O'zbek adabiyoti" fani o'quv dasturi asosida yaratilgan. Qo'llanmada talabalarga XX asr o'zbek adabiyotining milliy uyg'onish davri adabiyoti tarixida kechgan adabiy-tanqidiy o'zgarishlar, uning adabiy jarayonga ta'siri, jadid adabiyoti haqida bilim berish, tahlil qilish, tanqidchilikning bu davr asarlariga munosabatini belgilash asosiy maqsad qilib belgilangan.

Uslubiy qo'llanma orqali talaba XX asr boshlarida o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan jadid adabiyoti haqida tasavvur hosil qilishi, bu davr ijtimoiy-siyosiy qarashlarining qarashlarining badiiy asarlarda aks etishi, ijodkor ijodiy laboratoriyasiga kirib borish orqali adabiy va ijtimoiy hayotdagi masalalarga baho berishi kabi masalalar tadqiq qilingan. Mazkur qo'llanmadan o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi va filologiya sohasidagi barcha mutaxassislar, o'qituvchi va magistrLAR ham foydalanishlari mumkin

Mas'ul muharrir:

Marg'uba Abdullayeva – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Roza Niyozmetova – pedagogika fanlari doktori, professor

Shahnoza Ergasheva – filologiya fanlari nomzodi

Kirish

Talabalarning bilim saviyasini oshirish, ularni barkamol avlod qilib tarbiyalash ta'lim taraqqiyotining asosiy shartidir. O'qituvchining faol, samarali faoliyat ko'rstaishiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda ta'limning pedagogik texnologiyasi talabanning o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o'quv materialini o'zlashtirishga sharoit yaratadi. Shu ma'noda "Milliy uyg'onish davri (jadid) adabiyoti" kursi mashg'ulotlari yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida shakllantirildi. Mazkur uslubiy qo'llanmani yaratishda asosiy ilmiy manba sifatida B.Qosimov, SH.Yusupov, U.Dolimov, SH.Rizayev, S.Ahmedovlarning "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" (– T.: Sharq, 2004) darsligidan foydalanildi. Har bir mavzuni o'tishda qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati ham ilova qilindi. Uslubiy qo'llanmaning mohiyatidan kelib chiqib, "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" darsligidagi asosiy fikrlardan ma'ruza mashg'ulotlari rejalarini yoritishda foydalanildi. Mavzular dasturga muvofiq reja asosida tanlandi. Har bir mavzuning xususiyatidan kelib chiqib pedagogik texnologiyalar qo'llandi, uslubiy tavsiyalar berildi. Mavzular yakunida savol-topshiriqlar bilan bir qatorda test savollari va glossariy ilova qilindi. Pedagogik texnologiyalar o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatga ega. Har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil qilishi mumkin. Shuning uchun ko'rsatilgan metod va tavsiyalarga qat'iy shakl deb qaralmasdan, uni dars o'tishning o'ziga xos yo'riqnomasi deb tushunilishi lozim.

"Milliy uyg'onish davri (jadid) adabiyoti "O'zbek adabiyoti" kursining bir qismi hisoblanib, Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan. Unda milliy uyg'onish davri (jadid) adabiyotiga umumiy sharh beriladi. Mavzu tarkibida Behbudiy, Avloniy, Hamza ijodiga to'xtalib o'tiladi. Shuningdek, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon hayoti va ijodi ma'ruza mashg'ulotlari doirasiga qamrab olinadi.

1-mavzu: XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy- siyosiy va madaniy hayot

Reja:

1. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotiga umumiy sharh.
2. Jadidchilik harakati va jadid adabiyoti.
3. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti sheʼriyati.
4. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti nasri.
5. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti dramaturgiyasi.
6. Behbudiy, Avloniy, Hamza ijodi haqida maʼlumot

Tayanch tushunchalar: Turkistondagi siyosiy ijtimoiy hayot, milliy uygʻonish davri, jadidchilik harakati, jadid adabiyoti, jadid publitsistikasi, jadid dramaturgiyasi, jadid nasri va sheʼriyati, Behbudiy, Avloniy, Hamza ijodi.

Mashgʻulotning maqsadi:

Ushbu mavzu orqali talabalarga XX asr boshi Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hayot, jadidchilik harakati, adabiyoti va jadid maʼrifatparvarlari hayoti haqida maʼlumot berish.

Oʻtgan asr boshi oʻzbek adabiyoti haqida muayyan bilimlarni shakllantirish, jadid maʼrifatparvarlari qarashlarida erkparvarlik gʻoyasining deyarli har bir asarda yoritilganiga eʼtibor berish, taʼlimni va ongni isloh qilishga boʻlgan urinishlar hamda ularning natijasini misollar asosida tushuntirish, Behbudiy, Avloniy, Hamza ijodining muhim qirralari haqida maʼlumot berish.

Mustaqil oʻqish uchun adabiyotlar:

1. Avloniy A. Sheʼrlar, ibratlar. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 1-jild. – T.: Maʼnaviyat, 2006. – 356 b.
2. Azimova H. Milliy dramaturgiya va Abdulla Avloniy. –T.: Universitet, 2001. – 96 b.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar (Tuzatilgan va toʻldirilgan 3-nashri). – T.: Maʼnaviyat, 2006. – 345 b.
4. Karimov N va b. XX asroʻzbek adabiyoti tarixi. – T.: Oʻqituvchi, 1999.
5. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: Oʻzbekiston, 2008. – 536 b.

6. Normatov U. Qodiriy mo'jizasi. – T.: O'zbekiston, 2010.
7. Fitrat A. Tanlangan asarlar(darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlari). – T.: Ma'naviyat, 2009.
8. Qosimov B. va b. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: Ma'naviyat, 2004.
9. Sodiq. S. Yangi o'zbek adabiyoti. T.: O'qituvchi NMIU, 2019. – 720 b.
10. Karimov B. Abdulla Qodiriy fenomeni. –T.: Info kapital group, 2019. –480 b.

XX asr Turkistonda ham Rusiyada bo'lgani kabi yirik siyosiy hodisalar bilan boshlandi¹. 1900 yillardan iqtisodiy buhronga kirgan Rusiyada Yaponiya bilan urushdagi muvaffaqiyatsizlikdan so'ng tanazzul yanada chuqurlashdi. Tabiiyki, bunday sharoitda mustamlaka xalqlarining, birinchi navbatda, Turkistonning ahvoli og'irlashdi. Yangi qurilib bitkazilgan Krasnovodsk (1898) va Orenburg (1905) temir yo'li o'lkani har ikki tomonidan mahkam siqib olib, o'ng-u so'lga qayrilishga imkon bermas, Turkistonning adadsiz tabiiy boyliklari keti uzilmas vagonlarda Rusiya markaziga oqardi. Xususan, paxtaga zo'r berildi. Qorako'l, ipak, quruq meva ham chetda qolmadi. Rusiya Turkistonni asosiy xomashyo manbaiga aylantirdi.

Rusiyadan millionlab mujiklarni ko'chirib keltirib, mahalliy xalqdan tortib olingan serhosil va unumdor yerlarga joylashtirish avj oldi. O'lka mustamlakachilikning shafqatsiz tartiblari bilan idora etila boshlandi. Maorif va ijtimoiy sohalarda esa islomni buzish, yerli xalqni ruslashtirish davlat siyosati qilib belgilandi. Ushbu maqsadni ko'zda tutuvchi davlat qaramog'idagi rus-tuzem maktablari ko'payib bordi. Bu maktablar tub joy bolalarga dastlabki ta'limni berishni, go'dakligidanoq aql-u fikrini jilovlab olishni ko'zda tutardi.

O'rta maktablarga ular o'qishga qo'yilmas edilar. Rus-tuzem maktablariga munosabat yerli ziyolilarda ikki xil edi:

1. Hamkorlik qiluvchilar (Saidg'ani Saidazimboy o'g'li, Sattorxon Abdug'afforov, Saidrasul Saidazizov).

2. Rad etuvchilar (I.Gasprinskiy, Z.Validiy, M.Cho'qayev). Mahalliy maktablar esa xususiy bo'lib, ularga ko'plab to'siqlar qo'yilardi. Ayniqsa, Ismoilbek

¹ Uslubiy qo'llanma uchun B.Qosimov, SH.Yusupov, U.Dolimov, SH.Rizayev, S.Ahmedovlarning "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" (– T.: Sharq, 2004) darsligidagi ilmiy-nazariy manbalardan foydalanildi.

Gasprinskiy boshlab bergan zamonaviy usuli jadid maktablariga mustamlaka hukumati qattiq turdi. Shularga qaramay, mahalliy ziyolilarning jasoratlari tufayli yangi maktablar ochilaverdi. Ma'lumotlarga qaraganda, 1903- yilda Turkistonda 102 ta boshlang'ich, ikkita o'rta "usuli jadid" maktabi bo'lgan. Chor hukumati til siyosatiga, rus tili va madaniyatining nufuzi tobora ortib, mustahkamlanib borishiga, mahalliy xalqning tildan foydalanish doirasi uzluksiz va rejali qisqartirilib borishiga e'tibor berdi. Mustamlakachilar Turkistonning boyliklarini o'zlashtirish, xalqini qul qilish bilan cheklanmadilar, tarixchi Zaki Validiy qayd etganidek, uning kundalik turmushiga, madaniy-maishiy hayotiga ham aralashdilar. Bir so'z bilan aytganda, uni har jihatdan buzish, ezish, so'ng esa o'z tarkibiga singdirib yuborishdek mudhishona bir maqsad bilan ishga kirishdilar.

Tabiatan qullik bilan ko'nikib keta olmagan Turkiston xalqi o'z noroziligini dastlab sekin-asta, so'ng esa baralla bildirib boshladi. Ayni paytda, 1904—1907 yillarda Samarqand viloyati qishloqlarini umuman mustabidlikka qarshi kurash boshlagan Namoz Pirimqul o'g'li bosh bo'lgan ozodlik harakatlari qamrab oldi. Siyosiy tashkilotlar yuzaga kela boshladi. Abdulla Avloniy (1878—1934) o'z "Tarjimai hol"ida 1904-yildan Toshkentda yashirin "jadidlar to'dasi" ish boshlaganini ma'lum qiladi. 1909-yilning 12-mayida Toshhoji Tuyuqboyev, Nizomqori Mulla Husanov, Mulla Abdulla Avlonov, Munavvarqori Abdurashidxonov, Bashirulla Asatillaxo'jayev muassisligida 41 moddalik nizomga ega bo'lgan "Jamiyati xayriya" tashkil topadi. 1910-yilning 2-dekabrida Buxoroda mudarris Hoji Rafi', Mirzo Abduvohid, Hamidxo'ja Mehriy, Ahmadjon Maxdum, Usmon Xo'ja kabilar "Tarbiyai atfol" jamiyatini tuzdilar. Toshkentdagi "Jamiyati xayriya", ayniqsa, Buxorodagi "Tarbiyai atfol" yoshlarni rivojlangan chet mamlakatlarga o'qishga yuborishda katta tashabbus ko'rsatdi.

Turkistonliklar Kavkaz, Volgabo'yi, Usmonli turklar hayotidagi o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatib bordilar. Rusiyadagi musulmonlarning yuqoridagi kabi tashkilotlarini bir-biri bilan bog'lash, o'zaro muvofiqlashtirish, kuchlarni birlashtirish ehtiyoji paydo bo'ldi. Shu maqsadda 1905-yilning avgustida Nijniy Novgorodda, 1906-yilning yanvarida Peterburgda Rusiya musulmonlarining

1- va 2-qurultoylari bo‘lib o‘tdi. Xususan, 2-qurultoy “Rusiya musulmonlari ittifoqi” tuzilganini rasman e‘lon qildi. “Ittifoq» siyosiy pozitsiyasi nuqtai nazaridan Rusiyadagi konstitutsion demokratik partiya – kadetlar yo‘lini tutdi.

Yangi qarashdagi mahalliy ziyolilar – jadidlar mana shunday sharoitda ish ko‘rdilar va siyosiy mustaqillikni qo‘lga olishni o‘zlari uchun bosh maqsad bildilar. 1913-yildagi “Turon”, 1917-yilda tuzilgan “Sho‘royi islom”, “Ulamu” jamiyatlari partiya darajasiga o‘lib chiqmagan bo‘lsa-da, siyosiy faol edi.

Jadidlar birinchi navbatda, ochiq fikrli yangi avlodni tarbiyalashga diqqatni qaratdilar. Buning uchun “usuli jadid” maktablariga zo‘r berdilar. Ikkinchidan, mahalliy-milliy matbuotni maydonga keltirdilar. To‘g‘ri, Toshkentda 1870-yildan chiqqan boshlagan “Turkiston viloyatining gazetasi” Turkistonda mahalliy tilda chiqqan birinchi matbuot namunasi edi. Gazetada SH.Ibrohimov (1872), H.Chanishev (1881) kabi yerli tatarlar, I. Xudoyorxonov (1893) singari o‘zbeklar ma‘lum muddat muharrirlik qilgan bo‘lsalar-da, uning asl egasi, yo‘riqchisi N.Ostroumov edi. Shunga ko‘ra, uning milliy gazeta bo‘lishi imkondan tashqarida edi.

1905-yil 17-Oktyabr Manifesti xalqqa matbuot va siyosiy tashkilotlar tuzishga ruxsat bergach, Turkiston jadidlari bir qator uyushma – jamiyatlar bilan birga gazeta-jurnal ishlariga ham kirishdilar. Shulardan biri 1906-yilning 27-iyunida dunyo ko‘rgan “Taraqqiy” gazetasi edi. “Bu gazeta tez fursatda shunday shuhrat qozondiki,– deb yozadi Abdulla Avloniy, – hatto gazeta muharriri bo‘lgan Ismoil Obidiyga “Taraqqiy” ismi berildi. Hozirgacha xalq Ismoil Obidiyning ismini «Taraqqiy» deb yuritadur”.

Gazeta mahalliy yoshlarga o‘z sahifasidan keng o‘rin berdi. Uning yaqin hamkorlaridan biri Munavvarqori edi. 1906-yilning sentyabrida Munavvarqori muharrirligida Toshkent jadidlarining ikkinchi muhim gazetasi “Xurshid” paydo bo‘ldi. 1907-yilning 1-dekabridan Abdulla Avloniy o‘z uyida “Shuhrat” gazetasini chiqara boshladi. Bu uch gazeta shu davr Turkistonining eng e‘tiborli nashrlari bo‘lib, ularda mashhur Behbudiydan havaskor shoir Mulla Qo‘shoq Miskingacha bo‘lgan keng ziyolilar qatlami faol ishtirok etdilar.

Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy “Samarqand” (1913) gazetasini va “Oyna” (1913-1915) Toshkentda 10-yillarda “Sadoyi Turkiston” (1914, muharriri Ubaydulla Xo‘jayev), Farg‘onada “Sadoyi Farg‘ona” (1914, muharriri Obidjon Mahmudov), “Tirik so‘z” (1915, muharriri Obidjon Mahmudov), Buxoroda “Turon” (1913) kabi gazetalar, “Al-Isloh” (Toshkent, 1915-1918, muharriri Abdurahmon Sayyoh) jurnali chiqib turdi.

Adabiy kuchlar ko‘proq mana shu gazeta-jurnallar atrofida uyushdilar. Chunonchi, Samarqandda “Oyna” Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875—1919), Saidahmad Vasliy (1869-1925), Siddiqiy Ajziy (1864-1927), Saidrizo Alizoda (1887-1945), Hoji Muin (1883—1942) kabi iste’dodlarni to‘pladi. Buxorodan Fitrat (1886—1938), Toshkentdan Kamiy (1865-1922) faol qatnashib turdilar.

Toshkentda “Sadoyi Turkiston” gazetasida Munavvarqori (1878-1931), Abdulla Avloniy (1878-1934), Tavallo (1883-1937), Xislat (1880-1945), Mirmulla (1886-1923), Abdulla Qodiriy (1894-1938) faol ishtirok etdilar. Qo‘qondan Ibrohim Davron (1874-1922), Hamza (1889-1929), Andijondan Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon (1897—1938)ning she‘r va maqolalari tez-tez bosilib turdi.

10-yillarning boshida, bimalol aytish mumkinki, yangi adabiyot shakllanib ulgurgan edi. Bu borada 1901 yildan chop etila boshlagan Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi soniy”, Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval” (1902), Aliasqar Kalininning “Muallimi soniy” (1903), so‘ngroq Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, Rustambek Yusufbekov (1880-1950)ning “Ta’limi avval”, “Ta’limi soniy” kabi darslik va darslik-majmualari, xususan, ulardagi ixcham didaktik she‘r va hikoyalar yangi adabiyotning shakllanishida ilk tajribalar vazifasini o‘tadi.

Abdulla Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar” (1909), Saidahmad Vasliyning “Milliy she‘rlar” (1912), Sidqiy Xondayliqiyning “Tuhfayi Shavkat” (1913), “Savg‘oti Shavkat” (1914), “Bazmi ishrat” (1914), Hoji Muinning “Guldastai adabiyot”(1914) kitoblari yangi o‘zbek she‘riyatining dastlabki namunalari edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1911-yilda yozib, 1913-yilda chop etgan “Padarkush” dramasi bilan o‘zbek dramachiligini boshlab berdi.

Matbuotning maydonga kelishi publitsistika taraqqiyotiga yo‘l ochdi. Bu borada Behbudiy, Fitrat, Munavvarqorilarning xizmati katta bo‘ldi.

1914 yilda boshlangan Birinchi Jahon urushi va Rusiyaning unga qo‘shilishi Turkistonning o‘z mustaqilligini qo‘lga olishiga ma’lum umid va imkon tug‘dirdi. Biroq chor hukumati qattiq turdi. O‘lkada “tartib saqlanishi”ga alohida ahamiyat berdi. 1914-yil 24-iyulda Nikolay II ning Farmoni bilan Turkiston o‘lkasida “Favqulodda qo‘riqlanadigan” holat e‘lon qilindi. Gubernator va uyezd boshliqlariga aholining o‘y-fikrini kuzatib borish, “ozgina bo‘lsa ham dushmanlik niyatida bosh ko‘tarilgudek bo‘lsa”, “g‘oyat shafqatsizlik bilan darhol bostirish” haqida ko‘rsatma berildi.

Nikolay II turkistonliklarni urushga olmadi, ularga ishonmadi. Ikkinchidan, Rusiya hukumati ulardagi nasliy jangovar ruhni so‘ndirish, ming yillar osha kelgan askarlik tarbiyasini izdan chiqarish niyatida edi. Shunga ko‘ra, 1916-yilning 25-iyunida “Imperiyadagi g‘ayrirus aholining erkaklarini harakatdagi armiya turgan rayonlarda mudofaa inshootlarini va harbiy aloqa yo‘llarini qurish ishlariga, xuddi shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo‘lgan boshqa har qanday ishlarga safarbar qilish” to‘g‘risida Farmon berdi. Turkistondan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo‘lgan 250 ming ishchi olinadigan bo‘ldi. Bu mardikorlik edi. Uning ustiga bu ishlarda har xil suiiste’molliklar, poraxo‘rliklar, zo‘ravonliklarga keng yo‘l ochib berildi. Bir tomondan, millatning sha’nini yerga uruvchi Farmonning chiqarilishi, ikkinchi tomondan, uni ijro etishdagi nohaqliklar xalq noroziligiga olib keldi. 1916-yilning iyulida butun Turkistonni “Mardikorlik voqealari” nomi bilan tarixga kirgan milliy-ozodlik harakatlari chulg‘ab oladi. Lekin bu qo‘zg‘olonlar shafqatsiz bostirildi. Masalan, Jizzax aholisi qatliom qilinib, shaharga o‘t qo‘yildi. O‘nlab qishloqlar xonavayron qilinib, xalqi iyul-avgust jaziramasida Qiyli cho‘liga quvib chiqarildi. Qo‘zg‘olonlar sentyabrning boshlarida bir oz paysal topdi. 18-sentyabrdan esa, mardikorlarni jo‘natish boshlandi.

Asriy tartib va udumlarni yo‘qqa chiqaruvchi “Yer-suv islohoti” amalga oshirildi. “Xotin-qizlar ozodligi” niqobi ostida millatning muqaddas tarbiya o‘chog‘i buzib tashlandi. Nihoyat «kollektivlashtirish» kabi «sotsialistik» tajribalar o‘lka hayotini tamom izdan chiqardi. Bular yetmaganiday, sotsializm rivojlangan sari sinfiy kurash kuchayib boradi, degan soxta, stalincha nazariya to‘qib chiqarilib, dushman izlash avj oldi. Shu bahonada milliy ziyolilarni ta‘qib qilish kuchaydi. Xususan, jadidchilikni millatchilik sifatida qoralash yo‘lga qo‘yildi. 1925-yilda yer-suv islohotiga ozgina e‘tiroz bildirgan kishilar “18- lar guruhi” nomi bilan “fosh” etildi. 1926-yilda O‘zbekiston maorif vaziri R.Inog‘omov va uning bir qator maslakdoshlari eski ziyolilardan foydalanish masalasini ko‘targanlarida qo‘lga olinib, “inog‘omovchilik” deb atalgan kampaniya o‘tkazildi. 1927-yil oktyabrda shoir Cho‘lpon badnom etilib, O‘zbekiston ziyolilarining Samarqanddagi qurultoyidan haydab chiqarildi. 1929-yilda O‘zbekiston Oliy sudi raisi Qosimov bilan bog‘liq “qosimovchilik”, “Munavvar qori to‘dasi” «ish»larini ko‘rish boshlandi. Bular ilk qatag‘onlar edi. Jumladan, “Munavvar qori to‘dasi” “ishi”ga 87 kishi jalb etildi. Tergov materiallari 18 jildni tashkil qildi. Shulardan 18 kishi otishga, 21 kishi 10 yilga, 13 kishi 5 yilga, 3 kishi 3 yilga qamoq jazosiga, 1 kishi Omskka surgunga hukm qilindi, jami 56 kishi jazoland. Shu tariqa 1929-yil, sovet tarix fani qayd etganidek, sovetlar uchun “buyuk burilish yili” bo‘ldi. Har qanday erkin fikr tugatilib, kommunistik diktatura mustahkam qaror topdi.

Turkistonning ko‘zi ochiq ziyolilari oq imperiyani ham, qizil imperiyani ham qabul qilgan emas. Shu sababli, oktyabrning dastlabki kunlaridanoq millatning vatanparvar farzandlari istiqlol yo‘llarini qidirdilar. Arxiv materiallari va tarixiy shaxslarning guvohliklari 1917-yildan o‘lkada shu maqsadni ko‘zda tutuvchi “Ittihad va taraqqiy”, “Turk adam Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti markaziyati”, “Ittihodi milliy”, “Birlik” (1919), “Erk” (1919), “Temur”, “Botir gapchilar” kabi yashirin tashkilotlar tuzilganligini, 1921-yilda “Turkiston milliy birligi” tashkil topganligini ko‘rsatadi. Turkiston milliy birligi 20-yillarda tarixga “bosmachilik” nomi bilan kirgan milliy-ozodlik harakatlarini o‘zaro muvofiqlashtirib borishda muhim rol o‘ynadi.

1918-yilda Toshkentda Fitrat tashabbusi bilan “Chig‘atoy gurungi” adabiy-madaniy uyushmasi maydonga keldi va Cho‘lpon, Botu, Elbek, G‘ozi Yunus, G‘ulom Zafariy, Mannon Uyg‘ur, Qayum Ramazon kabi fan va madaniyatimizning yorqin iste’dodlarini o‘z atrofiga to‘pladi. Bor-yo‘g‘i bir yarim yilcha faoliyat ko‘rsatgan ushbu uyushma – jamiyat til-imlo qoidalarini ishlab chiqishda, adabiyot tarixini o‘rganish, sistemalashtirishda, teatrchilikni yuksaltirishda katta ishlar qildi. Biroq bunday milliy-madaniy tiklanish yo‘llari tobora yopila bordi va madaniy-adabiy hayot ham sekin-asta siyosat izmiga tushib qoldi. 10-yillarning ikkinchi yarmi “O‘zbek jadid adabiyoti” nomi bilan tarixga kirgan yangi adabiyotning shakllanib, dastlabki dadil qadamlarini tashlagan yillar bo‘ldi. Milliy matbuotning maydonga kelishi bilan yangi adabiyotning mazmun va yo‘nalishi, til va uslubi, janr va mavzulari, badiiyati bilan bog‘liq masalalar keng muhokama qilina bordi.

10-yillar she‘riyati ma‘rifatni maqsad emas, vosita deb bildi. 10-yillardagi yangi o‘zbek she‘riyati, bu, birinchi navbatda, ijtimoiy-siyosiy she‘riyatdir. Ayni paytda, unda qator poetik-stilistik o‘zgarishlar yuz berdi. Avloniy va Hamza ko‘pgina she‘rlarini qadim she‘riy vaznimiz – barmoqda yozdilar. Hamza sarbastda o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rdi (“She‘ri mansur”). Siddiqiy Ajziy va Tavallo sotsial satiraning an‘anaviy aruzdagi eng sara namunalarini yaratdilar. She‘riyat Birinchi Jahon urushi yillarida, xususan, mardikorlik voqealari davrida g‘oyat jonlandi. Chunonchi, mardikorlik voqealariga bag‘ishlangan o‘nga yaqin she‘riy to‘plam chop etilgani ma‘lum. Bular orasida Muhiddin Ibrohimov tuzgan «Loshmon» (Namangan, 1916), Hamzaning “Milliy ashuvlalar uchun milliy she‘rlar majmuasi”ning 7-bo‘limi – “Safsar gul” (Qo‘qon, 1917) kabi asarlarida ham mardikorlik voqealari tasviri uchraydi. Bu asarlar, bir qaraganda, mahalliy xalqni mardikorlikka borib, oq podsho xizmatini qilib kelishga targ‘ib-tashviq etayotganday bo‘lsa-da, aslida uning tagsatrlarida xalqning osoyishta hayotini alg‘ov-dalgov qilib yuborgan, urush bahonasida millatning sha‘n-u shukuhini oyoqosti etgan hukmron millatga istehzo, o‘z ona xalqini g‘aflatdan uyg‘onishga, qullikdan qutulishga da‘vat balqib turar edi.

Turkiston ozodlik tarixining bu soʻnmas sahifasiga sovet davri yozuvchilari ham koʻp bor murojaat qilganlar. Oybekning “Qutlugʻ qon” romanida u markaziy masala qilib qoʻyilgan edi. Soʻngroq adib “Bolalik” avtobiografik qissasida ham unga maʼlum oʻrin berdi. Nazir Safarov 1916 yilgi Jizzax voqeasini “Koʻrgan-kechirganlarim”da keng koʻlamda tasvir etdi.

Asqad Muxtor “Chinor” romanida bir bobni shunga bagʻishladi. Bugungi shoirlarimizdan Muhammad Alining “Boqiy dunyo” sheʼriy romanida ham u keng tasvirlandi. Umuman, bu mavzuda adabiyotimizda qilingan va qilinayotgan ishlar koʻp. U bizdagina emas, qardoshlarimizda ham oʻziga xos anʼanalarga ega boʻlib qoldi.

1917-yil Fevral voqealarini Turkiston xalqi zoʻr xursandchilik bilan kutib oldi. Shoirlarimiz unga yuzlab sheʼrlar bagʻishladilar. 1917-yil 27-noyabrdagi Muxtoriyat eʼloni keng xalq ommasidagi kabi adabiyot ahlida ham zavq-shavq uygʻotdi. Behbudiy va Fitratning qizgʻin, ehtirosli turkum maqolalari, Choʻlpon (“Ozod turk bayrami”, “Ollohu akbar”) va Hamzaning (“Turkiston muxtoriyatina!”) yoniq sheʼrlari dunyoga keldi. Xullas, yangi poeziya 20-yillarga gʻoyat murakkab va ziddiyatli tuygʻularni oʻzida jo etgan eʼtirof va eʼtiroz bilan kirib keldi.

Asrimizning dastlabki yigirma yilida shakllangan yangi sheʼriyat anʼanaviy diniy-tasavvufiy sheʼriyat bilan yonma-yon yashadi. Mirmahmud Qoriy (1834—1904), Yusuf Saryomiy (1845-1912), Usmonxoʻja Zoriy (1839-1916), Husaynqul Muhsiniy (1860—1917), ayniqsa, Ziyovuddin Haziniy (1861-1921) bu yoʻlda samarali ijod etdilar .

10-yillarda yaratilgan nasr namunalari u qadar koʻp emas. Anbar Otinning “Qarolar falsafasi”, S.Aziziyning 1910 yildagi “Moskva va Peterburg sayohati xotiralari” kabi ijtimoiy-falsafiy, sarguzasht-avtobiografik asarlarni nazardan soqit qilsak, Behbudiyning “Oq yelpogʻichli chinli xotun”, Abdulrauf Shahidiyning “Falokatzada” (1911) hikoyalarini, Mirmuhsin Shermuhamedovning “Befarzand Ochildiboy” (1914), Hamzaning “Yangi saodat” (1915) singari “milliy roman” deb nomlangan qissalarini, nihoyat 1915—1916 yillarda eʼlon qilingan Abdulla

Qodiriyning “Juvonboz” va “Uloqda”, Cho‘lponning “Do‘xtir Muhammadyor” asarlarinigina qayd etish lozim bo‘ladi.

Dramachilik 10-yillarning ikkinchi yarmida qizg‘in rivoj topdi. Toshkent, Samarqand, Qo‘qonda teatr havaskorlar truppalari tuzilib, samarali ish olib bordi. Adabiyotimiz mazkur yangi janrlarining dunyo yuzini ko‘rish jarayoni g‘oyat og‘ir kechgan.

Behbudiy o‘z “Padarkush”ini 2 yil deganda zo‘rg‘a nashr qilishga muvaffaq bo‘ldi. Sahnaga qo‘yilishi uchun yana bir yil ketdi. 1911-yilda yozilgan asar 1914-yildagina sahna yuzini ko‘rdi.

Yangi zamonaviy adabiyotshunoslik va tanqid shakllandi. Zamon va ijod, badiiy adabiyot tili, yangi adabiy janrlar bilan bog‘liq masalalar matbuot sahifalarida keng muhokama qilindi. Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon, Ibrohim Davron kabilarning bu borada vaqtli matbuot sahifalarida e‘lon qilgan maqolalari yangi estetikaning shakllanishida muhim rol o‘ynadi.

Xullas, 10-yillarda Turkiston ma‘naviy hayotida keng tomir otgan o‘zbek jadid adabiyoti o‘zining chinakam samaralarini 20-yillarda berdi. Cho‘lpon o‘z she‘riyati bilan yangi o‘zbek she‘riyatining asl poydevorini yaratdi. Qodiriy o‘zbek romanchiligiga asos soldi.

Behbudiy hayoti va ijodi

(1875 - 1919)

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining peshqadamlaridandir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida 20-yillarda mahalliy matbuotda Sadriddin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqola, xotiralar e‘lon qilingan. Keyingi yillarda, xususan, mustaqillikka erishilgandan so‘ng jadidlar faoliyatini o‘rganishga qiziqish kuchayishi bilan Behbudiy ham qayta kashf etila boshlandi.

Behbudiy tarjimai holini yoritishda Hoji Muinning 1922-23 yillarda o‘zi muharrirlik qilgan “Mehnatkashlar tovushi” (1922), “Zarafshon” (1923) gazetalarida chop etgan maqolalari muhim ahamiyatga ega. Mahmudxo‘ja Behbudiy

1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291 – 10- zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida ruhoniylar oilasida dunyoga kelgan.

Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo‘ja urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1780 – 1785) Samarqandga kelib qolgan. 1894-yilda otasi Behbudxo‘ja vafot etadi. Yosh Mahmudxo‘ja tog‘asi qozi Muhammad Siddiqning tarbiya va qaramog‘ida o‘shib voyaga yetadi. Arab sarf-u nahvini kichik tog‘asi Odildan o‘rganadi. 18 yoshidan qozixonada mirzalik qila boshlaydi. Darvoqe, Behbudiyning maktab-madrasa hayoti haqida ham ma‘lumotlar nihoyatda kam. U dastlab Samarqand madrasasida, so‘ngroq Buxoroda yaxshigina tahsil ko‘rgan. An‘anaviy madrasa ilmini Mahmudxo‘ja Behbudiy puxta egallagan. Behbudiy 1915-yilda etnograf G.Andreyev savollariga javob berar ekan, madrasa tahsilini alohida tilga olgani ma‘lum. Xullas, an‘anaviy tahsil, so‘ng esa o‘z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali u shariatning yuksak maqomlari – qozi, muftiy darajasigacha ko‘tariladi.

1899 – 1900 yillarda Behbudiy buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. Dunyo ko‘rishi izsiz ketmaydi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi va g‘ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1905), “Risolai jug‘rofiyai Rusiy” (1905), “Kitobat-ul atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblari paydo bo‘ladi. Mahmudxo‘ja 1903 – 1904-yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo‘ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy bu qurultoyda turkistonliklar guruhini boshqaradi va katta nutq so‘zlaydi.

Ma‘rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh

bo‘lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o‘z qabohatini ham, malohatini ham ko‘ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. “Padarkush” shu tariqa maydonga keldi. Biroq uning dunyo ko‘rishi oson kechmadi. Bunga sabab: birinchidan, chor hukumati mustamlaka Turkistonining ma‘rifat yo‘liga kirib, o‘z huquqini tanishidan manfaatdor emas edi; 1916 yildagi Turkiston general gubernatori N.R.Kuropatkinning o‘z kundaligida yozgan va bugun juda mashhur bo‘lib ketgan “Biz tubjoy xalqni taraqqiyotdan, maktabdan, rus hayotidan 50 yil chetda tutdik”, degan so‘zlarini eslash kifoya. Ikkinchidan, turg‘unlik va tutqunlik tufayli avj olgan jaholat, mutaassiblik. “Kimiki sahnada ko‘rsang oni jasorati bu”, deb yozgan edi shoir Tavallo. Bu bejiz emas. Xullas, 1911-yilda yozilgan «Padarkush» dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildidagi “Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi” degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi shuni ko‘rsatadiki, ish oson ko‘chmagan. Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo‘yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi.

“Padarkush” – o‘zbek dramachiligining hamma yakdil e‘tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko‘ra yangi o‘zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif “Milliy fojia” atagan, 3 parda 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo‘n. U jaholat va nodonlik, o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani haqida hikoya qiladi.

“Padarkush” dastlab Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarida sahnaga qo‘yildi. “Xalq nihoyat ko‘p kelib, belat yetmagani va joyni yo‘qligi uchun uch-to‘rt yuz kishi qaytib ketdi”, deb yozadi mahalliy matbuot. Yana o‘sha yerda o‘qiymiz: “Belatlar bir-ikki kun avval yoshlarni g‘ayrati ilan sotilib tamom bo‘lub edi. Ba‘zi kishilar belatlarini ikki bahog‘a foidasi ilan boshqag‘a sotdilar. Soat yettidan minglab xalq ibratxonag‘a hujum qilgan. Ammo belat yo‘q. Uch so‘m berib, tikka turmoqg‘a ham rozi, yana yer yo‘q...”

Spektakl o‘z maishatiga o‘ralib dunyoni unutgan millatdoshlarga chaqmoqdek ta’sir etdi. Unda boy rolini Abdusalom Abdurahim o‘g‘li o‘ynagan edi. “Boyni hamboza (xurrak) va uyqusi hamda harakatidan aholi ixtiyorsiz va fosilasiz kulardi”, yozadi taqrizchi. “Domla (Mardonqul Shomahmud o‘g‘li) va ziyoli (Mirza No‘mon Mulla Fozil muftiy o‘g‘li)ni nasihati xaloyiqni ko‘nglig‘a ta’sir etardi, hatto va’z-u pandga yig‘laganlar bor edi”, – o‘qiymiz taqrizda.

Chamasi, asarning ijrosi ham baland saviyada bo‘lgan. Taqrizdagi “Rus, yahudiy va musulmonlar tahsin etardi. Hatto 20 yildan beri teatr ma’muriyatidagi odamlar ta’rif qilurdi... Aholidagi olqish ibratxonani gumbirlatur...” degan jumlar shunga ishora qiladi.

Toshkentda 1914-yilning 27-fevralida qo‘yildi. Avloniyning «Turon» truppasi Kolizey (hozirgi Savdo birjasi binosi)da o‘z faoliyatini mana shu “Padarkush” bilan boshlagan edi. Spektakl oldidan mashhur Munavvarqori teatrning jamiyati hayotidagi roli va o‘rni haqida nutq so‘zlaydi. Boy rolini Abdulla Avloniyning o‘zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni “tarixiy kun”, deb yozadi.

“Turon” truppasi 1914-16 yillarda bu spektakl bilan butun Farg‘ona vodiysini aylanib chiqdi. «Padarkush» Turkistonni junbushga keltirgan qirg‘inbarot inqilob yillarida ham sahnadan tushmadi. Bir tomondan, millatni ma’rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o‘ynagan bo‘lsa, ikkinchi yoqdan, professional o‘zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi. Bu asarning o‘z davrida adabiy harakatchilikka yetkazgan ta’siri haqida qaydlar ko‘p. Buning shohidi sifatida Abdulla Qodiriyning mashhur «1913-yillarda chiqqan “Padarkush” pyesasi ta’sirida “Baxtsiz kuyov” degan teatr kitobini yozib yuborg‘onimni o‘zim ham payqamay qoldim», degan e’tirofini eslash kifoya. 1916-yilda Toshkentga kelib, Kolizeyda “Turon”ning qator spektakllarini ko‘rgan A.N.Samoylovich yozadi: “Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi... Yangi adabiyotning markazi – Samarqand... Yosh qalamkashlarning bosh ilhomchisi samarqandlik muftiy Mahmudxo‘ja Behbudiyydir”.

1913 yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug'ullanadi. Apreldan «Samarqand» gazetasini chiqaradi. Gazeta 45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to'xtagan. O'sha yilning 20-avgustidan u "Oyna" jurnalini chiqara boshlaydi. Bu suratli haftalik majalla asosan o'zbek tilida bo'lib, unda ixcham forsiy she'rlar, maqolalar, ruscha e'lonlar ham berib borilardi... "Boshda haftada bir marta va ikkinchi yildan e'tiboran 15 kunda bir qatla chiqib, yigirma oy chamasi davom qildi...". Kafkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi... Jadidlarning sevikli jurnallari edi.

Behbudiy shu yillari nashr ishlari bilan qizg'in shug'ullandi. "Nashriyoti Behbudiya" nomi bilan o'z xususiy nashriyotini ochdi. Fitratning "Bayonoti sayyohi hindi" asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etdi. Turkiston xaritasini tuzib bosmadan chiqardi. Kutubxonani yo'lga qo'ydi. O'sha davr vaqtli matbuotida "Behbudiya kutubxonasi" haqidagi xabarlar tez-tez duch kelasiz.

1914-yilning 29-mayida Behbudiy ikkinchi bor arab mamlakatlariga sayohatga o'tlanadi. Sayohat xotiralari har jihatdan g'oyat muhim bo'lib, Behbudiy ularni o'z jurnali "Oyna"ning 1914-yil sonlarida mazkur nom ostida peshma-pesh berib boradi. Bu "Xotiralar" ham ma'rifiy, ham adabiy-estetik jihatdan nihoyat muhim. Ular adabiyotimizdagi an'anaviy tarixiy-memuar janrining XX asr boshidaga o'ziga xos namunasidir. Muallif bu memuarlarda yo'l taassurotlariga, mashhur yoxud oddiy kishilar bilan uchrashuvlarining ibratli tomonlariga keng o'rin beradi. Qaysi shaharga bormasin, uning tarixi, obidolari, u yerdan chiqqan buyuk zotlar haqida ma'lumotlar to'playdi, turli-tuman millatlar, ularning urf-udumlari, turmush madaniyati bilan qiziqadi. Qishloqlardagi dehqonchilikdan tortib, shaharlardagi eskalator ("osonsur") gacha uning e'tiboridan chetda qolmaydi. Ayniqsa, din, e'tiqod masalalariga katta ahamiyat beradi. Qadimiy muqaddas obidalar, Rasululloh poyqadami tekkan qutlug' dargohlar, xususan, Quddusi sharifdagi mashhur al-Masjidul-Aqso ziyoratidan nihoyasiz zavq-shavqqa to'ladi.

"Oyna" jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari

muharrirning hamisha diqqat markazida bo'lgan. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Masalan, jurnalning 1913-yil avgust, birinchi – nishona sonidayoq, “Ikki emas, to‘rt til lozim” degan maqola bilan chiqqan edi.

Behbudiy adabiy tanqidga katta e'tibor berdi. Navoiydan keyingi bir necha asrlik sukunatdan so'ng bu sohaning xos xususiyatlarini tayin etib, adabiyotda uning teng huquqligi masalasini o'rta qo'ydi. “Tanqid saralamoqdur” (1914 y., 27-son) deb nomlangan edi uning ushbu mavzuga bag'ishlangan jiddiy maqolalaridan biri. Turkiston zabt etilgach, ruslar mahalliy xalqqa “sartlar” deb nom berdilar.

N.Ostroumovning bir kitobi xuddi shunday nomlanganligi hammaga ma'lum. Bu so'z, aslida turli vaqtda turli etnik qatlamga, goho sotsial qatlamga nisbatan aytilgan. 10-yillarda bu so'z atrofida yana bahs ketdi. Jurnalda Behbudiyning «Sart so'zi majhuldur» maqolasi bosilgan. Maqola hajman salmoqli, jurnalning bir necha sonida davom etgan. Adib ushbu kalimaning xalqona etimologiyasidan tortib, Alisher Navoiy, Bobur, Muhammad Solih, Abulg'ozil Bahodirxonning asarlarigacha, N.Ostroumov kitobidan D.G. Logofetning «Buxoro xonligi»-yu L.M.Budagov lug'atlarigacha, I.I.Geyer “Sayohatnoma”laridan A.Vamberi “Kundaliklar”igacha, jadidchilik harakatining Ahmad Zaki Validiydan Ismoilbek Gasprinskiygacha bo'lgan namoyandalarining bu sohadagi kuzatishlarini to'plab, xulosalaydi.

Umuman, Behbudiyning publitsist sifatidagi faoliyati adib iste'dodining juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U o'z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. Muhimi shundaki, u XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi edi.

Behbudiy bir qator darsliklar yozdi. “Muntaxabi jug'rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”), “Kitobatul-atfol” (“Bolalar maktublari”), “Muxtasari tarixi islom” (“Islomning qisqacha tarixi”), “Madxali jug'rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”), “Muxtasar jug'rofiyai Rusiy” (“Rusiyaning qisqacha geografiyasi”).

Behbudiy zamonasidagi mavjud idora usullari haqida fikr yuritib, ularni uchga bo'ladi:

1. Idorai mustaqilla (idorai mutlaqa-monarxiya).

2. Idorai mashruta (konstitutsiyali parlamentli hokimiyat).

3. Idorai jumhuriyat (respublika). Lekin millat ozod bo'lib, o'zining mustaqil davlatini o'rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo'lmaydi. Bu Behbudiy kelgan birinchi xulosa edi.

Behbudiy, istiqlol haqida fikr yuritar ekan, har qanday zo'ravonlikni rad etadi. Uningcha, zo'ravonlik g'ayriaxloqiy, binobarin, g'ayrinsoniydir. Umuman olganda esa mustaqillik uchun kurash olib borgan bobolarimiz, jumladan, jadidlar kelajak haqida fikr yuritar ekanlar, istiqlolga erishish borasida bir-birlaridan farq qiluvchi uch yo'ldan bordilar:

1. Rusiyaga tobelikdan zo'rlik yo'li bilan qutulish, kuch bilan istiqlol olish (Dukchi eshon qo'zg'oloni 1916-yil voqealari, "bosmachilik").

2. Murosa yo'li. Ruslar yordamida ma'rifatga erishish. Ma'rifat masalalarida haq-huquq olish, milliy xususiyatlarni tiklash (Ismoilbek Gasprali, Mahmudxo'ja Behbudiy).

3. Hamkorlik yo'li. Chor ma'murlari, so'ng esa Sho'ro hukumati bilan birga ularning dasturlarida qatnashish va imkon bo'lishi bilan mustaqillikni qo'lga olish. Buning uchun ma'lum tayyorgarlik ko'rib borish (Munavvarqori, Hamza, Avloniy).

Behbudiy hamisha xalq bilan birga bo'ldi. Vatan taqdiri qun tartibiga qo'yilgan 1917-yilning 16 – 23-aprelida Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan o'lka qurultoyida hayajonli nutq so'zladi. Millatni o'zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo'lida birlashishga, ittifoq bo'lishga chaqirdi. Xuddi shu ixtilofimiz sababli "mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar" deb ochiq aytdi. U haq edi. Mustamlakachilar "50 yil ilm-ma'rifatdan chetda saqlab kelgan"lari (Kuropatkin) Turkistonni osonlik bilan qo'ldan chiqarmas edilar. Fitna va ig'vo tinimsiz davom etar edi. Shundaylardan biri 1917-yilning bahorida Buxoroda yuz bergan edi. Amir Fevral o'zgarishlarini hisobga olib, rus elchixonasining maslahati bilan islohot e'lon qiladigan bo'ladi. Va bu farmonni ushbu elchixonaning boshlig'i janob Miller tayyorlaydi. Har xil anglashilmovchiliklarning oldini olish maqsadida sobiq general gubernator,

endilikda Rusiya Muvaqqat hukumatining Turkiston komissari Kuropatkin topshirig'iga ko'ra Samarqand ijroiya qo'mitasi Buxoroga bir necha kishilik hay'at yubordi. Ular orasida Behbudiy ham bor edi. 7 aprel islohot e'loni oldindan mo'ljallanganidek tantanaga, tantana esa fojiaga aylanadi. Amir va yoshlar, mullalar va jadidlar o'rtasida o'tib bo'lmas choh paydo bo'ladi. Miller buning aybini Behbudiyga qo'yadi. Faqat Miller emas, Toshkentda 9-aprelda boshlangan Turkiston ishchi va soldat deputatlari sovetlarining birinchi o'lka syezdida ayrim rus deputatlari Buxoro fojiasining sababini Samarqanddan "o'z ixtiyorlari ilan" borgan deputatlarga to'nkaydilar. Millatni ich-ichidan qayrash va nizo chiqarish izchil davom etadi. Behbudiy mazkur syezdda minbarga chiqib bor voqeani tushuntirib bergan va bu haqda "Buxoro voqealari va daf'i tuhmat" ("Hurriyat" gazetasi, 1917-yil 1-may) degan maxsus maqola yozgan edi. Shu yil noyabrning 26-sida Qo'qonda o'lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi ish boshladi. 27-noyabrga o'tar kechasi "Turkiston muxtoriyati" e'lon qilindi. Bu mustamlakadan mustaqillik tomon qo'yilgan jildiy va jasoratli qadam edi. Uning ma'naviy otasi, shubhasiz, Behbudiy edi. "27-noyabrda Qo'qonda Turkiston muxtoriyati umumiy musulmon syezdida e'lon qilindi. Muborak va xayrli bo'lsun! Kamina ham majlisda bo'lushtan iftixor etaman. Yashasun Turkiston muxtoriyati!" – deb yozgan edi Behbudiy.

Muallif bu qadim otalar yurtini unda yashab turgan barcha qon-qarindosh millatlarning birligi, hamkorligi bilangina saqlab qolish mumkinligini teran anglaydi. Butun vujudi bilan Turkistonni birlikka chorlaydi. "Bovurlar! – deb yozadi qozoq birodarlariga ochiq xatida, – bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e'lon qilindi va siz bilingki, haq olinur, lekin berilmas. Inchunin, muxtoriyatda olinur, lekin berilmas. Ya'ni muxtoriyatni Turkiston bolalarining o'zi birlashib, g'ayrat ila olurlar. Albatta, boshqalar tarafidan berilmas. Boshqalarning qo'lidan kelsa, bermaslar. Biz bo'shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo'liga sa'y qilmasak, albatta hozirgi qog'oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo'q qilurlar. Bul, albatta shundaydur va bul so'zga hech kim ixtilof qilolmaydur... Endi ishlar shu holda ekan, biz hammamiz, ya'ni qirg'iz, qozoq, o'zbek, turkman, arab, fors, xullas, Turkistondagi, Qozog'istondagi va

Turkmanistondagi barcha musulmonlar va hamda mundagi yahudiy va xristianlar birlashib, ittifoq ila shu muxtoriyatning amalga kelishiga sa'y va ehtimol etmog'imiz lozimdur...

Muxtoriyat boy berildi. U Sovetlar tomonidan xoinona bostirildi. 19 – 20 fevral kunlari shahar to'pga tutildi. 10 mingta turkistonlik o'ldirildi, 180 ta qishloqqa o't qo'yildi.

Behbudiy iztirob bilan mayning boshida Samarqandga qaytadi. U yerda tura olmay, Toshkentga keladi. Turkiston rus sovet hukumati rahbarlari bilan muzokaralar natija bermaydi. Orzulari chil-chil bo'lgan Behbudiy 1919 yilning bahorida – 25 martda Shahrisabzda qo'lga olinib, sirli bir tusda Qarshi shahrida qatl qilinadi. Uning qatli haqidagi xabar o'sha paytdagi poytaxtimiz Samarqandga rosa bir yildan keyin ma'lum bo'ladi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutadi. O'nlab marsiyalar yoziladi. «Behbudiyning sag'anasini izladim» deb atalar edi Fitratning bir she'ri. Ayniyda bir emas, uch she'r bor.

Sani mundin buyon Turon qo'rolurmu, ko'rolmasmu?


Saning mislingni Turkiston topolurmu topolmasmu? – deb boshlanardi uning she'rlaridan biri. Mashhur Cho'lpon ham Behbudiyning fojiali o'ldirilganiga bag'ishlab she'rlar yozdi.

Qarshi shahri 1926 – 37-yillarda 11 yil Behbudiy nomi bilan yuritildi. Biroq uning asl qiyofasi xalqdan sir saqlandi. Adib nomining abadiylashtirilishi shunchaki bir niqob edi. Qarshi shahriga uning nomi qo'yilgan o'sha 1926-yildayoq u mansub bo'lgan jadidchilikni aksilinqilobiy, aksilsho'roviy harakat sifatida qoralash kampaniyasi boshlab yuborilgan edi.


Mavzuni o‘zlashtirish uchun topshiriqlar


1-topshiriq. Mazkur taqdimotdan foydalanib, Behbudiyl faoliyatiga oid ma’lumotlarni to’ldiring

Vizual materiallar




Bo’sh o‘rinlarni ma’ruzadan foydalanib to’ldiring.






2-topshiriq. Tarmoqlash metodidan foydalanib Behbudiy maqolalarini sharhlang.



3-topshiriq. Behbudiyning pedagogik faoliyatiga baho bering.



Avloniy hayoti va ijodi (1878-1934)

Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida dunyoga keldi. Abdulla 7 yoshdan O‘qchidagi eski maktabda Akramxon domlada savod chiqardi. 1890-yilda shu mahalladagi madrasaga o‘tdi. So‘ng Shayxontohurdagi Abdumalikboy madrasasida Mulla Umar Oxundda tahsil ko‘rdi. Ammo tirikchilikning og‘irlashuvi o‘qishga imkon bermaydi. «1891-yildan boshlab, faqat qish kunlarida o‘qub, boshqa fasllarda mardikor ishladim» – deb yozadi Avloniy. Ko‘p o‘tmay, bu ham barham topdi. U butunlay ishga sho‘ng‘ib ketdi. O‘zi aytganidek, “binokor”likni o‘rgandi, «g‘isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik ishlari» bilan mashg‘ul bo‘ldi. Adabiyotga havas unda shu yillari uyg‘ondi. 1900-yilda Avloniy toshkentlik savdogar bir xonadonning Salomatxon degan qiziga uylanadi. Shu yili otasi vafot etadi.

1904-yilda Avloniy Mirobodda usuli jadid maktabi ochadi. 1907-yilda o‘z hovlisida “Shuhrat” gazetasini chiqara boshlaydi. Gazetaning yo‘li ayon bo‘lishi bilan do‘stidan dushmani ko‘paydi. Natijada 10-soni chiqib bekildi. Avloniy gazetasining yopilishini o‘z tarjimai holida “yashirin tashkilotlar” bilan aloqaga,

“Rafiq Sobirov” deganning xiyonatiga bog‘laydi. Xullas, gazeta yopildi. Redaksiya asbob-ashyolari, qogozlar va materiallar hammasi musodara qilindi. Lekin Avloniy bo‘sh kelmadi. A.Bektemirov nomiga ruxsat olib “Osiyo”ni chiqara boshladi. Bu gazetalar o‘zbek milliy matbuotining dastlabki namunalari bo‘lishi bilan ham muhim edi.

1914-15-yillarda advokat Ubaydulla Xo‘jayev bilan “Sadoyi Turkiston” gazetasida hamkorlik qiladi. Gazetadagi she‘r va maqolalarning aksariyati Avloniy qalamiga mansub. Bu hol uning tahririyatdagi mavqe’- e’tiborining ancha baland bo‘lganligini ko‘rsatadi. Lekin gazeta uzoq davom etmadi. 66-soni chiqib, moddiy ahvolning tangligidan yotib qoldi.

Umuman, Avloniy 1904 – 1905 yillardan ham ijodiy, ham amaliy ish bilan qizg‘in shug‘ullandi. O‘z she‘rlarini “Hijron” taxallusi bilan e‘lon qildi. Maqolalarini esa “Mulla Abdulla”, “Avloniy”, “Abdulla Avloniy” nomlari bilan bostirdi. So‘ngroq uning ko‘p ishlatgan laqablaridan biri “Indamas” bo‘lgan edi.

1909-yilda “Jamiyati xayriya” ochdi va mahalliy xalq bolalarining o‘qib bilim olishi uchun pul yig‘ib, maktablarga tarqatdi. Bu haqda hatto Orenburgdagi “Vaqt” gazetasi yozib chiqdi.

1913-yilning oxirida toshkentlik mashhur jadidlar-taraqqiyparvarlarning tashabbusi bilan “Turon” jamiyati maydonga keldi. Uning muassislaridan biri Avloniy edi. Jamiyat qoshida teatr truppasi tuzildi. Avloniy truppasi sahnalashtirgan birinchi asar Behbudiyning “Padarkush”i bo‘ldi.

1914-yil 27-fevral Toshkentning 2000 kishilik muhtasham “Kolizey” teatri tomoshabinlar bilan to‘la. Galereya va yo‘laklarda ham odam qaynaydi... Sahna ochiladi. O‘rta bo‘y, miqti, yevropacha kiyingan kishi paydo bo‘ladi. – Muhtaram jamoat! – gap boshlaydi u. – Bugun Toshkand xalqi hayotida tarixiy kundir... Notiq teatr va uning jamiyat hayotidagi o‘rni haqida so‘zlaydi. Tomoshabinlar uning har bir gapini berilib tinglaydilar.

“Teatru o‘yunbozliq emas! Masxarabozliq ham emas, – davom etadi u. – Teatr bamisoli oynavand bir uykim, kirgan har bir kimsa o‘z husn-u qabihini ko‘ra olur... Yuziga un surtib masxaraboz shakliga kirgan zotlar tabibi hoziqdirlar...” Notiq

teatrni har bir xalq milliy taraqqiyotining muhim belgilaridan deb hisoblaydi, rus fransuz, turk, tatar, ozarboyjon turmushidan misollar keltiradi. U mashhur taraqqiychimiz Munavvarqori edi.

Spektakl boshlandi. U mahalliy xalq turmushidan olingan, yerli havaskor yoshlar tomonidan qo'yilgan birinchi sahna asari mashhur "Padarkush" edi. Spektakl deklamadiyaga ulanib ketdi.

"Turon" o'z faoliyatini shunday boshlagan edi. Truppa ishida qardoshlar ham ishtirok etdilar. Jumladan, Avloniy taniqli tatar rejissyori Zaki Boyazidskiy, mashhur ozarboyjon san'atkori Sidqiy Ruhillo bilan hamkorlik qildi. Truppaning g'oyaviy-badiiy rahbari Avloniy edi. 1914-yilning 26-dekabrida truppa "Turkiston" nomi bilan Farg'ona vodiysi bo'ylab safarga chiqdi, bir qator shaharlarda gastrolga bo'ldi.

Avloniy truppa uchun "Advokatlik osonmi?!", "Pinak", "Biz va Siz", "Ikki sevgi", "Po'rtugaliya inqilobi" kabi dramalar yozdi.

"1915-yilda mahalla xalqi domlamiz "teatrchi" bo'ldi", "masxaraboz bo'ldi", – deb meni maktabdan quvib, Mirobod mahallasidagi boshlang'ich maktabni yopdilar», – deb yozadi Avloniy o'z tarjimai holida.

Avloniy ijtimoiy faoliyatda qizg'in davom etdi. Jumladan, uning shu yillari "Nashriyot", "Maktab" kabi shirkatlar tuzishda bosh-qosh bo'lganini eslash kifoya. Adib bularni keyinroq o'z tarjimai holida shunday izohlaydi: "Bu vaqtlarda bizning maqsadimiz zohirda teatru bo'lsa ham, botinda Turkiston yoshlarin siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi". Ushbu jamiyatlarning ishtirokchilari, xususan, Munavvarqori, shoir Tavallo, Nizomiddin Xo'jayev, Ubaydullo Xo'ja, aka-uka Saidazimboyevlar Turkistonning ma'lum va mashhur kishilari edilar. Avloniy 1917-yil Fevral voqealaridan keyin "Yashasin xalq jumhuriyati!" shiori ostida "Turon" gazetasini chiqardi. Gazeta o'z maslak-maqсадini "Musulmonlar orasida ko'p yillardan beri davom o'lan umumg'a zo'rlik, bid'at odatlarni bitirmak, kelajakda bo'ladurg'on jumhuriy idoraga xalqni tayyorlamoq", – deb e'lon qildi. Biroq gazeta juda katta qiyinchiliklar bilan dunyo yuzini ko'radi; 2-sonidayoq Mirmuhsinning bir maqolasi atrofida janjal chiqadi. Muharrirni vazifasidan

chetlatadilar, eskiparast ulamolar matbaa egalarining uylariga vakillar yuborib, “agarda siz Avloniy gazetasin matbaangizga bossangiz, o’lsangiz sizga janoza o’qutmasmiz”, – deb qo’rqitib, gazetani yakkalab qo’yadilar.

May oyidan urush orqasidagi qora xizmatga olingan mardikorlar qaytib kela boshladilar. Ularning uyushmalari paydo bo’ldi. Avloniy ularda ishtirok etdi. 6-iyunda Toshkent ishchi va soldat deputatlari Sovetiga saylanib, Eski shahar oziq-ovqat komissiyasi a’zosi qilib tasdiqlandi. Shu yilning 30-sentyabridan 10-oktyabrigacha bo’lib o’tgan ishchi syezdiga vakil saylandi. Bu tashkilotlarda eserlarning ta’siri kuchli edi. Eserlarning o’zida ham kelishmovchiliklar yuz berib, «so’l» guruhi ajralib chiqdi. Avloniyning inqilob bilan bog’liq jo’shqin she’r va maqolalari, ayniqsa “Ikki sevgi” nomli dramasi uning eserlar harakatiga unchalik befarq bo’lmaganini ko’rsatadi. Lekin eserlarning ayni shu paytlari Yettisuvda qozoq va qirg’izlarning hosildor yerlarini tortib olib joylashayotgan rus muhojirlarini qo’llab-quvvatlashlari mahalliy ziyolilarni ulardan sovutdi. Bolsheviklar esa bundan ustalik bilan foydalandilar. Ularni o’zlariga qo’shib olib, vaziyatga hokim bo’ldilar va pirovard-oqibatda hokimiyatni qo’lga kiritdilar. Avloniy davrning mana shu shiddatli oqimi izmida borar edi.

Maktab ishi, xalq orasida ma’rifat tarqatish Avloniyning 1917-yilgacha bo’lgan faoliyatining bosh yo’nalishini tashkil qildi. U bu yo’lda katta fidoyilik ko’rsatdi. Shoirning Mirobodda katta qiyinchiliklar bilan ochgan maktabi butun Toshkentda dovuq qozondi. Lekin ish og’ir kechdi. Chor mustamlakachilik siyosatini og’ishmay amalga oshirib borayotgan o’lka ma’muriyati maktab masalasida qattiq turdi. Har bir yangi usuldagi maktabning o’qituvchilarigina emas (ularning uy adreslarigacha talab etilgan), o’quvchilarning ham kimligi, ayniqsa, dastur va darsliklar hamda ularning mualliflari qat’iy nazorat qilindi.

1908-yilda Avloniyning Miroboddagi maktabi yopildi. Buning sabablari ko’p bo’lishi kerak. Avloniy, nazarimizda, o’z tarjimai holida shulardan bittasini tilga oladi:

“Maktabimda yer, odamlar, tog‘- Toshlar, daryo, osmon haqida suhbatlar o‘tkazmoqqa harakat qilganimni Mirobod johil kishilari bilishib, meni kofir bo‘lding deb, maktabimni yopdilar...”

Adib 1909-yilda Degrez mahallasida yana maktab ochadi. Avloniy dars berish jarayonida ochilayotgan yangi usuldagi maktablar uchun har jihatdan qulay bo‘lgan ko‘plab darsliklar yaratish zaruriyatini his qiladi. Shuning uchun ham adibning 1909-17-yillar davomida maxsus maktab bolalari uchun yozilgan o‘ndan ortiq kitobi maydonga keldi. Uning “Birinch muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Maktab gulistoni” singari darsliklari, “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar” to‘plami 10-yillarda bir necha bor qayta bosilib chiqdi va Turkistonning juda ko‘p yangi usul maktablari uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat etdi. “Muallim afandilar va adabiyot muhiblari banim bu asari nochizonalarimni iltifotsiz qoldurmadilar. Turkistonning eng mashhur muallimlari dars jadvalina kiritub, maydoni ta’lima qo‘ydilar”, – deb yozgan edi Avloniy mamnuniyat bilan.

Asrimiz boshlarida yangi maktablar uchun tuzilgan alifbelar anchagina bor. Agar uning ro‘yxati tuziladigan bo‘lsa, boshida, shubhasiz, Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval”i bilan Munavvarqorining “Adibi avval”i turadi. Avloniyning “Birinch muallim”i ham o‘zining ma’lum o‘rniga ega. “Birinch muallim” 1917-yilga qadar 4 marta nashr etilgan.

“Ikkinchi muallim” yuqoridagi kitobning bevosita davomi, “Alifbodan so‘ng o‘qutmak uchun” yozilgan, “axloqiy hikoyalar, adabiy she‘rlar ila ziynatlangan”. Binobarin, u darslik-majmua. Kitob dastlab 1912-yilda Toshkentda G‘ulom Hasan Orifjonov litografiyasida bosilib chiqdi.

1913-yilda Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari bosildi. 1917-yilda ikkinchi marta nashr qilindi. Kitob maktablarning yuqori sinf o‘quvchilariga darslik sifatida yozilgan. Lekin asrimiz boshlaridagi o‘zbek jadid ma’rifatchiligining noyob hodisalaridan bo‘lgan bu asarning ahamiyati faqat maktab doirasi bilan cheklanmadi. U adabiyot va axloq havaskorlari uchun ham qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi.

Avloniy o‘z asarini yaratishda Shayx Sa‘diy izidan bordi. Kitobning “Turkiy guliston yoxud axloq” deb nomlanganligi bejiz emas. Avloniy buni kitobning 1917-yilgi ikkinchi nashriga yozgan so‘ngso‘zida alohida ta‘kidlab ko‘rsatadi. U shunday yozadi: “Turkiston maktablarida o‘z shevamizda yozilmish mukammal “Axloq” kitobining yo‘qligi, afrodi millatning shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanlig‘i, o‘zum muallimlar jumlasidan o‘ldug‘imdan, manga ham ochiq ma‘lum o‘ldi. Shuning uchun ko‘p vaqtlar tajriba so‘ngidan adibi muhtaram Shayx Sa‘diy usulida yozmakni, garchi og‘ir ish bo‘lsa ham, o‘zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq va bu kamchilikni arodin ko‘tarmakni munosib ko‘rdim”.

“Turkiy guliston...” asrimiz boshlaridagi pedagogik fikr taraqqiyotidagina emas, balki umuman bu davr ijtimoiy-estetik tafakkur rivojida ham sezilarli iz qoldirdi. Uning bu yerda boshlab qo‘ygan juda ko‘p fikrlari she‘riyatida davom etdi.

Avloniy “1894 yildan boshlab she‘r yozishga tutingan” bo‘lsa-da, u she‘rlar bizgacha yetib kelmagan. Uning 1917-yilgacha bo‘lgan poetik merosi, asosan, “Adabiyot” nomli 6 qismdan iborat she‘riy to‘plamlarida jamlangan. Ularning har biri 1909-1917-yillar oralig‘ida alohida-alohida bir necha marotaba nashr qilingan. Shuningdek, o‘sha davr vaqtli matbuoti sahifalarida ham shoir she‘rlarini ko‘plab uchratamiz. Bu she‘rlarning deyarli hammasi mazkur to‘plamlarga kiritilgan.

She‘riyatda esa yangi g‘oya va timsollar uchun yangi shakl va ifodalar izladi. Eskilariga yangi mazmun singdirdi. Ularning muhimlari quyidagilar edi:

1. Vaznning yangilanishi.

Ma‘lumki, ming yillik klassik she‘riyatimiz aruz vaznida yozilgan. Asr boshidagi she‘riyatda ham u yagona va asosiy vazn edi. Lekin Navoiygacha bo‘lgan va undan keyin yaratilgan xalq og‘zaki ijodi – barmoq vaznida. Mumtoz adabiyotimizda barmoqda yozilgan she‘r deyarli uchramaydi. Lekin aruz murakkab, bo‘ronli davrning goh shiddatkor, goh bo‘g‘iq nafasini keng ommaga yetkazishda uncha qulay emas edi. Shuning uchun ham Avloniy muhim ijtimoiy masalalardan bahs ochuvchi ko‘pgina she‘rlarini barmoqda yozdi. Barmoqni xalq og‘zaki ijodidan yozma adabiyotga olib o‘tdi. Avloniyning barmoqdagi ilk she‘rlari xalq qo‘shiqlariga moslab yozildi.

2. Poetik janrlarning yangilanishi.

Adabiyot shu yillarda xalq hayoti bilan yanada yaqinlashdi, yanada xalqchil, ommabop bo'ldi. Adiblar yangi janrlar, shakllarda o'z kuchlarini sinashga shaylandilar. Ko'hna an'anaviy shakllar yangi xususiyatlar orttirdi. Avloniyning "Oila munozarasi", "Shoir ila to'ti" kabi bir qator she'rlari munozara xarakterida yozilgan. Masalan, "Shoir ila to'ti" she'rini olaylik. She'r shoir bilan to'ti o'rtasidagi dialogdan iborat. Asarning mazmuni quyidagicha: shoir jahongashta to'tidan dunyoda bo'layottan o'zgarishlar, boshqa mamlakatlar, elatlarning ahvoli haqida so'raydi. To'ti Turkiston xalqi hali ham g'aflatda ekanligini, ilm, madaniyat egallash uchun, hayotda o'zining haqiqiy o'rnini topish uchun qo'zg'almaganini aytib, "shoiri shirin suxan"ga "nadomat" aytadi.

3. Poetik obrazlarning yangilanishi.

Klassik adabiyotimizda ming yillardan beri ishlanib kelgan gul, bulbul, yor, ag'yor, may, charx (dunyo) kabi obrazlar bu davr adabiyotida, jumladan, Avloniy ijodida boshqacha ohang, boshqacha mazmun kasb etdi.

4. She'rlarning sarlavhalanishi.

Avloniy har bir she'rga sarlavha qo'yadi. Bu undagi kayfiyat va mazmunni ifodalashidan tashqari shoir lirikasining umumiy yo'nalishini belgilaydi. Avloniy umuman so'zga katta e'tibor beradi. Uning mo'jizaviy kuchini yaxshi biladi. Darhaqiqat, zamona hammani uyg'otadigan, barchani larzaga solib, olg'a undaydigan so'zlarni ko'proq talab etar edi.

4. An'anaviy "hamd" va "na't"lar mazmunining o'zgarishi.

"Adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'plami juzlari ham udum bo'yicha Olloh madhi ("hamd") va payg'ambarimiz sifatlari vasfi ("na't") bilan boshlanadi. Biroq ularning barchasi oxir-oqibat millat g'amiga kelib bog'lanadi. Shoir Allohga iltijo qilar ekan, millatning tanazzulidan "nifoq, bug'z, xurofot"dan dod soladi, Rasuli akram ruhidan madad tilaydi.

Avloniyning 10-yillarda yozgan "Pinak" (1915), "Advokatlik osonmi?!" (1916) dramatik asarlarida she'riyatdagi g'oya va fikrlar davom etdi. Jaholat va

zulmatga botgan Turkistonning chirkin manzaralari kulgili lavhalarda sahnada namoyish qilindi.

Avloniy 1917-yilda o'qituvchilik bilan shug'ullanishga ham imkon topdi. Shoir 1917-yilda mahalliy muallimlar o'rtasida siyosiy ishlar olib boruvchi "O'qituvchilar soyuzi"ni tuzgan edi. 1918-yilda esa Kommunistik partiya safiga a'zo bo'lib kirdi. O'lka sovetiga saylandi. Toshkent partiya tashkiloti, shahar ijroiya komitetida mas'ul vazifalarda ishladi.

1919-yilning iyunida Avloniy RSFSR hukumatining topshirig'i bilan Afg'onistonga boradi. 1919-yilning 28-sentyabridan 1920-yilning 20-iyuligacha Hirotida bosh konsul bo'lib turadi. Afg'on safari Avloniydagi bolsheviklar hukumatiga bo'lgan shubhani kuchaytirib yuboradi. O'zlarini haqiqatchi deb jar solgan rus bolsheviklarining sobiq chor generallaridan mutlaqo qolishmasligiga amin bo'ladi. "Oh, na insoniyat, na barobarlik, na sotsialistik, na millat tafriqa qilmaydurg'on internatsionalistlar dunyo yuzinda topilarmukin? – yozadi "Afg'on sayohati" xotiralarida. – Balki bordur, topilur, lekin vujudi anqoning tuxumidek kamyob ekanlig'in Afg'oniston safariga chiqg'onda aniq bildim. Afg'onistong'a chiqg'on besh hay'ati vakolaning ichida birgina musulmon man o'ldig'imdan har bir og'ir mehnatlar, har bir kulfat va aziyatlar meni ustimg'a yuklandi... o'rtoq Brovin afg'on tufrog'iga o'tgandan so'ng o'zini(ng) jenerol chor noil e'lon qilmish edi".

Avloniy 1920-yilda sog'lig'i yomonlashgani tufayli Afg'onistondan chaqirib olinadi va Turkbyuroning madaniyat bo'limiga boshliq qilib tayinlanadi. U shu yillari "Kasabachilik harakati" jurnalining muharriri, "Qizil bayroq" gazetasining tahrir hay'ati a'zosi sifatida ish olib boradi. 1921-yildan maorif sohasiga o'tadi. O'sha yili Toshkentdagi o'lka bilim yurtida, 1923-yilda Toshkent xotin-qizlar bilim yurtida mudir, 1924-yilda harbiy maktabda o'qituvchilik qiladi.

1925 – 30 yillarda O'rta Osiyo Kommunistik universiteti (SAKU), O'rta Osiyo Qishloq xo'jaligi maktabida dars beradi. O'rta Osiyo Davlat universiteti (SAGU) pedagogika fakultetining til va adabiyot kafedrası professori, so'ng mudiri bo'lib ishlaydi.

Avloniy ko‘plab sharqiya mashqlar ham yozdi. Sharqiyachilik inqilob yillarida juda keng tus olgan. Sabablari ma’lum. Ommaga ruh berish lozim edi. Avloniy o‘sha yillari “Hurriyat marshi”, “Qizil tayoqchilar marshi”, “Tolibi ilm marshi” kabi bir necha marshlar yarattan.

Avloniy 17-yildan keyin yana 17 yil yashagan bo‘lsa-da, ijodda ham, faoliyatda ham inqilobdan ilgarigidek serharakat bo‘lgan emas. Hatto birorta ham adabiy-badiiy kitob yoxud to‘plami bosilmagani buni ko‘rsatib turibdi. To‘g‘ri, “Nabil”, “Indamas”, “Shuhrat”, “Tangriquli”, “Surayyo”, “Chol”, “Ab”, “Chegaboy”, “Abdulhaq” kabi imzolar bilan gazeta-jurnallar-da, ayniqsa, “Mushtum”da ko‘plab hajviy she‘rlar, kulgi hikoyalar bostirib turdi. Lekin katta, jildiy ishlar qilmadi. Ammo she‘rlarida qochiriqlar, taggaplar ko‘payib bordi.

Masalan, “Mushtum”ning 1923 yil 15-sonida bosilgan “Bir munofiq tilidan” she‘rida bu yaqqol ko‘rinadi. Muallif she‘rda bir kishini emas, butun ziyolini buqalamunga aylantirib qo‘ygan inqilobni, sho‘ro hukumatini nishonga oladi.

Fors, rus, ozarboyjon, arab tillarini durustgina bilgan, Sharq va G‘arb madaniyati klassiklari bilan yaxshigina tanish Avloniy 20-yillarda samarali ilmiy ishlar ham olib bordi. 1930-yilda SAGU pedagogika fakultetining til bilimi kafedrası bo‘yicha professor, so‘ng mudir bo‘lib tasdiqlangani bejiz emas. Ilmiy xodimlar seksiyasida, O‘zdavnashrda, Respublika terminologiya komitetida, Davlat ilmiy sovetida mas‘ul vazifalarda ishladi. 1934 yil 25 avgustda vafot etdi.

1-topshiriq. Tarmoqlash metodidan foydalanib, Avloniy ijodiga razm soling. Zarur o‘rinlarda fikringizni bayon eting. Shu doirada fikr yuriting




2-topshiriq. Avloniy faoliyatiga baho bering.

jurnalistlik faoliyati	
pedagogik faoliyati	
badiiy ijodi	

3-topshiriq. Avloniy dramalarini tahlil qiling.


"Pinak"	"Biz va siz"	"Advokatlik osonmi"
"Po'rtugaliya inqilobi"	"Ikki sevgi"	

4-topshiriq. Avloniy – novator ijodkor



5- topshiriq. “Mozaika” metodidan foydalanish. Mazkur metoddan foydalanilganda talabalarda mustaqil mulohaza yuritish, kishilarni baholash ko‘nikmalari shakllanadi. Darsda gap qaysi asar va qaysi qahramon haqida ketayotganligini ochiq berilmay, uni topish talabaning o‘ziga havola etiladi. Yozuvchi o‘z asarida mohirlik bilan bergan o‘rinlarni talabaga bildirib, gap qaysi asar va qaysi qahramon haqida ekanligini, qahramonning yana qanday gap-so‘zlari, xatti-harakatlari undagi insoniy fazilatlarni namoyon etishiga misollar topish so‘raladi. Bu qismlarni yig‘ib butun holiga keltirishni bildiradi. Masalan, Avloniy hayoti va ijodi bo‘yicha quyidagi qismlardan foydalanib uning yaxlit ko‘rinishini paydo qilish mumkin.





Shu tariqa talabalar fikr yo‘naltirilayotgan asarni topadilar. Jadid adabiyoti vakillari faoliyatini baholashda ham bu metoddan foydalanish mumkin.

Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodi (1889-1929)

Hamza Hakimzoda Niyoziy – XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan, shoir, dramaturg, teatr arbobi, pedagog. U novator ijodkor sifatida badiiy adabiyotning hamma turlarida qalam tebratdi, uni xalq qalbiga yanada yaqinlashtirdi. U adabiy ijod bilan musiqa, rejissyorlik san’atini qo‘shib olib bordi, natijada o‘lmas sahna asarlarini yaratdi: “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi”, “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, “Maysaraning ishi” kabi she’riy to‘plam va dramalari mana shunday ijodning yorqin namunalaridir. Hamza Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakati shakllanayotgan bir pallada badiiy ijodga kirib keldi va bu harakatning butun mazmunidan shakl-u shamoyiligacha uning badiiy ijodi va amaliy faoliyatida o‘z ifodasini topdi. Jadid pedagogi sifatida usuli savtiya maktablari ochdi va ular uchun bir necha darslik va majmualar yaratdi.

Hamza 1889 yil 6 martda Qo‘qonda ziyoli oilada - tabib Ibn Yamin Niyoz o‘g‘li oilasida tug‘ildi. Ibn Yamin o‘zbek, arab, fors tillarida ancha savodli bo‘lib, Qo‘qon ulamosi orasida katta e’tiborga loyiq tabib edi. Hamza dastlab mahalla maktabida, 1899 – 1906 yillarda Qo‘qon madrasalarida o‘qidi, birmuncha vaqt rus-

tuzem maktabida rus tilini o'rgandi. XX asr boshlarida sodir bo'layotgan muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalar Hamza hayotiga, uning ijodkor sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi, 1905-yil inqilobiy harakatlar Rusiyaning chekka o'lkalari xalqlarida ma'rifat, ozodlik, istiqlol sari intilishlariga turtki bo'ldi. Uning badiiy ijodga, nafis san'atga bo'lgan qiziqishi 1900-yillardan boshlandi. 1908-yilda Namanganda o'qib yurgan kezlari Hamza tatar maorifchisi Abdulla To'qmu'llin bilan tanishadi: "Ul menim qo'limda o'z qalamim bilan yuz sahifadan ortig'roq eski usuldagi yozishmalarimi ko'rib, tarbiyag'a kirishdi", – deb yozadi Hamza tarjimai holida. 1909 yilda Hamza Buxoroning ulug' taraqqiyparvar mudarrislaridan, usuli jadid maktablari tarafdorlaridan bo'lmish Muhammad Ikrom ibn Abdusalom qo'lida arab tilini o'rganish uchun Buxoroga boradi, ammo u yerda yuz bergan shia va sunniy janjali bunga imkon bermaydi.

Uning ijodiga, ayniqsa, Ismoilbek Gaspralining "Tarjimon", Fotih Karimiyning "Vaqt" gazetalari, Rizo Faxriddinning "Sho'ro" jurnali, shu bilan birga, o'zbek tilida Toshkentda chiqa boshlagan Ismoil Obidiyning "Taraqqiy", Munavvarqori Abdurashidxon o'g'lining "Xurshid", Abdulla Avloniyning "Shuhrat" gazetalari kuchli ta'sir ko'rsatdi, ular bilan aloqa o'rnatdi. Hamzaning ilk she'rlari va maqolalari mana shu gazeta va jurnallarda bosildi. «Tarjimon» gazetasini muntazam kuzatib borgan Hamza Gaspralining 1906-1907-yillarda shu gazeta sahifalarida bosilgan, butun turk olamining, shu jumladan, Turkiston o'lkasining mustamlaka asorati botqog'iga tushib qolishi sabablari haqida bahs yurituvchi "Mukolamai salotin" asari bilan tanish bo'lgan.

Hamza 1910-yilda Toshkent shahrida amaliy faoliyatga kirishib, Qashqar mahallasida birinchi marta usuli jadid maktabi ochadi. Bu davrda u Toshkentda Turkiston jadidchilik harakatining rahbari Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li va uning atrofidagi shogirdlari usuli jadid muallimlari aka-uka Shokirjon va Sobirjon Rahimiylar, Sami'qori bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

1911 yilda Qo'qon shahrida u shunday maktab ochadi. Bu maktablar chor ma'murlarining ta'qibi bilan yopiladi. U 1911-yilda haj safariga o'tlanadi: Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Arabiston mamlakatlarining markaziy

shaharlarida bo'ladi. Hamza qayerda bo'lmasin, u yerning ta'lim-tarbiya, o'quv muassasalari bilan tanishadi.

Haj safaridan qaytgach, pedagogik faoliyat bilan bir qatorda, adabiy-badiiy ijodga beriladi. 1914 yilda dastlab Marg'ilonda, keyin Qo'qonda usuli jadid maktabi ochadi. Bu haqda "Tarjimai hol"ida quyidagilarni yozgan edi: "1914-yilning oxirlarida Marg'ilonda maktab ochdim. Sakkizinchi oygacha bormay, Andreyev ismindag'i Skobel maorif rahbari tomonidan majburiy yopildi... Undan yana Xo'qand kelib, yo'qsil bolalar uchun pulsiz o'qish maktabi ochdim... o'zim 4 oyga davom ettirgandan keyin uyezd nachayligi Medinskiy tomonidan tintuv bo'lib yopildi. Lekin hech bir qanday qog'ozlarim qo'liga tushmagani uchun qamalmay qutuldim".

Hamza bu davrda yangi maktablar uchun "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi" kabi darsliklar yaratdi. 1915-yilda qo'qonlik ma'rifatchilar bilan hamkorlikda usuli jadid maktablari uchun darsliklar nashr qilish, o'quvchilarni Toshkent va boshqa shaharlarda bosmadan chiqqan darsliklar bilan ta'minlash maqsadida "G'ayrat" kitobxonasi tashkil etadi. Bu kitobxonada Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval», Munavvarqorining "Adibi avval", "Adibi soniy", Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniylarning darsliklari ham ko'p nusxalarda bo'lgan.

Hamza o'z ijodini an'anaviy lirik she'rlar yozishdan boshladi. U "Nihoniy" (yashirin, maxfiy ma'nolarini bildiradi) taxallusida ijod qildi va 1905-1914-yillarda ushbu taxallusda yaratgan she'rlarini to'plab, "Devoni Nihoniy"ni tuzdi. Devonga shoirning 177 she'ri kiritilgan bo'lib, ulardan 150 tasi g'azal, qolganlari masnaviy, murabba', muxammas, musaddas va 1 maktubdan tashkil topgan; bulardan 165 ta she'r o'zbek tilida, 10 ta she'r fors-tojik tilida, 2 ta she'r o'zbek va rus tilida shirushakar janrida yozilgan.

Shoir ijodida muhim o'rinni ajoyib she'riy guldastalari – "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi" egallaydi. Bu umumiy nom ostidagi 7 she'riy to'plamga 1915–1917-yillarda yaratgan she'rlari kiritilgan. Bu she'riy to'plamlar: "Atir gul", "Oq gul", "Qizil gul", "Pushti gul", "Sariq gul", "Yashil gul", "Safsar

gul”. Ularda xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini uyg‘otish, ilm-ma’rifatga da’vat etish g‘oyasi yetakchi edi.

Shoirning Birinchi Jahon urushi arafasida xalq orasida mashhur bo‘lgan “Lo‘m-lo‘m Mamajon” ashulasi ohangida yaratgan “Yig‘la, Turkiston” she’rini olib ko‘raylik. Ashula quyidagi satrlar bilan boshlanar edi:

Lo‘m-lo‘m, lo‘m-lo‘m Mamajon, lo‘m-lo‘m Mamajon,
Istakonda choy ichgan, lo‘m-lo‘m Mamajon.

Hamza millatni jaholat, istibdod, ilmsizlik tufayli foje’ ahvolga tushgan Turkistonni yig‘lashga da’vat etadi: sen shunday yig‘laginki, hatto «ruhsiz tanlar tebransin», seni shunday ahvolga solgan, o‘zi zillatga, xorlikka botgan millat uyg‘onsin! “Lo‘m-lo‘m Mamajon” ashulasidagi sho‘x ohang o‘rnini qayg‘u va uning ohangida millatni ilm-ma’rifatga da’vat egallaydi:

Darig‘ tutmang ilm uchun ketsa mol-u jon,
O‘quv farzligi ming yo‘l Qur’onda farmon,
Ma’rifatsiz tonulmas ahkomi imon,
Ilmsizga aytulmas komil musulmon.
Yig‘la, yig‘la, Turkiston, yig‘la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig‘la, Turkiston.

Xorazm xalq kuylari ohangida bitilgan “Yaxshi holin yo‘qotgan oqibatsiz Turkiston” misrasi bilan boshlanuvchi she’rida shoir mustamlaka o‘lkaning iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy tutqun ahvolini buyuk dard bilan qalamga olgan. Har bir millatning istiqboli – ilm-ma’rifatda. Shoirni qiynayotgan, uning faryod chekishiga sabab bo‘layotgan narsa millatning ilmsizligi, bu ilmsizlik oqibatida o‘ziga “O‘lmasindan ilgari jismiga kafan bichgan”i:

Bo‘g‘zi sori to‘lguncha g‘aflat sharobin ichgan,
O‘lmasindan ilgari jismiga kafan bichgan,
Umid rishtasin kesub, or-u nomusdan kechgan,
Bog‘lu qo‘ling, Turkiston, nobakorlarmi chechgan?

Umuman, Hamzaning “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi”ga kirgan she’riy to‘plamlar nafaqat o‘quvchilar, hatto san’atkor-hofizlar o‘rtasida ham katta shuhrat qozongan.

Ko‘pgina o‘zbek ijodkorlari qatori Hamza dunyoqarashining takomilida jadidchilik harakatining buyuk rahnamosi Ismoilbek Gasprali va “Tarjimon” gazetasining roli katta bo‘lgan. 1914-yil 11-sentyabrda Gasprali vafoti munosabati bilan hamma o‘zbek jadid ijodkorlari singari Hamza ham o‘z hamdardligini bildirib, “Yavmul-vafot” (Sadoyi Farg‘ona, 1914-yil 24-sentyabr) maqolasini va “Marsiya” (Sadoyi Farg‘ona, 1914-yil 28-sentyabr) she’rini e‘lon qildi.

Hamzaning “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi”ga mansub “Safsar gul” to‘plamiga mardikorlikka olingan o‘zbekning yurtidan uzoqdagi xor-u zorliqda kechgan hayotini tasvirlovchi she’rlari kirgan. Ularda mardikorlarning ichki his-tuyg‘ulari, el-yurtiga bo‘lgan cheksiz muhabbati, sog‘inchi o‘z ifodasini topgan. Ammo shoirning ushbu to‘plamida «oq podshoh»ni, general gubernatorni ko‘klarga ko‘taruvchi, mardikorlarni fidokorona mehnatga da’vat etuvchi she’rlar ham mavjud. Bu hol shoirning ijodida uzoq davom etmadi: u mardikor olish voqeasi mustabid tuzumning millatni tahqirlovchi, uni abadiy tutqunlikda saqlovchi tadbiri ekanligini tushunib yetdi. Bu hol uning mazkur to‘plamidan bir oz keyin yaratgan «Farg‘ona fojialari» tetralogiyasining “Istibdod qurbonlari” qismida rus mustamlakachilarini ayovsiz fosh etishida yaqqol ko‘rinadi:

“Marusa. Man aytaman, o‘zlari shunday iflos. A, mamlakatlari yaxshi, sermeva, ma’danzor, boylik shularda. A, o‘zlari bunday bechora, ahmoq (kulub). Da, “Mevani yaxshisini it yeydi”, degan so‘z xo‘p so‘z-da, a!

Nachalnik. Da! Shunday. Endi biz hozirgi Turkistondagi filosofu zamon gaspodin Ostroumovning deganicha, bularni shunday qaro mehnatlar bila ezub buturmoqg‘a kerak. Chunki agar bulardan g‘ofil qolinsa, albatta zamon kelur... bir kun bizga kutulmagan ikkinchi bir balo bo‘lub chiquvlari shubhasizdir. Shuning uchun mana shunday fursatlarda istifodasiz bo‘lmay, ziyolik firqalaridan tortub, sekin-sekin yo‘q eta borish kerak”. 1918-1920-yillarda mustamlakachilar adresiga aytilgan bu so‘zlar haqiqiy jasorat edi.

Gazeta va jurnallarda maqolalar yozib, qalami ancha charxlangan, turk, tatar hamda rus adabiyotidan ancha xabardor Hamza o'zbek adabiyoti uchun nisbatan yangi tur – nasrga qo'l urdi, "Milliy ro'mon" deb nomlagan "Yangi saodat" asarini 1915-yilda toshbosmada "Madora" kutubxonasi noshirligida bosmadan chiqardi. Romanga ushbu bayt epigraf qilib olingan:

O'qub tahsili ilm ayla, maorif sharbatini yutgil,
Tilingni jahldan qutqor, g'ami millat bila o'tgil.

Ushbu asarda Hamzaning yetuk ma'rifatparvarligi yana bir bor namoyon bo'ldi. Asarda Abdulqahhor ismli ancha katta savdogar boy «dunyo ham oxiratning saodati» bo'lmish ilm-ma'rifatni egallash o'rniga ichkilik, qimor kabi qabih ishlarga berilib ketadi va butun mol-dunyasini barbod qiladi. Oqila xotini Maryam har qanday qiyinchiliklarga qaramay, o'z umrini o'g'li – olti yoshli Olimjonni, uch yoshli qizi Xadichani tarbiyalashga bag'ishlaydi: Olimjonni usuli jadid maktabida o'qitadi. O'z odobi, ilmga chanqoqligi bilan Olimjon jadid muallimining mehrini qozonadi, muallim unga otalarcha mehr-muruvvat ko'rsatadi. U voyaga yetgach, singlisi Xadichani ham o'qitadi va yaqin maktabdosh do'sti Ahmadjonga uzatadi. Darbadarlikka duchor bo'lgan otasi Abdulqahhorni yana o'z oilasiga qaytaradi, ilm-ma'rifatli Olimjon oilasini saodatga musharraf etadi.

"Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi"ning "Birinchi bo'lim"ida "Dilog'on" ohangi bilan aytiluvchi "Ko'zni oching, qardoshlar!" she'rida shunday misralar bor:

Tashlab Nihon ko'ngilda bo'lgan illatni,
Kinu bug'z-u adovat, fisq-u g'iybatni,
Sunniiy, shiiy so'zlarni barbodlashaylik,
Millat yo'lin ko'plashub obodlashaylik.
Ulfatlashub, yozlashub ham qishlashaylik,
Teatr yasab, konsertlar, olqishlashaylik.

1915-yilda nashrga tayyorlangan ushbu to'plamdan joy olgan yuqoridagi misralar Hamzaning sahna san'atiga alohida ahamiyat berganligini ko'rsatadi.

Hamza 1915-yildan faoliyat ko'rsatgan Qo'qon teatr truppasi uchun sahna asarlari – dramalar yozdi. 1915-yilda yozgan “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” dramasi Hamzaning bu sohadagi birinchi qadami bo'ldi. Ushbu dramadan keyin u “O'ch”, “Muxtoriyat yoki avtonomiya” (1917), “Kim to'g'ri?”, “Boy ila xizmatchi” (1918) kabi sahna asarlarini yaratdi.

“Zaharli hayot...”dagi sentimental ruh dramaning tomoshabin qalbiga kirib borishida asosiy vosita bo'lgan. Shuning uchun ham ushbu drama Toshkent, Qo'qon va boshqa shahar havaskor dramtruppalari tomonidan qayta-qayta sahnalashtirilgan. Bu drama birinchi o'zbek professional teatr tanqidchisi Mirmulla Shermuhammedov (1886—1923) e'tiborini qozondi. U Hamza va uning “Zaharli hayot...” dramasi tufayli o'zbek teatrini “yangi tiriklikka kirgani” bilan tabrikladi: “Zaharlangan turmushning qora sahifalarini tasvirlashda qalamni ustagina yuritgan dramaturgni tabrik etmasdan o'tolmaymiz... Hamza afandi asarda ko'rinadigan qahramonlarga g'oyat diqqat ila so'z va xarakterlar bergan”.

Hamzaning siyosiy qarashlarini, uning Turkiston muxtoriyatiga munosabatini aniq tasavvur qilishda Turkiston muxtoriyati g'oyasining paydo bo'lishi munosabati bilan 1917-yilda yozilgan “Muxtoriyat yoki avtonomiya” hajviy dramasi muhim ahamiyatga ega. 1917-yil Fevral inqilobi, Romanovlar sulolasining barbod bo'lishi butun jadid mutafakkirlari qatorida Hamzaning ham istiqlol haqidagi intilishlariga qanot bog'ladi. Jadidchilik harakatining rahbarlari Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li va Abdulla Avloniylar tomonidan 1917-yil mart oyida “Sho'royi islom” jamiyati tuzildi. Bu jamiyatning “Markaziy sho'ro”si tarkibida Mahmudxo'ja Behbudiy, Mustafo Cho'qayev, Ubaydulla Xo'jayev kabi siyosiy arboblardan bor edi. Shu yilning yozidan bolsheviklarning faolligi kuchaydi va mutaassib din peshvolari “Ulamo” nomi bilan “Sho'royi islom”dan ajralib chiqdi. Bu ajralish keyinchalik bolsheviklar uchun qo'l keldi, “Ulamo” jamiyati mustaqillik uchun kurash olib borgan sho'royi islomchilarni barbod qilishda mustamlakachilarga yordam berdi. “Sho'royi islom” va “Ulamo” jamiyatlarining sho'balari o'lkaning turli shaharlarida ham tashkil etildi. Fevral inqilobi natijasida Turkistonda qanday davlat tuzish masalasi yuzasidan bu jamiyatlar o'rtasida keskin ixtiloflar, ziddiyatlar vujudga

keldi. Hamza “Ulamo” jamiyatining Qo‘qon shu‘basi majlisini ushbu “Muxtoriyat yoki avtonomiya” dramasiga asos qilib oldi. Muallif dramaning qisqacha syujetini shunday bayon qiladi: “Turkistonda hurriyat bo‘luvi munosabati ila yoshlar va ulamolar orasida ixtilof o‘laroq ulamolar ayrilib ketuvlari, ruhoniy majlisin tasviridir”.

Bu o‘rinda yoshlar – “Sho‘royi islom” jamiyati a‘zolari, ya’ni jadidlar; ulamolar – mutaassib qadimchilar “Ulamo” jamiyati a‘zolari ekanligi dramaning boshidan oxirigacha ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Asar muallifi el-yurt taqdirini o‘z zimmalariga olgan ulamolar qanchalik razil, nashavand, tuban kishilar ekanliklarini o‘z tillaridan fosh etadi.

Mustaqillikka qadar hamzashunoslar bu dramani Qo‘qon muxtoriyatining “rasvosini chiqargan”, uning “reaksion mohiyati”ni fosh etgan asar sifatida baholab keldilar. Aslida Hamza Turkiston muxtoriyatini tuzishda faol ishtirok etgan jadidlarga qarshi buzg‘unchilik, sotqinlik ishlarini olib borgan mutaassib “Ulamo” jamiyati a‘zolarining naqadar nodonligini, kaltafahmliqligini fosh etgan edi. Asarda qahramonlar ismining bosh harfi berilgan. Hamza ushbu asar tufayli “Ulamo” jamiyatining ta‘qibiga uchradi va 1917-yil oktyabridan 1918-yilning 10-martiga qadar Turkiston shahrida do‘sti Saidnosir Mirjalolov xonadonida yashirinib yashadi. Demak, 1917-yil 27-noyabr Turkiston muxtoriyati e‘lon qilingan kunni Hamza Turkiston shahrida mamnuniyat bilan kutib oldi va “Turkiston muxtoriyatiga” she‘rini yaratdi. She‘r “Ulug‘ Turkiston” gazetasining 1918-yil 11-yanvar sonida e‘lon qilindi. She‘rda shoir musulmon millatini ulug‘ bayram bilan muborakbod qilar ekan, ularni bir sanjoq – bayroq ostida birlashishga da‘vat etadi.

Hamza Oktyabr to‘ntarishidan keyin sho‘rolar hokimiyatini qo‘llab-quvvatlovchi she‘rlar, qo‘shiqlar bitdi, bolsheviklar hokimiyatining yangi shakddagi mustamlakachilik siyosatini ko‘ra olmadi. Ba‘zan o‘z qobiliyatini badiiy ijodga emas, sho‘ro hukumatining targ‘ibot-tashviqot ishlariga safarbar etdi. Uning 20-yillarning o‘rtalarida yaratgan “Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi” dramasi, “Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi” hajviy komediyasi o‘zbek dramaturgiyasi va teatr san‘ati taraqqiyotiga kuchli ta‘sir ko‘rsatdi. Hamza 1926-yil

27-fevralda “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” faxriy unvoni bilan taqdirlandi. Hamza Hakimzoda Niyoziy 1928-yilning avgustida sho‘ro hukumatining topshirig‘iga binoan Shohimardonga boradi, u yerda mavjud hukumat siyosatini barqaror qilishda, ruhoniylarga qarshi kurashda faol ishtirok etadi va 1929-yil 18-mart kuni shu kurashning qurboni bo‘ladi.

Hamzaning bir guruh mutaassiblar tomonidan o‘ldirilishi sho‘ro mafkurasida uning ijodini sinfiylik-partiyaviylik tamoyillariga asoslanib baholash uchun mezon bo‘ldi. Uni ma‘naviy zamindan yulib olib, o‘zi mansub bo‘lgan jadidchilik harakatiga, uning namoyandalariga qarshi qo‘ydilar, o‘zbek sho‘ro adabiyoti va san’atining yagona asoschisi sifatida talqin va taqdim etdilar. Bu g‘ayriilmiylikning eng yuqori namunasi sifatida Hamzaga bag‘ishlangan 17 seriyali “Olovli yo‘llar” filmini ko‘rsatish mumkin. Uydirmalar asosiga qurilgan bunday asarlar Hamzaga nisbatan hurmat-ehtiromni oshirish o‘rniga unga bo‘lgan ishonch va e’tiqodga putur yetkazdi.

Sho‘ro mafkurasining bu boradagi salbiy oqibatlaridan biri shu bo‘ldiki, milliyatchi shoirning ayrim satrlari, hatto asarlariga «pardoz» berildi, «tahrir» qilindi, “Boy ila xizmatchi” dramasi 1939-yilda dramaturg Komil Yashin tomonidan sotsialistik realizm talablari asosida, aytish mumkinki, qayta yozildi. Hamza ijodi mustaqillik, istiqlol tufayligina haqiqiy bahosini olmoqda. U hech bir bo‘rttirishsiz, qo‘shib chatishsiz ham XX asr o‘zbek adabiyotining atoqli vakili: novator shoir, hozirjavob nosir, iste’dodli dramaturg, g‘ayratli teatr arbobi, mohir pedagog sifatida zamondoshlari Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lponlar qatoridan munosib o‘rin olishga haqlidir.

Hamza ijodi bo‘yicha vizual materiallar

Hamzaning ijodiy faoliyati



Adabiy merosi

dramalari

she'rlari

nasriy asarlari

Hamzaning pedagogik qarashlari

dramalari

she'rlari

nasriy asarlari

Hamzaning pedagogik qarashlari

"O'qish kitobi"

"Qiroat kitobi"

"Yengil adabiyot"

“Первая книга”

“Maktabi dor ul
aytom”

“Bid’atmi,
majusiyatmi?”

Hamza dramalari

"Maysaraning ishi"

"Paranji sirlari"

"Boy ila xizmatchi"

"Zaharli hayot"

"Burungi saylovlar"

"Mulla Normuhammadning kufr
xatosi"

“Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasiga kirgan
to‘plamlar



1-topshiriq. Mavzuni o‘zlashtirishda Insert usulidan foydalaning.

Bunda quyidagilarga e’tibor bering.

1. Ma’ruza matnini o‘qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo‘ying.

V – bilaman.

+ - men uchun yangi ma’lumot.

– - men bilgan ma’lumotni inkor qiladi.

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo‘shimcha ma’lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzuga oid topshiriqlar	B	–	+	?
1.				
2.				
3.				
4.				

2-o‘quv topshiriq. «Qanday?» so‘rog‘ini qo‘yish bilan masalaning mohiyatini aniqlab bering.

1. Jadid adabiyoti vakillarining qanday asarlarini bilasiz?

2. Bu asarlarda qanday masalalar ko‘tarilgan?

3. Asarlar qanday sharoitda amalga oshirilgan?

4. Jadidchilik harakati qanday nomuvofiqliklarni yengib o‘tishni talab qilar edi?

Mavzuni o‘zlashtirish uchun test savollari:

1. Rus-tuzem maktablariga munosabat yerli ziyolilarda ikki xil edi:

1. Hamkorlik qiluvchilar. 2. Rad etuvchilar. Rad etuvchilar kimlar edi?

1. I.Gasprinskiy, Z.Validiy, M.Cho‘qayev.

2. Saidg‘ani Saidazimboy o‘g‘li, Sattorxon Abdug‘afforov,
Saidrasul Saidazizov.

3. Sattorxon Abdug‘afforov, Saidrasul Saidazizov, M.Cho‘qayev

4. I.Gasprinskiy, Z.Validiy, Saidg‘ani Saidazimboy o‘g‘li

2. Chor mustamalakachilarga qarshi kurash olib borgan Namoz Pirimqul o‘g‘li qaysi viloyatda ozodlik harakatini boshlab yuborgan edi?

1. Samarqand

2. Jizzax

3. Farg‘ona

4. Qashqadaryo

3. O‘z “Tarjimai hol”ida 1904-yildan Toshkentda yashirin “jadidlar to‘dasi” ish boshlaganini ma’lum qilgan ijodkor kim edi?

1. Abdulla Avloniy

2. Hamza

3. Behbudiy

4. Furqat

4. 1909-yilning 12-mayida Toshhoji Tuyoqboyev, Nizomqori Mulla Husanov, Mulla Abdulla Avlonov, Munavvarqori Abdurashidxonov, Bashirulla Asatillaxo‘jayev muassisligida 41 moddalik nizomga ega bo‘lgan tashkilot nomini aniqlang.

1. “Jamiyati xayriya”

2. “Qizil qalam”

3. “Chig‘atoy gurungi”

4. “Tarbiyai atfol”

5. 1910-yilning 2-dekabrida mudarris Hoji Rafi‘, Mirzo Abduvohid, Hamidxo‘ja Mehriy, Ahmadjon Maxdum, Usmon Xo‘ja kabilar tomonidan tuzilgan “Tarbiyai atfol” jamiyatini qaysi hududda yuzaga keldi?

1. Buxoroda

2. Samarqandda

3. Namanganda

4. Toshkent

6. “Bu gazeta tez fursatda shunday shuhrat qozondiki, hatto gazeta muharriri bo‘lgan Ismoil Obidiyga “Taraqqiy” ismi berildi. Hozirgacha xalq Ismoil Obidiyning ismini “Taraqqiy” deb yuritadur”

Bu fikrlar qaysi jadid namoyandasiga tegishli?

1. Abdulla Avloniy

2. Behbudiy

3. Hamza.

4. Munavvar qori

7. Adabiy kuchlar ko‘proq asosan gazeta-jurnallar atrofida uyushdilar. Chunonchi, Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875—1919), Saidahmad Vasliy (1869-1925), Siddiqiy Ajziy (1864-1927), Saidrizo Alizoda (1887-1945), Hoji Muin (1883—1942), Buxorodan Fitrat (1886—1938), Toshkentdan Kamiy (1865-1922) faol kabi iste’dodlar qaysi gazeta atrofida uyushdilar?

1. “Oina”

2. “Xurshid”

3. “Taraqqiy”

4. “Sadoyi Turkiston”

8. Toshkentda Munavvarqori (1878-1931), Abdulla Avloniy (1878-1934), Tavallo (1883-1937), Xislat (1880-1945), Mirmulla (1886-1923), Abdulla Qodiriy (1894-1938) Qo‘qondan Ibrohim Davron (1874-1922), Hamza (1889-1929), Andijondan Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon (1897—1938) qaysi gazeta atrofida uyushdi?

1. “Sadoyi Turkiston”

2. “Taraqqiy”

3. “Xurshid”

4. “Turkiston viloyatining gazetasi”

9. Nikolay II 1916 yilning 25 iyunida «Imperiyadagi g‘ayrirus aholining erkaklarini harakatdagi armiya turgan rayonlarda mudofaa inshootlarini va harbiy aloqa yo‘llarini qurish ishlariga, xuddi shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo‘lgan

boshqa har qanday ishlarga safarbar qilish» to'g'risida Farmoni amalda nimaga qaratilgan edi?

1. Mardikorlikka olishga
2. Mahalliy aholini Yevropa urushlariga jalb qilishga
3. Farmon asosida mahalliy ziyolilarni yo'q qilishga
4. Jadid faoliyatiga chek qo'yishga

10. Qaysi tashkilot 20-yillarda tarixga «bosmachilik» nomi bilan kirgan milliy-ozodlik harakatlarini o'zaro muvofiqlashtirib borishda muhim rol o'ynadi?

1. "Turkiston milliy birligi"
2. "Milliy ittihad"
3. "Turk adam markaziyati"
4. "Botir gapchilar"

11. 1918-yildan sotsialistik matbuot izga tusha boshladi. Uning dastlabki namunasi shu yilning 20-iyunidan chiqqan qaysi gazeta edi?

1. "Ishtirokiyun"
2. "Turon"
3. "Qizil tikon"
4. "Qizil bayroq"

12. 1918-yilda Toshkentda Fitrat tashabbusi bilan qanday adabiy-madaniy uyushma maydonga keldi?

1. "Chig'atoy gurungi"
2. "Milliy ittihad"
3. "Qizil qalam"
4. "Tarbiyai atfol"

13. Sarbast vaznida o'z imkoniyatlarini sinab ko'rib, "She'ri mansur" asarini yozgan ijodkorning nomini belgilang.

1. Hamza
2. Avloniy
3. Fitrat
4. Cho'lpon

14. Oybekning «Qutlug‘ qon» romanida u markaziy masala qilib qo‘yilgan edi. So‘ngroq adib “Bolalik” avtobiografik qissasida ham unga ma’lum o‘rin berdi. Nazir Safarov “Ko‘rgan-kechirganlarim”da keng ko‘lamda tasvir etdi. Asqad Muxtor «Chinor» romanida bir bobni shunga bag‘ishladi. Muhammad Alining “Boqiy dunyo” she’riy romanida ham u keng tasvirlandi. Mazkur adiblar qaysi masalaga murojaat etgan?

1. Turkiston ozodlik tarixi
2. Turkistonning Rossiyaga qo‘shib olinishi masalasiga
3. Jadidlar faoliyatiga
4. Yer-suv islohoti masalasiga

15. “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1905), “Risolai jug‘rofiyai Rusiy2 (1905), “Kitobat-ul atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) asarlarining muallifi kim?

1. Behbudiy
2. Avloniy.
3. Fitrat
4. Munavvar qori

16. Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoy chaqiriladi. Qaysi alloma ushbu qurultoyda turkistonliklar guruhini boshqaradi va katta nutq so‘zlaydi?

1. Behbudiy?
2. Xoji Muin
3. Munavvar qori
4. Avloniy

17. Qaychi rus amaldori «Biz tubjoy xalqni taraqqiyotdan, maktabdan, rus hayotidan 50 yil chetda tutdik» deb yozgan edi?

1. N.R.Kuropatkin
2. N.Ostroumov
3. S.Malov
4. Nikolay II

18. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko‘ra yangi o‘zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallifning o‘zi uni «Milliy fojia» atagan. Mazkur asar nomi qayd etilgan javobni toping.

1. “Padarkush”
2. “Advokatlik osonmi?”
3. “Loshmon fojiasi”
4. “Baxtsiz kuyov”

19. “Belatlar bir-ikki kun avval yoshlarni g‘ayrati ilan sotilib tamom bo‘lub edi. Ba’zi kishilar belatlarini ikki bahog‘a foidasi ilan boshqag‘a sotdilar. Soat yettidan minglab xalq ibratxonag‘a hujum qilgan. Ammo belat yo‘q. Uch so‘m berib, tikka turmoqg‘a ham rozi, yana yer yo‘q...” Qaysi asar mana shunday baland baholangan edi?

1. “Padarkush”
2. “Advokatlik osonmi?”
3. “Baxtsiz kuyov”
4. “Befarzand Ochildiboy”

20. Avloniyning “Turon” truppasi Kolizey (hozirgi Savdo birjasi binosi)da o‘z faoliyatini qaysi asar bilan boshlagan edi?

1. “Padarkush”
2. “Farg‘ona fojiasi”
3. “Po‘rtugaliya inqilobi”
4. “Siz va Biz”

21. Qaysi asar Turkistonni junbishga keltirgan qirg‘inbarot inqilob yillarida ham sahnadan tushmadi. Bir tomondan, millatni ma’rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o‘ynagan bo‘lsa, ikkinchi yoqdan, professional o‘zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi?

1. “Padarkush”,
2. “Zaharli hayot”
3. Advokatlik osonmi?
3. “Halima”

22. “1913 yillarda chiqqan “Padarkush” pyesasi ta’sirida “Baxtsiz kuyov” degan teatr kitobini yozib yuborg‘onimni o‘zim ham payqamay qoldim”, – deb yozgan adib kim edi?

1. Abdulla Qodiriy
2. Cho‘lpon
3. Hamza
4. Mirmusin Shermammedov

23. 1916-yilda Toshkentga kelib, Kolizeyda “Turon”ning qator spektakllarini ko‘rgan va “Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi... Yangi adabiyotning markazi – Samarqand... Yosh qalamkashlarning bosh ilhomchisi samarqandlik muftiy Mahmudxo‘ja Behbudiyydir” deb e’tirof etgan olim kim edi?

1. A.N.Samoylovich
2. V.V. Radlov
3. N.E.Bartold
4. Zaki Validiy

24. Behbudiyy tomonidan tashkil qilingan bu suratli haftalik majalla asosan o‘zbek tilida bo‘lib, unda ixcham forsiy she’rlar, maqolalar, ruscha e’lonlar ham berib borilardi... “Boshda haftada bir marta va ikkinchi yildan e’tiboran 15 kunda bir qatla chiqib, yigirma oy chamasi davom qildi... Kafkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi... Jadidlarning sevikli jurnallari edi. Mazkur jurnalning nomini aniqlang.

1. “Oina”
2. “Vaqt”
3. “Xurshid”
4. “Qizil qalam”

25. Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi” asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etdi. Nashriyot nomini aniqlang?

1. “Nashriyoti Behbudiyya”
2. “Ibratiyya”

3. “Milliy ittihad”

4. “Turkiston”

26. “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasining muallifi kim?

1. Behbudiy

2. Avloniy

3. Hamza

4. Fitrat

27. “Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug‘at va so‘zlarni qo‘sha bersak, bir oz zamonda til va milliyatimizni yo‘qoturmiz. Milliyatimizni yo‘qotganda diyonatimiz o‘z-o‘zi ila albatta, yo‘qolur”, “Bas, bizg‘a tilimizni ajnabiy so‘zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadur”. Ushbu fikrlar kimga tegishli?

1. Behbudiy

2. Avloniy

3. Hamza

4. Fitrat

28. “Tanqid saralamoqdur” maqolasining muallifini aniqlang.

1. Behbudiy

2. Avloniy

3. Hamza

4. Fitrat

29. O‘zining “Sart so‘zi majhuldur” maqolasida “sart” kalimasining xalqona etimologiyasidan tortib, Alisher Navoiy, Bobur, Muhammad Solih, Abulg‘ozi Bahodirxonning asarlarigacha, N.Ostroumov kitobidan D.G. Logofetning “Buxoro xonligi”-yu L.M.Budagov lug‘atlarigacha, I.I.Geyer “Sayohatnoma”laridan A.Vamberi “Kundaliklar”igacha, jadidchilik harakatining Ahmad Zaki Validiydan Ismoilbek Gasprinskiygacha bo‘lgan namoyandalarining bu sohadagi kuzatishlarini to‘plab, xulosalagan va o‘z jurnalining bir necha sonlarida nashr qildirgan olim kim edi?

1. Behbudiy

2. Avloniy

3. Hamza

4. Fitrat

30. “Hijron” taxallusi bilan ijod qilgan ijodkor nomini aniqlang.

1. Avloniy

2. Behbudiy

3. Hamza

4. Fitrat

31. 1909 yilda “Jamiyati xayriya” ochdi va mahalliy xalq bolalarining o‘qib bilim olishi uchun pul yig‘ib, maktablarga tarqatdi. Bu haqda hatto Orenburgdagi “Vaqt” gazetasi yozib chiqdi. Ushbu tashkilotning asoschisi kim edi?

1. Avloniy

2. Behbudiy

3. Hamza

4. Fitrat

32. “Teatru o‘yunbozliq emas! Masxarabozliq ham emas,— davom etadi u. — Teatr bamisoli oynavand bir uykim, kirgan har bir kimsa o‘z husn-u qabihini ko‘ra olur... Yuziga un surtib masxaraboz shakliga kirgan zotlar tabibi hoziqdirlar...” Notiq teatrni har bir xalq milliy taraqqiyotining muhim belgilaridan deb hisoblaydi, rus fransuz, turk, tatar, ozarboyjon turmushidan misollar keltiradi. U mashhur taraqqiychi kim edi?

1. Munavvar qori

2. Behbudiy

3. Hamza

4. Avloniy

33. “Advokatlik osonmi?!”, “Pinak”, “Biz va Siz”, “Ikki sevgi”, “Po‘rtugaliya inqilobi” kabi dramalar muallifini aniqlang.

1. Avloniy

2. Behbudiy

3. Hamza

4. Fitrat

34. Kim o‘z tarjimai holida “1915-yilda mahalla xalqi domlamiz “teatrchi” bo‘ldi”, “masxaraboz bo‘ldi”, – deb meni maktabdan quvib, Mirobod mahallasidagi boshlang‘ich maktabni yopdilar”, – deb yozadi?

1. Avloniy
2. Behbudiy
3. Hamza
4. Munavvar qori

35. “Bu vaqtlarda bizning maqsadimiz zohirda teatru bo‘lsa ham, botinda Turkiston yoshlarin siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi”. Mazkur fikr egasini aniqlang?

1. Avloniy
2. Behbudiy
3. Hamza
4. Munavvar qori

36. 1917-yil Fevral voqealaridan keyin “Yashasin xalq jumhuriyati!” shiori ostida “Turon” gazetasini chiqargan jadid namoyandasini aniqlang.

1. Avloniy
2. Behbudiy
3. Hamza
4. Munavvar qori

37. Qaysi gazeta o‘z maslak-maqsadini “Musulmonlar orasida ko‘p yillardan beri davom o‘lan umumg‘a zo‘rlilik, bid‘at odatlarni bitirmak, kelajakda bo‘ladurg‘on jumhuriy idoraga xalqni tayyorlamoq” deb e‘lon qildi?

1. “Turon”
2. “Taraqqiy”
3. “Xurshid”
4. “Samarqand”

38. “Maktabimda yer, odamlar, tog‘- Toshlar, daryo, osmon haqinda suhbatlar o‘tkazmoqqa harakat qilganimni Mirobod johil kishilari bilishib, meni kofir bo‘lding deb, maktabimni yopdilar...”. Ushbu tarjimai hol egasini toping.

1. Avloniy
2. Behbudiy
3. Hamza
4. Munavvar qori

39. “Birinchii muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Maktab gulistoni” singari darsliklari, “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” to‘plami 10-yillarda bir necha bor qayta bosilib chiqdi va Turkistonning juda ko‘p yangi usul maktablari uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat etdi.. Mazkur asarlar kimning qalamiga mansub edi?

1. Avloniy
2. Behbudiy
3. Hamza
4. Munavvar qori

40. “Turkiy guliston yoxud axloq” asari 1917-yilda ikkinchi marta nashr qilindi. Kitob maktablarning yuqori sinf o‘quvchilariga darslik sifatida yozilgan. Lekin asrimiz boshlaridagi o‘zbek jadid ma’rifatchiligining noyob hodisalaridan bo‘lgan bu asarning ahamiyati faqat maktab doirasi bilan cheklanmadi. U adabiyot va axloq havaskorlari uchun ham qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi. Mazkur asar muallifi...

1. Avloniy
2. Behbudiy
3. Hamza
4. Munavvar qori

41. Tarbiya “yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir”. Fikr muallifini aniqlang.

1. Avloniy
2. Behbudiy
3. Hamza
4. Munavvar qori

42. “Munislik deb har kim o‘z tenggi, maslakdoshini topub, ulfat bo‘lmakni aytilur. Dunyoning lazzati sodiq do‘stlar ila suhbat qilmakdan iborat”. Fikr muallifini aniqlang.

1. Avloniy
2. Behbudiy
3. Hamza
4. Munavvar qori

43. 1917-yilgacha bo‘lgan poetik merosi, asosan, “Adabiyot” nomli 6 qismdan iborat she’riy to‘plamlarida jamlangan muallif nomini aniqlang.

1. Avloniy
2. Behbudiy
3. Hamza
4. Munavvar qori

44. “Mardikorlar ashulasi” kitobining muallifi...

1. Avloniy
2. Behbudiy
3. Hamza
4. Munavvar qori

45. RSFSR hukumatining topshirig‘i bilan Afg‘onistonga borib, 1919-yilning 28-sentyabridan 1920-yilning 20-iyuligacha Hirotda bosh konsul bo‘lib turgan jadid allomasining nomini aniqlang.

1. Avloniy
2. Behbudiy
3. Hamza
4. Munavvar qori

46. “Oh, na insoniyat, na barobarlik, na sotsialistik, na millat tafriqa qilmaydurg‘on internadionalistlar dunyo yuzinda topilarmukin?” – yozadi “Afg‘on sayohati” xotiralarida.. Ushbu asar kimning qalamiga mansub?

1. Avloniy
2. Behbudiy

3. Hamza

4. Munavvar qori

47. 1921-yildan maorif sohasiga o'tadi. O'sha yili Toshkentdagi o'lka bilim yurtida, 1923-yilda Toshkent xotin-qizlar bilim yurtida mudir, 1924-yilda harbiy maktabda o'qituvchilik qiladi. 1925 – 30-yillarda O'rta Osiyo Kommunistik universiteti (SAKU), O'rta Osiyo Qishloq xo'jaligi maktabida dars beradi. O'rta Osiyo Davlat universiteti (SAGU) pedagogika fakultetining til va adabiyot kafedrası professori, so'ng mudiri bo'lib ishlaydi. Bu qaysi jadid allomasining faoliyatiga tegishli?

1. Avloniy

2. Behbudiy

3. Hamza

4. Munavvar qori

48. "Nabil", "Indamas", "Shuhrat", "Tangriquli", "Surayyo", "Chol", "Ab", "Chegaboy", "Abdulhaq" kabi imzolar bilan gazeta-jurnallar-da, ayniqsa, «Mushtum»da ko'plab hajviy she'rlar, kulgi hikoyalar bostirib turgan ijodkor kim edi?

1. Avloniy

2. Behbudiy

3. Hamza

4. Munavvar qori

49. Fors, rus, ozarboyjon, arab tillarini durustgina bilgan, Sharq va G'arb madaniyati klassiklari bilan yaxshigina tanish bu ijodkor 20-yillarda samarali ilmiy ishlar ham olib bordi. 1930-yilda SAGU pedagogika fakultetining til bilimi kafedrası bo'yicha professor, so'ng mudir bo'lib ishladi. Ilmiy xodimlar seksiyasida, O'zdnashrda, Respublika terminologiya komitetida, Davlat ilmiy sovetida mas'ul vazifalarda ishladi. Javoblar orasidan ijodkorning nomini ko'rsating.

1. Avloniy

2. Behbudiy

3. Hamza

4. Munavvar qori

50. “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi”, “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, “Maysaraning ishi” asarlarining muallifi...

1. Avloniy
2. Behbudiy
3. Hamza
4. Munavvar qori

51. 1910-yilda Toshkent shahrida amaliy faoliyatga kirishib, Qashqar mahallasida birinchi marta usuli jadid maktabi ochgan qo‘qonlik ijodkor kim edi?

1. Hamza
2. Furqat
3. Kamiy
4. Xislat

52. “1914 yilning oxirlarida Marg‘ilonda maktab ochdim. Sakkizinchi oygacha bormay, Andreyev ismindag‘i Skobel maorif rahbari tomonidan majburiy yopildi... Undan yana Xo‘qand kelib, yo‘qsil bolalar uchun pulsiz o‘qish maktabi ochdim... o‘zim 4 oyga davom ettirgandan keyin uyezd nachayligi Medinskiy tomonidan tintuv bo‘lib yopildi. Lekin hech bir qanday qog‘ozlarim qo‘liga tushmagani uchun qamalmay qutuldim». Ushbu fikrlar kimning tarjimai holidan olingan?

1. Hamza
2. Furqat
3. Kamiy
4. Avloniy

53. “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” kabi darsliklar muallifini aniqlang.

1. Hamza
2. Behbudiy
3. Avloniy
4. Munavvar qori

54. 1915 yilda qo‘qonlik ma’rifatchilar bilan hamkorlikda usuli jadid maktablari uchun darsliklar nashr qilish, o‘quvchilarni Toshkent va boshqa shaharlarda

bosmadan chiqqan darsliklar bilan ta'minlash maqsadida "G'ayrat" kitobxonasini tashkil qilgan ijodkor nomini toping.

1. Hamza
2. Furqat
3. Kamiy
4. Avloniy

55. "Nihoniy" (yashirin, maxfiy ma'nolarini bildiradi) taxallusida ijod qilgan ijodkor kim edi?

1. Hamza
2. Behbudiy
3. Avloniy
4. Munavvar qori

56. "Lo'm-lo'm Mamajon" ashulasi ohangida yaratilgan "Yig'la, Turkiston" she'rining muallifi kim?

1. Hamza
2. Behbudiy
3. Avloniy
4. Munavvar qori

57. Hamzaning "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi"ga mansub "Safsar gul" to'plamida qaysi mavzudagi she'rlari aks etgan?

1. Mardikorlikka olingan o'zbekning yurtidan uzoqdagi xor-u zorliqda kechgan hayoti
2. Jadidlarning quvg'inga uchrashi
3. Matbuotning xalq hayotidagi o'rni
4. Chor Rossiyasining Turkiston hayotidagi ijobiy o'rni.

58. "Marusa. Man aytaman, o'zlari shunday iflos. A, mamlakatlari yaxshi, sermeva, ma'danzor, boylik shularda. A, o'zlari bunday bechora, ahmoq (kulub). Da, "Mevani yaxshisini it eydi", degan so'z xo'p so'z-da, a!

Nachalnik. Da! Shunday. Endi biz hozirgi Turkistondagi fi-losufi zamon gaspodin Ostroumovning deganicha, bularni shunday qaro mehnatlar bila ezub buturmoqg'a kerak. Chunki agar bulardan g'ofil qolinsa, albatta zamon kelur... bir kun bizga

kutulmagan ikkinchi bir balo bo‘lub chiquvlari shubhasizdir. Shuning uchun mana shunday fursatlarda istifodasiz bo‘lmay, ziyolik firqalaridan tortub, sekin-sekin yo‘q eta borish kerak”. Ushbu fikrlar Hamzaning qaysi asaridan olingan?

1. “Farg‘ona fojialari”
2. “Loshmon”
3. “Zaharli hayot”
4. “Yangi saodat”

59. Hamzaning milliy ro‘mon deb atalgan asarini aniqlang.

1. “Yangi saodat”
2. “Zaharli hayot”
3. “Farg‘ona fojialari”
4. “Loshmon”

60. O‘qub tahsili ilm ayla, maorif sharbatin yutgil,

Tilingni jahldan qutqor, g‘ami millat bila o‘tgil. Mazkur misralar Hamzaning qaysi asariga epigraf qilib olingan?

1. “Yangi saodat”
2. “Zaharli hayot”
3. “Farg‘ona fojialari”
4. “Loshmon”

61. Abdulqahhor ismli ancha katta savdogar boy «dunyo ham oxiratning saodati» bo‘lmish ilm-ma‘rifatni egallash o‘rniga ichkilik, qimor kabi qabih ishlarga berilib ketgan Abduqahhor ismli katta savdogar boy, oqila xotini Maryam obrazlari Hamzaning qaysi asari qahramonlari hisoblanadi?

1. “Yangi saodat”
2. “Zaharli hayot”
3. “Farg‘ona fojialari”
4. “Loshmon”

62. Tashlab Nihon ko‘ngilda bo‘lgan illatni,

Kinu bug‘z-u adovat, fisq-u g‘iybatni,

Sunniy, shiiy so‘zlarni barbodlashaylik,

Millat yo‘lin ko‘plashub obodlashaylik.

Ulfatlashub, yozlashub ham qishlashaylik,

Teatr yasab, konsertlar, olqishlashaylik.

“Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar”dan olingan ushbu she’r qaysi qo‘shiq ohangiga solingan?

1. “Dilog‘on”
2. “Lo‘m-lo‘m Mamajon”
3. “Eski Xorazm”
4. “Sumbula”

63. Hamzaning “Turkiston maishatidan qiz va kuyov fojiasi” deb belgilangan asarining nomini aniqlang.

1. “Zaharli hayot”
2. “Yangi saodat”
3. “Farg‘ona fojialari”
4. “Loshmon”

64. “Zaharlangan turmushning qora sahifalarini tasvirlashda qalamni ustagina yuritgan dramaturgni tabrik etmasdan o‘tolmaymiz... Hamza afandi asarda ko‘rinadigan qahramonlarga g‘oyat diqqat ila so‘z va xarakterlar bergan” degan ta’rifni kim bergan?

1. Mirmulla Shermuhammedov
2. Behbudi
3. Qayum Ramazon
4. Ismoil G‘aspirali

65. Hamzaning qaysi asarida Turkiston muxtoriyatini tuzishda faol ishtirok etgan jadidlarga qarshi buzg‘unchilik, sotqinlik ishlarini olib borgan mutaassib «Ulam» jamiyati a’zolarining naqadar nodonligini, kaltafahmliqligini fosh etgan edi? Shunga qaramay mustaqillikka qadar hamzashunoslar Qo‘qon muxtoriyatining «rasvosini chiqargan», uning «reaksion mohiyati»ni fosh etgan asar sifatida baholab keldilar.

1. “Muxtoriyat yoki avtonomiya”
2. “Farg‘ona fojialari”

3. “Boy ila xizmatchi”

4. “Loshmon”

66. “Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi” dramasi”, “Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi” asarlarining muallifini aniqlang.

1. Hamza

2. Behbudiy

3. Avloniy

4. Munavvar qori

67. Sho‘ro hukumatining topshirig‘iga binoan Shohimardonga borib, u yerda mavjud hukumat siyosatini barqaror qilishda, ruhoniylarga qarshi kurashda faol ishtirok etgan va 1929-yil 18-mart kuni shu kurashning qurboni bo‘lgan inson kim edi?

1. Hamza

2. Behbudiy

3. Avloniy

4. Munavvar qori

68. Hamzaning qaysi asari Komil Yashin tomonidan sotsrealizm talablariga moslashtirib qayta yozilgan?

1. “Boy ila xizmatchi”

2. “Zaharli hayot”

3. “Paranji sirlari”

4. “Maysaraning ishi”

69. Uning bir guruh mutaassiblar tomonidan o‘ldirilishi sho‘ro mafkurasida uning ijodini sinfiylik-partiyaviylik tamoyillariga asoslanib baholash uchun mezon bo‘ldi. Uni ma’naviy zamindan yulib olib, o‘zi mansub bo‘lgan jadidchilik harakatiga, uning namoyandalariga qarshi qo‘ydilar, o‘zbek sho‘ro adabiyoti va san’atining yagona asoschisi sifatida talqin va taqdim etdilar. Bu qaysi ijodkor taqdiriga tegishli edi?

1. Hamza

2. Avloniy

3. Komil Yashin

4. Behbudiy

70. “Olovli yo‘llar” nomli filmda qaysi ijodkorning hayot yo‘li soxtalashtirildi?

1. Hamza

2. Avloniy

3. Komil Yashin

4. Behbudiy

Savol va topshiriqlar:

1. Rus-tuzem maktablariga munosabat yerli ziyolilarda ikki xil bo‘lishiga sabab nima deb o‘ylaysiz?

2. Avloniy ta’biri bilan aytganda “jadidlar to‘dasi”ning ish boshlashiga nima turtki bo‘ldi?

3. Toshkentdagi «Jamiyati xayriya», ayniqsa Buxorodagi «Tarbiyai atfol» tashkilotlari qanday vazifalarni amalga oshirishda jonbozlik ko‘rsatgan?

4. Mahalliy-milliy matbuotning yuzaga kelish sabablarini izohlang.

5. Asriy tartib va udumlarni yo‘qqa chiqaruvchi “Yer-suv islohoti” amalga oshirildi. “Xotin-qizlar ozodligi” niqobi ostida millatning muqaddas tarbiya o‘chog‘i buzib tashlandi. Buning natijasini nimalarda kuzatish mumkin?

6. Behbudiy ijodi haqida fikr bildiring.

7. Avloniyning pedagogik faoliyatiga oid mulohazalaringizni bildiring.

8. Hamza ijodiga xos xususiyatlar nimalardan iborat edi.

9. Hamza ijodining soxtalashtirilishi nimalarga olib keldi?

10. Jadidchilik harakati va adabiyotining milliy tarqqiyotimizdagi o‘rni haqida fikr bildiring.

2-мавзу:

Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi (1886-1938)

Reja:

1. Fitrat hayoti va ijodi haqida ma'lumot.
2. Fitratshunoslik va uning taraqqiyot bosqichlari.
3. Fitrat dramalarida ozodlik g'oyalarining ifoda etilishi.
4. Fitrat she'riyati.
5. Fitrat ijodining jadid adabiyoti rivojida o'rni.

Tayanch tushunchalar: fitratshunoslik, Fitrat she'riyati, Fitrat dramalari, "Abulfayzxon", Fitrat publitsistikasi.

Mavzuning maqsadi: Ushbu mavzu orqali talabalarga Fitrat hayoti va ijodi, Fitrat ijodining XX asr boshlari jadid adabiyotiga ta'siri, Fitrat she'riyatida erk va ozodlik g'oyalarining ulug'langaligi, Fitrat dramalarida tarixiy voqelik va yurt ozodligi uchun kurash motivlarining aks etganligi, Fitratning publitsistik mahorati, Fitratning ilmiy adabiy merosi haqida ma'lumotlar berish va talabalarda o'sha davr siyosiy, ijtimoiy, adabiy hayoti haqida tasavvur uyg'otish.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T.: O'zbekiston, 2009. – 40 b.
2. Karimov B. Cho'lpon va Fitrat. – T.: Adabiy meros, 2005.
3. Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti . – T.: O'qituvchi, 1999. – 392 b.
4. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. –T.: O'zbekiston, 2008. – 536 b.
5. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – T.: O'qituvchi, 2004.
6. Sodiq. S. Yangi o'zbek adabiyoti. – T.: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 720 b.
7. Fitrat. Tanlangan asarlar(darslik, o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlari). – T.: Ma'naviyat,2009.
8. Sharafiddinov. O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.

9. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti. – T.: Maʼnaviyat, 2004. – 461 b.

Abdurauf Fitrat Oʻrta Osiyo jadidchilik harakatining mashhur vakillaridan, yangi oʻzbek adabiyotining asoschilaridan, tan olingan dramaturg, nosir, shoir va zabardast olimdir. U haqda ilk maʼlumot bergan kishi Buxoro amiri Abdulahadxonning saroy xodimlaridan boʻlgan Hoji Neʼmatulla Muhtaramdir. U “sarrof Hoji Abdul Rauf valadi Abdul Rahim sarrof”ni “Mijmar” taxallusi bilan oʻzining “Tazkiratush-shuaro” (1910) siga kiritadi va u haqda ikki ogʻiz maʼlumot berib, sheʼrlaridan birini namuna sifatida keltiradi.

Fitratning 1327-yil hijriy (1909 – 1910-milodiy) yillarda Istanbulda bosilgan dastlabki asari “Munozara” Turkistonda juda tez aks-sado berdi. 1912-yilda Hoji Muin oʻzbekchaga tarjima qilib, “Turkiston viloyatining gazetasi”da bostirdi. 1913-yilda Mahmudxoʻja Behbudiy soʻngsoʻzi bilan alohida kitob holida chop etildi. Shu yili rus tiliga agʻdarilib, oz sonda kitob boʻlib chiqdi. 1916-yilda “Turkestanские ведомости” gazetasining 13-, 15-, 20-oktyabr sonlarida V.B. Andreyevning u haqdagi taqrizi bosildi.

Shoʻro davrining ilk yillarida u haqda fikr bildirgan taniqli mutaxassislardan akademik A. N. Samoylovich boʻldi. U oʻzining 1919-yilda eʼlon qilgan “Turk xalqlari adabiyoti” kitobida va bir qator maqolalarida Fitratning faoliyati hamda ijodiga toʻxtaldi, baho berdi.

20-yillarda Fitratning “Chin sevish”, “Hind ixtilolchilari”, “Abo Muslim” dramalari sahnaga qoʻyilishi bilan ular haqda koʻplab taqrizlar yozildi. 1922 yilda “Oʻzbek yosh shoirlari” toʻplami chop etildi. 104 sahifalik ushbu majmua Fitrat, Choʻlpon, Botu, Elbeklar sheʼrlaridan tashkil topgan edi. Adabiyotshunos va tanqidchi Abdurahmon Saʼdiy “Oʻzbek shoirlari” nomi bilan “Turkiston” gazetasining 1924 yil 12 yanvar sonida katta maqola – taqriz bilan chiqdi. 1923-yilda adibning “Qiyomat” hikoyasi Nazir Toʻraqulov soʻzboshisi bilan Moskvada bosildi. Tanikdi davlat va madaniyat arbobi uni mashhur Dantening “Ilohiy komediya”siga qiyos etdi. Adibning “Hind ixtilolchilari” dramasini Olmoniyada

tahsil olayotgan talabalar Berlinda nashr ettirdilar. Vadud Mahmud u haqda maqola bilan chiqdi. 1924 yilda “Abulfayzxon” dramasi Moskvada chop qilindi...

Ko‘ringanidek, 20-yillar Fitrat ijodining eng sermahsul, ayni paytda, buyuk e’tirof yillari bo‘ldi. U haqda shoirlar ham, olimlar ham, davlat arboblari ham yozdilar. Deyarli hammalari u yozgan asarlarning joziba kuchi, teran ma’nosi, keng qamrovi haqida yakdil bo‘ldilar. Biroq jadidchilikka qarshi kurash boshlanganida birinchi nishon Fitrat va uning asarlari bo‘ldi. 20-yillarning ikkinchi yarmida Fitratga qarshi hujum avjiga mindi. Uning “Eng eski turk adabiyoti namunalari. Adabiyotimiz tarixi uchun materiallar” (O‘zdavnashr, Samarqand-Toshkent, 1927) va ayniqsa, “O‘zbek adabiyoti namunalari” (Samarqand-Toshkent, 1928) kitobi atrofida sho‘ro mafkurachilari katta janjal chi-qardilar. Chek Jalil Boybo‘latov degan firqa jurnalisti zimmasiga tushdi. Markaziy gazeta “Qizil O‘zbekiston”ning uch sonida Fitratni “panturkist”, “panislomist”, “opportunist” kabi bir qator siyosiy “ayb”lar bilan qoralab chiqadi. Fitrat matbuot orqali javob berishga majbur bo‘ladi. “Yopishmagan gajaklar” nomi bilan Jalil Boybo‘latovga yozilgan ushbu xat “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1929-yil 15 –16-sentyabr sonlarida bosilib chiqadi.

Xat shunday boshlanar edi:

“Do‘stim, oylar, yillar tirishib, bir asar chiqarg‘on muharrir do‘stlarning shu asar haqidagi muhokamalarini tinglashdan, asarning kamchiliklarini o‘rganishdan, albatta, mamnun bo‘ladi. Mening “O‘zbek adabiyoti namunalari” atalg‘an arziyas asarim haqida fikringizni bildirmaklik uchun ancha urinib, 3 son gazetni to‘ldirganingizni ko‘rib mamnun bo‘ldim, o‘qib ham chiqdim. Hamma gapdan burun Sizga tashakkurimni bildiraman. Lekin baxtga qarshi maqolangizni shunchalar kengaytirgansizkim, kengligi asl maqsadning yo‘qolishiga sabab bo‘lgan. Bizda, bolalar orasida “Ko‘zim ko‘rmaydir” degan bir o‘yun bor: bir bola ko‘zini qattiq bog‘lag‘andan keyin qo‘lig‘a uzun bir tayoq olub, o‘rtada turadi. Boshqalar uning oyog‘ini olmoq uchun atrofdan hujum qiladilar. Tayoqli bola tayog‘ini ko‘tarib, “ko‘zim ko‘rmaydir” deb, tez-tez aylana beradir, tayoq kimga to‘g‘ri kelsa, shunga tegadir. Maqolani yozganda, sizning qalamingiz ham shul ko‘zi ko‘rmas bolaning tayog‘ig‘a o‘xshag‘an: aylang‘an, aylang‘an, kimga to‘g‘ri kelsa,

shunga tekkan, orada mening kitobim unutilgan, juda oz o‘rin olgan. Har holda maqolangiz ko‘brak mening shaxsimga qaratilgani munosabati bilan javob tarzida emas, dardlashuv shaklida bir narsa yozaman. Mening asarimni boshlab tartibig‘a e‘tiroz qilg‘aningiz ko‘riladir. Adabiyot tariximizni “feo‘dalizm”, “savdo sarmoyasi” kabi davrlarg‘a ajratishimg‘a qarshi kabi ko‘rinasiz. Lekin o‘z fikringizni, ya‘ni qanday taqsim qilish lozimlig‘ini yozmag‘ansiz. Adabiyot mutaxassisi yoki adabiyot tarixi bilan mashg‘ul bir odam bo‘lsa edingiz, shu bahona bilan sizga «yopishmoq» mumkin edi. Lekin, men bilamankim, siz adabiyot tarixining odami emassiz, maqolangiz esa tasodifiy hodisadir...”

Shu tariqa bu mojaroga Hamid Olimjon ham aralashadi. Taniqli shoirning 1935-yilda yozgan “Jadid adabiyotining sinfiy mohiyati masalasi”, “Harbiy kommunizm davrida o‘zbek burjua poeziyasi”, ayniqsa, “Sovet adabiyoti” jurnalining 1936-yil 4 – 5-sonlarida bosilib chiqqan «Fitratning adabiy ijodi haqida» maqolasi Fitrat ijodini sho‘ro mafkurasiga nuqtai nazaridan atroflicha tahlil qilib, J.Boybo‘latovlar pozitsiyasini mustahkamlab berdi. Qizig‘i shundaki, adibning “Qiyomat” asari ateistik talqin qilinib, Fitrat nomi yuraklardan sug‘urib olingan kommunistik yakkahokimchilik zamonlarida ham nashr qilindi va uzoq yillar sho‘ro mafkurasiga xizmat ettirildi.

Fitrat hayoti va ijodining yangicha talqini 70-yillarning o‘rtalaridan ko‘zga tashlana boshladi. E.Karimovning “O‘zbek adabiyotida realizm taraqqiyoti” kitobi bu boradagi jiddiy qadamlardan bo‘ldi. Lekin uni adabiyotdagi amaldorlar qabul qilmadilar. Muallif va u ishlagan tashkilot partiyaviy jazo oldi. Bu, tabiiyki, Fitratni qayta kashf etish jarayonini sezilarli darajada sekinlashtirdi. 1983-yilda Ahmad Aliyev “Adabiy meros va zamonaviylik” kitobida g‘oyat ehtiyotkorlik bilan Fitrat asarlarini adabiyotshunoslik va tanqidchilik qayta ko‘rib chiqishi lozimligi haqidagi mulohazani bildirdi. Shuning o‘zi ham kitobning muhokama qilinib, muallifning dashnom eshitishiga sabab bo‘ldi.

Demokratiya va oshkoralik deb nom olgan 1985-yildan keyingi davrda Fitrat asarlariga bir qadar xolisona yondashish imkoniyati paydo bo‘ldi. U. To‘ychiyev, M.Yunusov turli munosabat bilan uning asarlariga murojaat etdilar, biroq talqinlarda

jildiy o'zgarish sezilmadi. 1988-yil 3-iyunda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida taniqli adabiyotshunos olimlar Izzat Sulton va Salohiddin Mamajonovlarning "Madaniyatimizning ikki siymosi" maqolasi e'lon qilindi. Mualliflar Fitrat ijodini o'rganish va munosib baholash kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan ekanligiga diqqatni qaratdilar. Nihoyat, 80- yillarning oxirlaridan Fitrat asarlarini o'rganishda yangi bir bosqich paydo bo'layotgani ko'zga tashlandi. Bevosita adib asarlarini nashr etish, o'quvchilarga yetkazish ishlari boshlandi. Matbuot sahifalarida uning ilmiy, badiiy, publiqistik asarlaridan namunalar e'lon qilina boshladi. "Sharq yulduzi" jurnalining 1989-yil 1-sonida E. Karimov so'zboshisi bilan adibning mashhur asarlaridan "Abulfayzxon" dramasi chop etildi. Uni Safo Zufarov nashrga tayyorladi. 90-yillardan adabiyotshunosligimizga bir qator iste'dodli yoshlar kirib keldilar. Jumladan, H. Boltaboyev "Noma'lum Fitrat" nomli maqolasida ("Yoshlik" j. 1990 y., 4-son) ilk bor mashhur adibning asarlari ro'yxatini tuzib, e'lon qildi. Fitrat ijodini xolisona o'rganish va baholash mustaqillikdan keyin ilmiy va rejali asosga ko'chdi. O'tgan yillar ichida uning ko'pgina asarlari nashr etildi. Ular haqida ilmiy-tadqiqot ishlari yaratildi. Ko'plab nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari yozildi.

Abdurauf Fitrat qadim ilm-fan beshiklaridan bo'lgan Buxoro shahrida 1886-yili tug'ildi. Yuqorida keltirilgan Hoji Ne'matulla Muhtaram ma'lumotlaridan uning otasi Abdurahimboy degan kishi ekanligi va sarroflik bilan shug'ullanganligi ma'lum bo'ladi. "Sarrof" so'zi lug'atlarda "pul maydalovchi", "pul almashtiruvchi" deb izohlanadi. Har hodda uning o'ziga to'q, ayni paytda, o'qimishli, dunyoning baland-pastidan xabardor kishi bo'lganligiga shubha yo'q. Tabiiyki, savdo bilan shug'ullangan. Ma'lumotlarga qaraganda, Turkiya, Eron, Qashqarga tez-tez borib turgan. Onasining oti Bibijon (to'la nomi Nastarbibi, ayrim manbalarda Mustafbibi) bo'lib, taxminan 1866-yillarda tug'ilgan. O'g'li Abdurauf hibsga olingan 1937-yilda u hayot edi. Oilada Abduraufdan tashqari yana ikki farzand – ukasi Abdurahmon va singlisi Mahbuba ham bor edi. 20-yillarning faollaridan bo'lgan, goho she'r ham mashq qiladigan Mahbuba Rahim qizining nomi o'quvchilarga bir qadar tanish.

Abdurahmonning esa 10-yillarda Kogon bosmaxonasida harf teruvchi bo'lib ishlaganini xabar qiladilar.

Abdurauf dastlab o'z davrining eski maktablaridan birida, so'ng mashhur "Mir Arab" madrasasida o'qidi. Zamondoshlarining ma'lumot berishlaricha, u Buxoroda 18 yoshlariga qadar o'qidi. So'ng, chamasi, otasi yonida xizmat qilgan, birga hajga borishgan, Turkiya, Eron, Hindiston, Arabistonda bo'lishgan. Shuningdek, uning Markaziy Rusiyaning Moskva, Peterburg kabi shaharlariga ham sayohat qilgani ma'lum.

37-yildagi sud-tergov ma'lumotlariga qaraganda, Fitrat Istanbulda 1909 – 1913-yillari "Dorulmuallimin"da o'qigan. Talaba hamshaharlari ishtirokida "Buxoro ta'mimi (umumiy) maorif" jamiyatini tuzgan. Chamasi, u buxoroliklarning o'zaro moddiy- ma'naviy hamkorlik uyushmasi vazifasini bajargan. "Yosh turklar inqilobi" munosabati bilan qizg'in siyosiy kurashga g'arq bo'lgan Turkiya muhiti Fitratga qattiq ta'sir ko'rsatdi. U siyosatga sho'ng'idi, badiiy ijodga zo'r berdi.

1909-yilda "Munozara" ("Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususida qilg'on munozarasi") asari Istanbulda chop etildi. 1911-yilda "Sayha" she'riy to'plami, 1912-yilda "Sayyoh hindi" ("Bayonoti sayyohi hindi") bosilib chiqdi.

1913-yilda Fitrat Buxoroga maorif va madaniy-ijtimoiy qurilish haqidagi yangi g'oyalar bilan qaytib keldi. Biroq bularni mutaassiblik avj olgan Buxoroda amalga oshirishga yo'l yo'q edi. Shu sababli Shahrisabz va Karkida yangi maktablar ochish bilan shug'ullandi. Qisqa muddatda Buxoro jadidchilik harakatining yetakchi vakillaridan biriga aylandi. Biroq, ko'p o'tmay, 1915-yildayoq Buxoro jadidlarining o'z orasida ham ajralish yuz berdi. Chetda o'qib kelgan yoshlarni harakatning maorif va madaniyat bilan cheklanuvchi maqsadi ham, musulmonlarni insofga chaqiruv orqali unga erishishni ko'zlovchi vositalari ham qanoatlantirmay qo'ydi. Ular soliqlarni kamaytirish, dehqonlarning ahvolini yaxshilash, amaldorlarning o'zboshimchaligini cheklab qo'yish kabi siyosiy talablar bilan chiqishni taklif qildilar. Bu nuqtai nazar jadidlarga xayrixoh juda ko'p yoshlarga ma'qul bo'ldi. Shu tariqa jadidlarning o'zi "eski" va "yangi"ga – o'ng va so'lga ajraddi. O'ngga

Abduvohid Burhonov, soʻlga Fitrat bosh boʻlib qoldilar. Fitratning bu qarashlari uning shu davrlarda yaratilgan va XX asr boshi oʻzbek publitsistikasining, dramachiligining nodir namunalaridan boʻlib qolgan “Rahbari najot” (1915), “Oila” (1916), “Begijon” (1916), “Mavludi sharif” (1916), “Abo Muslim” kabi asarlarida aks etgan edi. Ayni paytda, Fitrat yangi maktablar uchun yangi darsliklar ham yozdi. “Muxtasar islom tarixi”, Samarqand, 1915), “Oʻqu” (1917, Boku) kitoblari bunga dalil. “Oʻqu”ning “birinchi boʻlak” ekanligi koʻzda tutilsa, muallifning bu ishga katta reja bilan kirishgani maʼlum boʻladi. Afsuski, mazkur asarlarning baʼzilari hozirda yoʻq. U haqdagi maʼlumotlar, fikr-mulohazalargina yetib kelgan. Lekin bu asarlarning deyarli hammasi oʻz davrida juda yuksak baholangan. Masalan, bu kitoblarning yuzaga chiqishida shaxsan moddiy yordam koʻrsatgan Fayzulla Xoʻjayev “Oila” va “Begijon”ni “mavjud tuzumni qattiq tanqid qilgan, uning barcha kamchiliklarini ayovsiz ochib tashlagan, amirlikning chirik sistemasini fosh qilib bergan” kitoblar qatoriga kiritadi.

Fitrat 1917-yil Fevral inqilobidan soʻng siyosiy ishlarga tamoman shoʻngʻib ketdi. Buxoro jadidlarining soʻl qanoti tashabbusi bilan tuzilgan “Yosh buxoroliklar” inqilobiy partiyasiga sarkotib boʻlib saylandi. Samarqandlik ilgʻor yoshlarning Mardonqul Shohmuhammadzoda muharrirlik qilayotgan “Hurriyat” (1917) gazetasida keskir maqolalar bilan chiqdi. Koʻp oʻtmay, unga muharrirlik qildi (1917-yil 27-sonidan 1918-yil 87-sonigacha).

Yangi Rusiya Muvaqqat hukumati bilan oʻzaro tenglik aloqalarini yoʻlga qoʻyish ishlarida faol qatnashdi. Biroq, bir tomondan, amir va u suyangan mutaassib aʼyonlar, ikkinchi tomondan, chor kolonial siyosatining bolsheviklar tomonidan oʻzgarishsiz qolishi “Yosh buxoroliklar”ning mustaqillik va demokratiya haqidagi orzulariga yoʻl bermaydi. Fitrat buni bilgan edi. Shu sababli “bolshevik balosi” bosh koʻtargan 1917-yilning Oktyabrini “Yurt qaygʻusi” deb baholagan edi. Shunga qaramasdan, u kelajakdan umid uzmad. 1917-yilgi Turkiston muxtoriyatini soʻngsiz mehr bilan qarshi oldi. U eʼlon qilingan 27-noyabr tunini “milliy laylat ul-qadrimiz” deb atadi. Ayni paytda, Buxoroda “Yosh buxoroliklar”ning amir bilan bahsi davom etardi. “Yosh buxoroliklar” kuchlarini qayta saflab chiqdilar. 11

kishilik yangi Markaziy Qo'mita tuzildi. Fitrat tayyorlagan islohotlar loyihasi tuzatishlar bilan qabul qilindi. Unda mashrutiya (konstitutsion monarxiya) g'oyasi asos qilib olingan hamda din va shariatga alohida mavqe ajratilgan edi.

20-fevralda Turkiston muxtoriyati sho'rolar tomonidan xoinona qonga botirildi va u "Qo'qon voqeasi" nomi bilan tarixga kirdi. Martda Buxoroda sodir bo'lgan "Kolesov voqeasi" ko'hna Buxoroning "qadimchi" va "jadidchi"si orasida o'tib bo'lmas cho'qazdi. Ota bilan bolani, amirlik va yoshlarni bir-biriga xundor dushmanga aylantirdi. Amir qirg'in yasadi. "Yosh buxoroliklar"ning omon qolgan qismi Samarqand va Toshkentda jon saqladi. Fitrat Toshkentda pano' topdi. Siyosiy ishlardan uzoqdashib, madaniyat-ma'naviyat bilan shug'ullandi. Shu yili dastlab Xadradagi maktabda, may-iyun oylaridan Turkiston musulmon dorilfununi qoshida tashkil topgan dorilmualliminda til va adabiyotdan dars berdi. Fitrat va Cho'lpon birinchi marotaba Toshkentda 1919-yilning boshida uchrashdilar. Fitrat 1919-20-yillarda Afg'onistonning Toshkentdagi elchixonasida tarjimonlik qiladi. Fitratning Toshkentdagi eng yirik xizmatlaridan biri "Chig'atoy gurungi" jamiyatini tashkil etishi bo'ldi. Jamiyat 3 yil (1918 – 20) yashadi, lekin o'zbek tili va adabiyotigina emas, umuman o'zbek madaniyatining shakllanish va taraqqiyot tarixini yangi, zamonaviy ilm asosida o'rganishni boshlab berdi. Qayum Ramazon, Shorasul Zunnun, Elbek, Shokirjon Rahimiy, G'ulom Zafariy, Mirmulla Shermuhamedov, G'oz'i Yunus, Cho'lpon, Botu, Sanjar Siddiq, Mannon Ramz, Mannon Uyg'ur jamiyatning faol a'zolari edilar. Fitratning SH.Rahimiy va Q.Ramazon bilan hammualliflikda yozgan "Ona tili" (1918) darsligi, "Cho'zg'ilar" ("Unlilar") imlosi haqidagi Q. Ramazon bilan hamkorlikda yozgan "Bitim yo'llari" (1919) o'quv qo'llanmasi, "Insoniyat haqida Navoiyning fikri" (1919) risolasi shu davrda maydonga kelgandir. Qiyosan olganda, jamiyat til masalalariga alohida e'tibor bergani ko'zga tashlanadi. Jamiyat qoshida "Imlo to'dasi"ning tashkil topishi bejiz emas edi.

Fitrat, Botu, Elbek hamkorlikda 1920-yilning 9-aprelida "Tong" jurnalining 1-sonini bosmadan chiqardilar. Jurnalda "Chig'atoy gurungi" a'zolarining deyarli barchasi ishtirok etdi. Afsuski, uning 3-soni chiqib, to'xtab qoladi.

Fitrat o'z hayotining Toshkent davrida "O'g'uzxon", "Chin sevish", "Hind ixtilolchilari" kabi asarlarini yaratdi. Chamasi, Turkiston muxtoriyatining fojiali tugatilishi munosabati bilan yozilgan va adibning so'ngsiz iztiroblarini ifoda etgan bir pardalik "Temur sag'anasi" asari ham shu davrda maydonga kelgan. Afsuski, uning to'la nusxasi yo'q. Turli munosabat bilan ko'chirib olingan parchalarigina saqlanib qolgan. "O'g'uzxon", mutaxassislar fikricha, bosilgan emas. Uning ustiga, taqdiri noma'lum. "Chin sevish" (1920), "Hind ixtilolchilari" (1923) Hindiston xalqlarining ozodlik, mustaqillik uchun olib borgan kurashlari haqida. Aslida, bu Turkiston voqealarining xorijga ko'chirib tasvir etilishi edi. Shunga ko'ra, bu asarlar o'z davri uchun benihoya dolzarb edi.

1920-yil sentyabr voqealaridan ko'p o'tmay, Fitrat Buxoroga keladi. Ehtimol, bunda shu davrdagi Buxoro hukumatining rahbari Fayzulla Xo'jayevning xizmati bordir. Chunki ularning bir-birlariga hurmat va ixlosi juda baland bo'lgan. Fitrat Fayzulla Xo'jayevning did va saviyasini, siyosatchilik iqtidorini yuksak qadrlar, u ham o'z navbatida adibning noyob iste'dodini baland tutar edi. Xullas, Fitrat 1920-yilning oxirlarida Fayzulla Xo'jayev bosh Buxoro hukumatining a'zosi edi. Partiyaga esa u 1919-yilda Toshkentdaligida o'tgan. O'sha yili iyunda bo'lib o'tgan Buxoro Kommunistik partiyasi 1- syezdida Markaziy Komitetga a'zo bo'lgan. So'ngroq Buxoroda payti Buxoro Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi a'zosi qilib saylandi. 1921-yildan Xalq maorifi noziri, yana bir yil o'tgach, xorijiya noziri, xalq xo'jaligi yig'ilishining raisi, jumhuriyat Markaziy Ijroiya Komiteti raisi o'rinbosari, Xalq Nozirlari Sho'rosi Raisining muovini, Hukumat plan va smeta tashkiliy hay'atining raisi, Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyati Mehnat kengashining Prezidium a'zosi vazifalarini olib bordi. Jumhuriyat ijtimoiy-madaniy hayotining hamma masalalarida faol ishtirok etdi. Xususan, uning g'ayrat va tashabbusi bilan 1921-yilda Buxoroda Sharq musiqa maktabi ochiladi. Maktabga Domla Halim Ibodov, Shohnazar Sohibov, Boboqul Fayzullayev kabi mashhur hofizu maqomshunoslarni to'playdi. O'z uyini shu maktabga beradi, o'zi unga mutasaddilik qiladi.

Fitrat va Fayzulla Xo‘jayev tashabbusi bilan zamonaviy kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. 60 dan ortiq yoshlar Germaniyaga o‘qishga yuboriladi. Fitrat bosh Xalq maorifi nozirligi 1920-yilning 30-oktyabrida Buxoro inqilobi tarixini yozish haqida qaror qabul qiladi. 1922-yil 14-sentyabrda esa Jumhuriyat Markaziy ijroiya qo‘mitasi Buxoroda dorulfunun ochish haqidagi tarixiy qarorini e‘lon qildi. Ilmiy markaz tashkil qilish harakatlari boshlanadi. Buxoro ilmiy jamiyati tuziladi. Fan va madaniyat tarixiga oid nodir qo‘lyozmalar to‘plana boshlaydi. Ilmiy-tadqiqot ishlari yo‘lga qo‘yiladi. Jamiyatning «Anjumani tarix» sho‘basi qisqa muddatda «Buxoro arki tarixi» qo‘lyozmasini nashrga tayyorlaydi.

1921-yil martdan Buxoro jumhuriyatida turk (o‘zbek) tili davlat tili deb e‘lon qilindi. Davlat teatri tuzildi (1921). Toshkentdan Mannon Uyg‘ur, Abdulhamid Cho‘lpon taklif etildilar. Vaqf ishlarini boshqarishga esa mashhur Munavvarqori Abdurashidxonov jalb etildi. Yosh jumhuriyat juda qisqa muddatda Turkiya, Eron, Afg‘oniston bilan do‘stlik, hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘ydi. Bu ishlarning barchasi, birinchi navbatda, Fitratning va uning safdoshi Fayzulla Xo‘jayevning aqli va g‘ayrati bilan boshlangan edi. Biroq jumhuriyatning erkinlik, mustaqillik yo‘lidagi bu harakatlari markazning Turkistondagi noibi – Turkkomissiyaga yoqmad. 1923-yil 12-iyunda Rusiya kommunist (bolsheviklar) partiyasi Markaziy Komiteti Siyosiy Byurosi “Buxoro masalasi”ni ko‘rdi. Siyosiy byuro Buxoro Sho‘rolar Jumhuriyatida davlat hokimiyatini yanada “demokratlashtirish va aktivlashtirish” to‘g‘risida qaror qabul qildi. Qarorga Stalinning Buxoro Nozirlar sho‘rosining tarkibi haqidagi “Buxoro hukumati nomi ostida ish ko‘rayotganlarning xalq va sovet hukumatiga hech bir aloqadorligi yo‘q” degan fikri asos qilib olindi. Buxoro jumhuriyatida hokimiyatga boylar, savdogarlar tortilgan, birorta ham dehqon yo‘q, uning ustiga hammayoq qarindoshchilik, degan ayb qo‘yildi. Shu yil 23-iyunda Rusiya kommunist (bolsheviklar) partiyasi Markaziy Komiteti kotibi ishtirokida Buxoro Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining Plenumi o‘tkazildi. Buxoro hukumatining 5 a‘zosi – Nozirlar kengashi raisining birinchi o‘rinbosari Atoullo Xo‘jayev, Ijroiya kengashi raisining birinchi o‘rinbosari Muinjon Aminov, Xalq xo‘jaligi kengashi rais o‘rinbosari Abdurauf Fitrat va

kengash hay'ati a'zolari Sattor Xo'jayev, Yoqubzodalar partiyadan o'chirilib, ishdan olindi. 24-iyunda o'tgan Buxoro jumhuriyati Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 11- sessiyasi esa, Fitratni "Buxorodan chiqarmoqg'a" qaror berdi. Fayzulla Xo'jayev, ayrim ma'lumotlarga qaraganda, shu paytlari Moskvada davolanishda edi. U masaladan bir qadar xabardor bo'lib, Fitratning jazosini iloji boricha yengillatish tadorikini qiladi. Umuman olganda, zamonasining bu ikki noyob shaxsiyati orasidagi munosabatlar, yuqorida aytganimizdek, g'oyat samimiy bo'lib, o'zaro hurmat va muhabbat asosiga qurilgan. Chunonchi, Fitrat Fayzulla Xo'jayevni "eshonjon", "pirimiz", "amirimiz" deb alqar, u esa o'z navbatida mashhur adibni tirik klassik sifatida qadrlar, uning millat va jamiyat uchun nihoyatda kerakligini dildan his qilar edi. Shu sababli, Buxoro hukumati rahbari arbob yozuvchisini saqlab qolishning hamma harakatini qildy. Aslini olganda, Akmal Ikromovning ham Fitratga mehri baland bo'lgan. Tadqiqotchilarning ma'lum qilishicha, u vaziyatni yumshatish uchun Fitratni Stalin bilan uchrashtirgan. Fitratning o'sha davrdagi ma'lum va mashhur davlat arboblari bilan bunday yaqin munosabatini uning O'zbekiston Milliy Xavfsizligi xizmati arxivida saqlanayotgan sud-tergov hujjatlari materiallaridan sezib olish qiyin emas.

1923 – 24 yillarda Fitrat Moskvadagi sobiq Lazarev Sharq tillari institutiga (1921 yildan Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti)da ishladi, ilmiy ish bilan shug'ullandi. Leningrad davlat universitetining Sharq faqultetida Sharq xalqlari tili, adabiyoti, madaniyatidan ma'ruzalar o'qidi, professorlikka saylandi.

Ayni paytda, "Abulfayzxon" (Moskva, 1924), "Shaytonning tangriga isyoni" (Toshkent, 1924), "Arslon" (Samarqand—Toshkent, 1926) kabi qator dramatik asarlari, "Bedil" (Moskva, 1923; Toshkent, 1924) ilmiy ommaviy ocherki, "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: Sarf (1-kitob), Nahv (2-kitob)" (1925), "Sarfi zaboni tojik" (Samarqand, 1925), «Adabiyot qoidalari» (Samarqand—Toshkent, 1926) kabi darslik-qo'llanmalari bosildi.

Fitrat O'zbekistonga 1927-yilda qaytib keldi. O'zbekiston Kommunistlar partiyasi sarkotibi Akmal Ikromov taklifi bilan poytaxt Samarqandda yangi tashkil topgan Oliy pedagogika instituti (hozirgi SamDU)da ish boshladi. 1927-yilda Boku

dorulfununi professori mashhur Bekir Cho‘ponzoda ham ushbu dargohga taklif qilinib, dars berganligi ma’lum. Umuman, 20-yillar, xususan, 2-yarmi, Fitrat ilmiy faoliyatida muhim yillar bo‘ldi. U o‘z ahamiyatini bugungi kungacha yo‘qotmay kelayotgan “Eng eski turkiy adabiyot namunalari” (matn, tadqiqot, izohlar, Samarqand – Toshkent, 1927), “O‘zbek adabiyoti namunalari” (matn, tadqiqot, izohlar, Samarqand-Toshkent, 1929), “Sharq shaxmati” (Samarqand – Toshkent, 1928), “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” (Samarqand – Toshkent, 1927), “Fors shoiri Umar Xayyom” (Samarqand – Toshkent, 1929) kabi ko‘plab tadqiqotlar e‘lon qildi. Matbuotda qanchadan-qancha maqolalar bosdirdi. Bu asarlari bilan yangi o‘zbek fani-madaniyatining bir qator yo‘nalishlariga yo‘l soldi. Xususan, Turkiston xalqlarining boy va qadim madaniy merosini har tomonlama, izchil va muntazam, ayni paytda, chuqur ilmiy o‘rganishni boshlab berdi. Ming yillar osha yonma-yon yashab kelgan o‘zbek-tojikning adabiy-madaniy merosidagi mushtarak jihatlarga diqqatni qaratdi. O‘zbek adabiyotining manba-mansha‘larini aniqlab berdi, tarixiy taraqqiyotini yoritdi. Adabiy oqimlar, maktablar, ularning vakillarini o‘rgandi. Davrida shuhrati olamga yoyilib, zamonlar o‘tishi bilan tarix qatlarida unutilib qolgan o‘nlab shoirlarning merosini izlab topdi, qayta kashf etdi. Afrosiyob – Alp Er To‘nga marsiyasidan Yassaviygacha, Yusuf Xos Hojibdan Turdi, Mashrab, Umarxongacha, zamondoshlari Elbek-u Cho‘lpongacha yozdi. Yangi o‘zbek adabiyotshunosligi ilmining tamal toshini qo‘ydi.

“Adabiyot qoidalari” (1926) va so‘ngroq yozgan “Aruz haqida” (1936) kitoblari bilan buyuk Navoiylar yuksak bosqichga olib chiqqan o‘zbek adabiy estetik tafakkurini yangi davr tushunchalari bilan boyitdi, davom ettirdi va adabiyot nazariyasi bo‘yicha ham zamonasining yetakchi mutaxassisi sifatida e‘tibor va e‘tirof qozondi.

Fitrat o‘z dramalari bilan o‘zbek dramaturgiyasi rivojida buyuk rol o‘ynadi. “Chin sevish” va “Hind ixtilolchilari” asarlarida Hindiston xalqlarining ozodlik va mustaqillik uchun ingliz mustamlakachilariga qarshi olib borgan murosasiz kurashlari orqali Turkiston xalqlarining tuganmas dardlarini ifoda qildi.

“Abulfayzxon” adabiyotimizda tarixiy mavzuda yozilgan birinchi drama edi... 20-yillarning 2-yarmidan sharoit o‘zgardi. Sho‘ro tuzumi qaror topa borgan sari erkin fikr torayib bordi. Eski ziyolilarni, xususan jadidlarni qoralash boshlandi. Har bir hodisaga sinfiy-partiyaviy yondashish kuchaydi. Yuqorida qayd etilganidek, 1929-yilda “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 3-sonida (13-, 14-, 15- may) J. Boybo‘latovning “O‘zbek adabiyotida chig‘atoychilik” maqolasi bosildi. Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” munosabati bilan yozilgan bu maqola boshdan oxirigacha uning muallifini “fosh etish”ga qaratilgan edi. Chunonchi, u marksizmni inkor qilishda, o‘tmishni ideallashtirishda, burjua millatchiligi g‘oyalarini tashviq etishda aybdandi. Fitrat va asarga so‘zboshi yozgan Otajon Hoshim matbuotda javob bilan chiqdilar. Tabiiyki, Fitrat haqidagi gap-so‘zlar bu bilan to‘xtamadi. 1930-yildan esa unga siyosiy ayb qo‘yila boshlandi. Muallif tadqiqotlari uning “aksilsho‘roviy” faoliyatiga “ashyoviy dalil” sifatida tilga olina boshladi. “Sharq haqiqati” gazetasining 1930-yil 180, 182, 183-sonlarida J.Boybo‘latovning “O‘zbeklarning adabiy merosi” bayrog‘i ostidagi panturkizm” sarlavhali maqolasi bosildi. Muallif Fitratning «tarix»ini kavlashga tushdi. 1923-yildagi “ayb”larini qo‘zg‘adi, sudga tortilmay qolganini ko‘tarib chiqdi, uni ochiqdan-ochiq «sinfiy dushman» deb e‘lon qilib, isbotlashga kirishib ketdi. Yuqoridagi kitobi haqida esa, “Qur‘on”ni nashr qilish proletariat ishiga qanchalik xiyonat bo‘lsa, mazkur “O‘zbek adabiyoti namunalarining chop etilishi ham shunchalik jinoyatdir”, degan xulosa chiqardi. Darvoqe, ushbu maqolaning ruscha bir nusxasi Fitratni ayblovchi hujjat sifatida uning “Jinoiy ishi”ga ilova qilingan. Shularga qaramasdan, F. Xo‘jayev 1923-yildagi singari adibni yana saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi. 1937-yilda esa saqlab qolishning iloji bo‘lmadi. Shu yili 24-aprelda O‘zbekiston prokurorining ko‘rsatmasi bilan Davlat Xavfsizligi Boshqarmasi bo‘limining boshlig‘i Davlat Xavfsizligi leytenanti Og‘abekov tomonidan hibsga olindi.

Tergov va so‘roqlar boshlandi. Bir yarim yillik qiynoqlardan so‘ng “millatchi”, “aksilinqilobchi”, “aksilsho‘roviy” degan ayblari yetmay, 2xalq dushmani”, “vatan xoini” kabi tavqi la‘natlar yopishtirildi. Eng keyin “topgan”lari “nemis”, “ingliz” razvedkasi “ayg‘oqchi”si ekanligi bo‘ldi. Va shular asosida SSSR

Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan sud qilinib, 1938 yilning 4 oktyabrida otib o'ldirildi.

Fitrat ijodiy merosini quyidagi qismlarga bo'lish mumkin:

1. Badiiy asarlar – she'r, hikoya, ijtimoiy nasr, drama
2. Publitsistika, kundalik maqolalar.
3. O'quv darsliklari
4. Ilmiy-adabiy tadqiqotlar. Uning ilmiy tadqiqotlari birgina adabiyotshunoslik doirasida cheklanmaydi. U zabardast tilshunos, tarixchi, faylasuf, huquqshunos, musiqashunos. U o'rta asrlardagi qomusiy ziyolilarimiz singari musiqaning ham nazariyasi, ham amaliyoti bilan shug'ullangan, u haqda maxsus risola yarattan. U shaxmat tarixi haqida tadqiqiy maqolalar yozgan, hatto yer qurilishining ilmiy jihatlari bilan qiziqqan va yaqindan shug'ullangan keng qamrovli iste'dod ekanligi ma'lum bo'ladi.

Mutaxassislar uning o'zbekcha she'rlari adadini 20 atrofida belgilaydilar. U, taxmin qilish mumkinki, talabalik yillaridayoq she'r mashq qilgan. Ilk she'rlarini Buxoro muhiti an'anasiga ko'ra forscha yozgan. XX asrning boshlarida uni "Mijmar" taxallusli shoir sifatida taniganlar. Mijmar – xushbo'y narsalar solib tutatiladigan cho'g'don.

Fitratning dastlabki she'riy to'plami "Sayha", mutaxassislar ma'lumot berishlaricha, 1909 yilda Istanbulda bosilgan.

Fayzulla Xo'jayev o'zining Buxoro inqilobi tarixiga bag'ishlangan kitobida bu haqda shunday yozgan edi: "Vatanparvarlik she'rlari to'plami bo'lgan "Sayha"ni o'qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, rus hukumati ham ta'qib qila boshladi. Chunki bu she'rlarda Buxoro mustaqilligi g'oyasi birinchi marta juda yorqin shaklda ifodalab berildi..."

1917 yilda Fitrat o'zi muharrirlik qilgan "Hurriyat" gazetasida "Yurt qayg'usi" nomi bilan bir turkum she'rlar e'lon qildi. Diqqatga sazovor joyi shundaki, ularning aksariyati sochma she'rlar, Fitratning o'zi aytmoqchi, mansuralar. Bunday tajriba adabiyotimizda ilk bor Hamza tomonidan qilingani ma'lum.

Fitrat dramaturg sifatida juda katta shuhratga ega. U barcha zamondoshlari tomonidan bu borada yakdillik bilan e'tirof etilgan ijodkor edi. Mutaxassislarining aniqlashlaricha, u o'ndan ortiq dramatik asar yozgan. Bular: "Begijon" (besh pardalik fojia, 1916), "Mavludi sharif", "Abo Muslim" (1916), "Temur sag'anasi" (1918), "O'g'uzxon" (1919), "Qon" (1920), "Chin sevish" (1920), "Hind ixtilolchilari" (1921), "Abulfayzxon" (1923), "Shaytonning tangriga isyoni", "Arslon" (1926), "Vose' qo'zg'oloni" (1927), "Ro'zalar" (1930) dir.

Bulardan dastlabki oltitasi bizgacha etib kelgan emas. Ba'zilarining mazmuni va yo'nalishi haqida ayrim ma'lumotlar saqlangan, xolos.

"Abulfayzxon" janriga ko'ra – tarixiy fojia. Mazmun-mundarijasiga ko'ra ko'hna Buxoro tarixidagi g'oyat mas'uliyatli va murakkab davrlardan birini qalamga olgan. Bu ashtarxoniylar sulolasining oradan ko'tarilib, o'rniga mang'itlar saltanatining kelishidir.

Fitrat ijodiy merosining muhim qismini uning nasriy asarlari va publitsistikasi tashkil qiladi. U o'z hayoti davomida yuzlab jangovar maqolalar, o'nlab ijtimoiy keskir risolalar, hikoyalar yaratdi. Birgina Turkiston matbuoti emas, Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Kavkaz, Volgabo'yi matbuotida faol ishtirok etdi.

Masalan, Fitratning ilk asari dramatik publitsistikaga moyil «Munozara» zamonining zayli bilan tarixiy taraqqiyotning ikki pog'onasida turib qolgan, din va dunyo, jamiyat va ma'rifat haqida -ikki xil ko'z qarashga ega bo'lgan ikki kishining – "jadid" va "qadim"ning bahsi asosiga qurilgan edi.

"Yo'l" ocherkini eslatuvchi "Sayyoh hindi"da yeri, suvi, havosi betimsol, g'oyat mehnatkash, hunarmand bir xalqning og'ir turmushidan so'z ochdi, uning sabablarini tahlil etdi. Barcha mushkulotlarning sababini davlat idora usulining buzuq va nobopligida, hokimiyat egalarining ilm-ma'rifatdan uzoqligida deb bildi va ularni o'zgartirish yo'llarini izladi.

Fitrat ijodi bo'yicha vizual materiallar

Fitrat ijodining 3 bosqichda o'rganilishi

1910-1938-yillar

1938-1990- yillar

1991- yildan

Fitrat hayoti va ijodini o'rgangan olimlar

O'zbek olimlari

Turk olimlari

Nemis olimlari

N.Karimov,
B.Qosimov,
I.Faniyev,
H.Boltaboyev

Fuod Ko'pruli,
Kamol Eraslon,
Ibrohim Yorqin

Edvart Ollvort,
Ingeborg Baldauf

Fitrat dramalari

"Abulfayzxon"
"Arslon"
"Chin sevish"


Fitrat hikoyalari

"Qiyomat"
"Me'roj"
"Qiyshiq eshon"
"Oq mozor"
"Zayd va Zaynab"

Fitrat she'rlari

"Mirrih yulduziga"
"Yurt qayg'usi"
"Shoir"

Fitratning ilmiy asarlari



Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar:

1-topshiriq. Fitratning qomusiy olim ekanligini quyidagi yo'nalish- ko'rsatma bo'yicha sharhlang.

Fitrat faoliyat olib borgan sohalar

1.	adabiyotshunoslik
2	tilshunoslik
3	falsafa
4	geografiya
5	tarix
6	siyosat
7	musiq
8	sport madaniyati
9	iqtisod nazariyasi
10	Islom tarixi

2-topshiriq. “Qo'shaloq bashorat qilish” usulida o'qituvchi badiiy asar matnidan tanlab olingan tayanch so'zlar ro'yxatini talabalarga taqdim qiladi. Talabalar juft-juft bo'lib uni muhokama qiladilar va takliflar kiritadilar. Mazkur so'zlar

yordamida asar syujeti bashorat qilinadi. Bu usul bilan “Abulfayzxon” dramasini tahlil qilishda, obrazlarga ta’rif berishda foydalanish mumkin.


3-topshiriq. “Uch bosqichli intervyu o’tkazish” usuli, bu jarayonda talabalar muayyan asar qahramonlari haqida bir-birlaridan intervyu oladilar. Bunda birinchi talabani “A”, ikkinchi talabani “B” deb belgilagan holda “A” “B”dan so‘raydi. Uchinchi talaba “V” esa intervyuning tayanch nuqtalarini yozib boradi. Fitrat nasriy va dramatik asarlarini asos qilgan holda bu usuldan foydalansa bo‘ladi.

Masalan, “Abulfayzxon” dramasi asosida quyidagi intervyuni tashkil qilish mumkin:

1. Ibrohimbiyni oqlaydigan asos toping.
2. Rahimbiy sizning nazaringizda...
3. Farhod otaliqdan ayrilgan saltanat... va hokazo.

4-topshiriq. “Venn diagrammasi metodi”. Mazkur diagramma uch va undan ortiq doiralardan tashkil topadi. Badiiy asar qahramonlari xarakterining o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi so‘zlar yoziladi va ularning umumiy jihatlari aniqlanadi.

“Abulfayzxon” dramasidagi beklarning farqli va umumiy jihatlari aniqlang



Mavzuni o‘zlashtirish uchun test savollari:

1. Fitratning 1327-yil hijriy (1909 – 1910 milodiy) yillarda Istanbulda bosilgan dastlabki asari...
1. “Munozara”

2. “Abulfayzxon”

3. “Chin sevish”

4. “Abo Muslim”

2. 1912 yilda Hoji Muin o‘zbekchaga tarjima qilib, “Turkiston viloyatining gazeti”da bostirdi. 1913 yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy so‘ngso‘zi bilan alohida kitob holida chop etildi. Shu yili rus tiliga ag‘darilib, oz sonda kitob bo‘lib chiqdi. 1916-yilda “Turkestanskije vedomosti” gazetasida V.B. Andreyevning u haqdagi taqrizi bosildi. Fitratning qaysi asari haqida so‘z bormoqda?

1. “Munozara”

2. “Abulfayzxon”

3. “Chin sevish”

4. “Abo Muslim”

3. “Chin sevish”, “Hind ixtilolchilari”, “Abo Muslim” dramalari muallifini toping.

1. Fitrat

2. Behbudiy

3. Cho‘lpon

4. Hamza

4. Fitratning qaysi asari Dantening “Ilohiy komediya”siga qiyos etilgan?

1. “Qiyomat”

2. “Munozara”

3. “Hind sayyohi qissasi”

4. “Sayha”

5. Birinchilardan bo‘lib “Qizil O‘zbekiston” gazetasining uch sonida Fitratni “panturkist”, “panislomist”, “opportunist” kabi bir qator siyosiy “ayb”lar bilan qoralab chiqqan inson kim edi?

1. Jalil Boybo‘latov

2. Nazir To‘raqulov

3. Vadud Mahmud

4. Abdurahmon Sa‘diy

6. Fitratning “Yopishmagan gajaklar” maqolasi kimga qaratilgan edi?

1. Jalil Boybo‘latov

2. Nazir To‘raqulov

3. Vadud Mahmud

4. Abdurahmon Sa‘diy

7. Jalil Boybo‘latov Fitratning qaysi asarini nishonga olgan edi?

1. “O‘zbek adabiyoti namunalari”

2. “Eng eski turk adabiyoti namunalari. Adabiyotimiz tarixi uchun materiallar”

3. “Bedil”

4. “Yassaviy”

8. “Bizda, bolalar orasida “Ko‘zim ko‘rmaydir” degan bir o‘yun bor: bir bola ko‘zini qattiq bog‘lag‘andan keyin qo‘lig‘a uzun bir tayoq olub, o‘rtada turadi. Boshqalar uning oyog‘ini olmoq uchun atrofdan hujum qiladilar. Tayoqli bola tayog‘ini ko‘tarib, «ko‘zim ko‘rmaydir» deb, tez-tez aylana beradi, tayoq kimga to‘g‘ri kelsa, shunga tegadir. Maqolani yozganda, sizning qalamingiz ham shul ko‘zi ko‘rmas bolaning tayog‘ig‘a o‘xshag‘an: aylang‘an, aylang‘an, kimga to‘g‘ri kelsa, shunga tekkan, orada mening kitobim unutilgan, juda oz o‘rin olgan”. Fitrat ushbu fikrlarni kimga qarata aytgan?

1. Jalil Boybo‘latovga

2. Nazir To‘raqulovga

3. Vadud Mahmudga

4. Abdurahmon Sa‘diyga

9. “Adabiyot mutaxassisi yoki adabiyot tarixi bilan mashg‘ul bir odam bo‘lsa edingiz, shu bahona bilan sizga “yopishmoq” mumkin edi. Lekin, men bilamankim, siz adabiyot tarixining odami emassiz, maqolangiz esa tasodifiy hodisadir...”. Fitrat bu fikrlarni kimga qarata aytgan?

1. Jalil Boybo‘latovga

2. Nazir To‘raqulovga

3. Vadud Mahmudga

4. Abdurahmon Sa‘diyga

10. Qaysi taniqli shoirning 1935-yilda yozgan “Jadid adabiyotining sinfiy mohiyati masalasi”, “Harbiy kommunizm davrida o‘zbek burjua poeziyasi”, ayniqsa, “Sovet adabiyoti” jurnalining 1936 yil 4 –5-sonlarida bosilib chiqqan “Fitratning adabiy ijodi haqida” maqolasi Fitrat ijodini sho‘ro mafkurasi nuqtai nazaridan atroflicha tahlil qilib, J.Boybo‘latovlar pozitsiyasini mustahkamlab berdi?

1. Hamid Olimjon
2. G‘afur G‘ulom
3. Uyg‘un
4. Tuyg‘un

11. Fitratning qaysi asari ateistik talqin qilingan?

1. “Qiyomat”
2. “Bedil”
3. Shaytonning tangriga isyoni”
4. “Chin sevish”

12. XX asrning 70-yillari o‘rtalarida “O‘zbek adabiyotida realizm taraqqiyoti” kitobi bilan Fitrat ijodini yangicha talqin qilgan, shu sababli uning o‘zi va u ishlayotgan tashkilot partiyaviy jazo olgan insonni aniqlang.

1. E.Karimov
2. N.Karimov
3. I.Sulton
4. S.Mamajonov

13. “Noma’lum Fitrat” maqolasining muallifini aniqlang.

1. H.Boltaboyev
2. I.G‘aniyev.
3. N.Ofoqova
4. S.Mamajonov

14. Fitratning “Oila” va “Begijon” asarlarini “mavjud tuzumni qattiq tanqid qilgan, uning barcha kamchiliklarini ayovsiz ochib tashlagan, amirlikning chirik sistemasini fosh qilib bergan” kitoblar qatoriga kiritgan arbob kim edi?

1. F.Xo‘jayev

2. A.Ikromov

3. N.To‘raqulov.

4. A.N.Samoylovich

15. Fitrat tomonidan tashkil qilingan qaysi jamiyat o‘zbek tili va adabiyotigina emas, umuman o‘zbek madaniyatining shakllanish va taraqqiyot tarixini yangi, zamonaviy ilm asosida o‘rganishni boshlab berdi

1. “Chig‘atoy gurungi”

2. “Yosh Buxorolilar”

3. “Qizil qalam”

4. “Jamiyati xayriya”

16. “Chin sevish” va “Hind ixtilolchilari” asarlarida Hindiston xalqlarining ozodlik va mustaqillik uchun ingliz mustamlakachilariga qarshi olib borgan murosasiz kurashlari orqali Turkiston xalqlarining tuganmas dardlarini ifoda qilgan jadid kim edi?

1. Fitrat

2. Behbudiy

3. Cho‘lpon

4. Hamza

17. Qaysi davlat arbobi o‘zining Buxoro inqilobi tarixiga bag‘ishlangan kitobida: “Vatanparvarlik she’rlari to‘plami bo‘lgan “Sayha”ni o‘qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, rus hukumati ham ta’qib qila boshladi. Chunki bu she’rlarda Buxoro mustaqilligi g‘oyasi birinchi marta juda yorqin shaklda ifodalab berildi...”, deb yozgan edi?

1. F.Xo‘jayev

2. A.Ikromov

3. N.To‘raqulov

4. A.N.Samoylovich

18. Fitratning qaysi asarida Vatan bosh-oyog‘i yalang, tanasida adadsiz qamchi izlari, ko‘ksidagi yaralaridan qon tomayotgan holsiz, darmonsiz ayol sifatida ifodalanadi?

1. “Bir o‘zbek yigitining tilidan”
2. “Chin sievish”
3. “Sayha”
4. “Mirrix yulduziga”

19. Cho‘lpon Fitratning qaysi asari haqida “o‘zbek sahnasi ulug‘ va ulug‘ligi qadar yuksak ham go‘zal bir tomosha ko‘rdi”, - deb yozdi?

1. “Chin sevish”
2. “Qon”
3. “Temur sag‘anasi”
4. “Arslon”

20. Fitratning ashtarxoniylar sulolasining so‘nggi hukmdori bo‘lgan Abulfayzxon taqdiridan hikoya qiluvchi asarining nomi nima?

1. “Abulfayzxon”
2. “Begijon”
3. “Arslon”
4. “Temur sag‘anasi”

Savol va topshiriqlar:

1. Fitrat ijodi va fitratshunoslik haqida ma’lumot bering.
2. Fitrat hayoti haqida ish olib borgan olimlar faoliyati haqida ma’lumot bering.
3. Fitratning “Sayyoh hindi” va “Munozara” asarlarini o‘zaro taqqoslang.
4. Fitrat ilmiy merosi bilan adabiyotshunoslikning qaysi qirralariga urg‘u berdi?
5. Fitrat ateistik talqinga sabab bo‘lgan asariga baho bering.
6. Fitratning siyosiy faoliyati jadidchilikning qaysi muhim qirrasini o‘zida aks ettirgan?
7. Fitrat – dramaturg. Dramatik asarlariga baho bering.
8. “Abulfayzxon” – birinchi o‘zbek fojiasi ekaniga izoh bering.
9. Fitratning tarixiy obrazlar yaratish mahorati haqida gapirib bering.
10. Fitrat she’riyatida erk va ozodlik g‘oyalarining kuylanishiga munosabat bildiring.

3-мавзу:
Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi
(1894-1938)

Reja:

1. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiy yo‘li.
2. Qodiriy romanlarining yaratilishi.
3. Qodiriyning hajviy asarlari.
4. Qodiriyning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni.

Tayanch tushunchalar: Abdulla Qodiriy, jadid adabiyoti, hajviy asarlari, “O‘tkan kunlar” romani – birinchi o‘zbek romani, “Mehrobdan chayon”, roman tevaragida munozaralar, “Obid ketmon”, “Kalvak maxzumning xotira daftaridan”, istiqlol yillarida Qodiriy ijodi

Mavzuning maqsadi: Ushbu mavzu orqali talabalarga A.Qodiriy hayoti va ijodi, Abdulla Qodiriy ijodining XX asr boshlari jadid adabiyotiga ta’siri, Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchiligining asoschisi, Abdulla Qodiriy publitsistikasining jamiyat rivojida o‘rni, Abdulla Qodiriyning adabiy merosi va qodiriyshunoslik haqida ma’lumotlar berish, talabalarda o‘sha davr siyosiy, ijtimoiy, adabiy hayoti haqida tasavvur uyg‘otish.

Mustaqil o‘qish uchun adabiyotlar:

10. Karimov I. A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. –T.: O‘zbekiston, 2009. – 40 b.
11. Adabiyot. Badiiyat. Abadiyat (xotiralar, badialar, maqolalar). Nashrga tayyorlovchi: Xondamir Qodiriy. – T.: Yangi asr avlodi, 2004 y. – 235 b.
12. Karim B. Qodiriy qadri. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003. – 84 b.
13. Karimov N. Va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti . – T.: O‘qituvchi, 1999. – 392 b.
14. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. –T.: O‘zbekiston, 2008. – 536 b.
15. Normatov U. Qodiriy bog‘i. – T.: Yozuvchi, 1995. – 217 b.
16. Normatov U. “O‘tgan kunlar” hayrati. –T.: O‘qituvchi, 1996. – 79 b.

17. Normatov U. Tafakkur yog‘dusi. –T.: Fikr media, 2005. – 119 b.
18. Normatov U. Qodiriy mo‘jizasi. –T.: O‘zbekiston, 2010. – 272 b.
19. Sodiq. S. Yangi o‘zbek adabiyoti. – T.: O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 720 b.
20. Qodiriy A. Diyor i bakr. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2007. – 469 b.
21. Qosimov B. Va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – T.: Ma’naviyat, 2004. – 461 b.
22. Qo‘shjonov M. Qodiriy – erksizlik qurboni. –T.: Fan, 1992. – 95 b.

Abdulla Qodiriy 1894 yil 10 aprelda Toshkentda bog‘bon oilasida tug‘ildi. Uning otasi Qodirmuhammad (1821-1924) uzoq vaqt savdogarchilik bilan, 1870-yillardan umrining oxirigacha Samarqand darvozada anchagina katta – 1300 sarjin (yarim gektar – 500 m² dan ko‘proq) bog‘da bog‘dorchilik bilan oila tebratar edi. Uning onasi Josiyat bibi uy bekasi bo‘lgan. Abdulla yoshligidan o‘tkir zehni, serfikrligi bilan ajralib turgan. Dastlab u “usuli qadim” maktabida, Abulqosim madrasasida, keyin rus-tuzem maktabida o‘qishni ancha muvaffaqiyat bilan davom ettirdi. 1912-yilda u kattagina savdogar Rasulmuhammadboy qo‘lida prikazchik (ish yurituvchi) bo‘lib xizmat qila boshlaydi. Rasulmuhammad ancha e‘tiborli, ochiqko‘ngil, diyonatli boylardan bo‘lib, o‘z davri ziyolilari bilan yaqin aloqada bo‘lgan. Shuning uchun ham Abdullaning yoshligi asosan boylar, ziyolilar davrasida kechdi, bu hol uning jadid mutafakkirlari, ularning “Sadoyi Turkiston”, “Oyna”, “Samarqand”, “Turon” kabi gazeta va jurnallari bilan aloqani mustahkamlashiga olib keldi. 1914-yilda Abdulla Rasulmuhammadboyning katta qizi Rahbaroyga uylanadi. Ular Nafisa, Habibullo, Adiba, Mas‘ud ismli ikki qiz va ikki o‘g‘il ko‘radilar.

Abdulla Qodiriyning ilk adabiy faoliyati mana shu davrdan boshlandi, bu haqda u keyinchalik tarjimai holida shunday yozadi: “Shu miyonalarda bozor vositasi bilan tatarlarda chiqadurg‘on gazetalarni o‘qub, dunyoda gazeta degan gap borlig‘iga imon keltirdim. 1913-yilda o‘zbekcha “Sadoyi Turkiston”, “Samarqand”, “Oyna” gazetalari chiqa boshlag‘ach, menda shularga gap yozib yuborish fikri uyg‘ondi”. Darhaqiqat, uning “Yangi masjid va maktab” nomli ilk maqolasi “Sadoyi

Turkiston” gazetasining 1914-yil 1-aprel sonida “Abdulla Qodiriy” imzosi bilan e’lon qilindi.

A. Qodiriy ijodkor sifatida o‘z adabiy faoliyatini she’riyatdan boshladi, uning “Millatimga”, “Ahvolimiz” kabi she’rlari shu davr mahsulidir. Qodiriy she’rlarida millat va Vatanga xizmat qilish, uni g‘aflat, jaholat uyqusidan uyg‘otishga da’vat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ularda Avloniy, Tavallo, Hamza kabi jadid shoirlariga xos xususiyatlar o‘z ifodasini topgan:

Ko‘r biz(n)ing ahvolimiz, g‘aflatda qanday yotamiz,

Joyi kelgan chog‘ida vijdonni pulga sotamiz.

O‘g‘limizga na adab, na fan, na yaxshi so‘ylamoq,

Na Xudoni buyrug‘i bo‘lgan ulum o‘rgotamiz.

Korimiz shundan iborat bo‘ldi ushbu chog‘da,

O‘ntadan bedona boqib, yozu qish sayrotamiz.

Hamda har kun takyalarda nasha, ko‘knori chakib,

Bachchaga kokil solib, oh-voh bilan o‘ynotamiz.

Kelingiz, yoshlar, ziyolilar, bu kun g‘ayrat qiling,

Uxlaganlarni agar Qodir esak uyg‘otamiz.

Oradan ko‘p o‘tmay, A Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” dramasi, “Juvonboz”, “Uloqda” hikoyalari kitobxonlar qo‘liga borib tegdi. Yozuvchining “Juvonboz” hikoyasi va “Baxtsiz kuyov” dramasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi bevosita ta’sirida yaratilgan. “Baxtsiz kuyov” mazmunan Behbudiyning dramasi bilan farq qilsa-da, jadidchilik g‘oyasi yetakchilik qiladi. Ammo “Juvonboz” hikoyasi syujeti “Padarkush”ga juda yaqin turadi.

“Uloqda” asari nafaqat Abdulla Qodiriyning, balki o‘zbek hikoyachiligining 1910-yillardagi katta yutug‘i» deb baholaydi Oybek. Bu yozuvchining hikoyachilikda realizm tomon ishonch bilan katta qadam tashlaganini ko‘rsatadi.

1923-yilda “Mushtum” jurnalining tashkil etilishi ham bevosita Abdulla Qodiriy va G‘ozi Yunus (Yunusov G‘ozi Olim – 1893-1939) faoliyati bilan uzviy bog‘landi. Bu haqda Qodiriy quyidagilarni yozadi: “23-yilning fevral oyida, shekilli, “Turkiston” gazetasiga o‘rtoq Abdulhay Toji muharrir belgilandi va shu o‘rtoq bir

kulki jurnali chiqaringiz, deb men bilan G‘ozini chaqirdi. (Bu vaqtda G‘ozi gazetaning muharriri edi.) Biz ikkovimiz ishga kirishdik-da, natijada sakkiz soncha “Mushtum” chiqdi”.

Abdulla Qodiriy 1924-yilning yozida Moskvaga ketadi va Valeriy Bryusov nomidagi Jurnalistlar institutida o‘qiydi, ammo respublika matbuoti, xususan, «Mushtum» jurnali bilan aloqani uzmaydi. 1920-1925-yillarda uning matbuotda uch yuzdan ortiq turli mavzularda hajviyalari, maqolalari, felyetonlari Qodiriy, Julqunboy, Ovsar, Dumbul, Shig‘oy, Kalvak Maxzum kabi imzolarda bosilib chiqadi. Yozuvchining bunday faoliyati haqida Habibullo Qodiriy (yozuvchining katta o‘g‘li) quyidagilarni yozadi: “Mushtum” jurnalining 1924-yil sonlaridan birida dadamning suratini o‘rtoqlik hazili tariqasida masxaralab bosishgan va tagiga shu so‘zlarni yozib qo‘yishgan edi: “Feletonlar qiroli Julqunboy: yig‘latib kuldiradi, kuldirib yig‘latadi”. “Farg‘ona” gazetasining muharriri Lutfulla Olimiy A. Qodiriyning “Mushtum” jurnalidagi faoliyati haqida yozadi: “Mushtum”ning topgan e‘tibori va ko‘p tarqalishi Julqunboyning o‘tkir qalami bilan”.

Abdulla Qodiriyning “Moskvadan” turkumi ostida bir qancha hajviy maqolalari e‘lon qilindi. 1925-yilda yozuvchining “Mushtum” nomli ancha jildiy tanqidiy maqolasi “Qizil O‘zbekiston” gazetasida bosildi. Maqolada jurnalning o‘sha kezlardagi faoliyati, istiqboli ancha chuqur tahlil qilingan. Bu maqola atrofida kuchli munozara kechdi. Davr taraqqiyotiga to‘g‘anoq bo‘layotgan kuchlarga qarshi kurashda “Mushtum”ni yanada faolroq bo‘lishga da‘vat etuvchi, hajviy jurnalning qiyofasini belgilovchi ushbu maqolani g‘arazgo‘ylik deb qabul qiluvchilar ham bo‘ldi. Bu hol jurnalning muharriri G‘ozi Olimning “Tanqidmi, tosh otish?!” javob maqolasida ko‘zga tashlanadi.

1920-yillarning o‘rtalaridan sho‘rolar siyosatida tub o‘zgarish, nosog‘lom muhit,”non orasidan kir izlash” (A. Fitrat) avjga chiqa boshladi. “O‘tgan kunlar” qo‘ldan qo‘lga o‘tib o‘qilayotgan, Abdulla Qodiriy yangi ijodiy rejalar og‘ushida yashayotgan vaqtda uning boshiga kulfat toshlari yog‘ila boshladi. 1926-yilda «Mushtum» jurnalida bosilgan “Yig‘indi gaplar” hajviy-mutoyiba maqolasi bunga bahona bo‘ldi. Mazkur maqolada respublikadagi ayrim tadbirlar, hukumat va

kompartiya rahbarlari “Ovsar” tilidan yengil hazil-mutoyiba qilingan edi. Qodiriydan alamzada bo‘lib yurganlar uchun bu maqola yozuvchiga bo‘hton toshlarini yog‘dirish uchun bir dastak bo‘ldi. Ular maqolani respublikada olib borilayotgan muhim tadbirlar ustidan kulish, masxara qilish, sho‘ro hukumati va partiya rahbarlarini obro‘sizlantirish, hatto aksilinqilobiy maqsadlarni amalga oshirish niyati bilan yozilgan deyishgacha bordilar va muallifga siyosiy ayb qo‘ydilar. Yozuvchi 1926-yil 8-martda aksilinqilobchi degan ayblov bilan qamoqqa olinadi, ammo uzoq davom etgan qamoq azoblaridan so‘ng unga taqalغان ayblarning, guvohlar bergan ko‘rsatmalarning soxtaligi ayon bo‘ladi.

1923 – 1926 yillar davomida «Mushtum» jurnalining qiyofasini belgilovchi, hajviy qissa janrining yetuk namunalari bo‘lmish “Kalvak Maxzumning xotira daftaridan”, “Toshpo‘lat tajang nima deydi?” kabi asarlari bosildi. “Kalvak Maxzumning xotira daftaridan” qissasida haqiqiy hayotdan butunlay uzilgan, xurofotdan boshqa narsani ko‘ra olmaydigan mahalla masjidi imomi Kalvakning kulgili sarguzashtlari, tug‘ilishidan boshlab boshdan kechirgan voqea-hodisalar hikoya qilinadi. Kalvak maxzum – taraqqiyot dushmani. Har qanday ijobiy o‘zgarishlarga qarshi bir odam. Ammo yozuvchining mahorati shundaki u Kalvak maxzumday qoloq fikrlovchi obraz orqali jamiyatning chirkin tomonlarini fosh qila biladi. U o‘ziga xos jasorat bilan u sho‘rolar davrida xalqni diniy qadriyatlardan butunlay mahrum etish jarayoni kechayotganligini ro‘yi rost qalamga oladi.

Abdulla Qodiriy Oktyabr to‘ntarishining dastlabki yillaridanoq “O‘tgan kunlar” tarixiy romani ustida ishlay boshlaydi. Romandan parchalar dastlab 1922-yilda “Inqilob” jurnalida bosildi, 1925- yilda alohida-alohida bo‘limlar va 1926-yilda butun bir kitob holida bosmadan chiqdi. Bunday ulkan, shu bilan birga, “Yevropa adabiyoti gazi bilan o‘lchaganda ham barkamol asar” (Abdulla Qahhor) yaratishga Abdulla Qodiriy qay darajada tayyor edi?

Avvalambor, yozuvchi madrasada o‘qib yurgan vaqtlarida o‘zbek mumtoz adabiyotini, arab, fors, turk, tatar tillari bilan bir qatorda Sharq tarixini, ma’naviyatini chuqur o‘rgangan. Turkiya, Qrim, Ufada chiqib turgan gazeta va jurnallar bilan muntazam tanishib borgan, turk yozuvchilarining tarixiy mavzudagi

drama va romanlarini mutolaa qilgan. Husayn Jovid asarlaridan qattiq ta'sirlangan. Darvoqe, Husayn Jovidning bir to'plami "O'tgan kunlar" deb nomlangan. Arab nosiri, 22 tarixiy roman muallifi Jurji Zaydon (1861-1914)ni Qodiriyning o'zi uni roman yozishga rag'batlantirgan ustoz sifatida ta'riflaydi. Avvalo yozuvchi ijodiga o'zbek mumtoz adabiyoti, keyin Jurji Zaydon asarlari va u orqali buyuk ingliz yozuvchisi Valter Skott ijodi kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu haqda nemis adabiyotshunos-olimpi P. Kirxnerning quyidagi so'zlari e'tiborga loyiq: «Qodiriy tarixiy materialni berishda hikoya qilishning sharqona usuli bilan Valter Skott maktabi uslubini san'atkorona omuxta qilgan. Roman bu taxlit asarlardan turmushni haqqoniy tasvirlash bilan, bo'yoqlar rang-barangligi, psixologik xarakteristikaning nozikligi, til ohangdorligi, ifodaviy-tasviriy vositalarning xilma-xilligi bilan farqlanadi».

Yana shuni ta'kidlash kerak: Abdulla Qodiriy ijodiga XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Jazoirida yashab ijod etgan, arablar hayotidan o'nga yaqin roman yaratgan fransuz adibi Ferdinand Dyushen asarlarining ta'siri sezilarli bo'lgan. F. Dyushenning "Tamilla", "Qamar" kabi sentimental romanlari 1920-yillarda Zarif Bashiriy, A. Qodiriy, Cho'lponlarning sa'y-harakatlari bilan o'zbek tiliga tarjima qilindi va bu asarlar xalq o'rtasida katta shuhrat qozondi.

Abdulla Qodiriyning yozuvchi sifatidagi kamolotida rus tilini ancha mukammal bilishi ham muhim omil bo'ldi. U 1910-yillarda rus-tuzem maktabida, so'ng Rasulmuhammadboy qo'lida ish yurituvchi bo'lib ishlab yurgan vaqtlarida rus tilini yaxshigina o'rgangan, rus adabiyotini muntazam mutolaa qilgan. Rus tilini yaxshi biluvchi "Taraqqiy", "Sadoyi Turkiston" gazetalarining tashkilotchi va muharrirlari Ismoil Obidiy va Ubaydulla Xo'jayevlar bilan yoshligidan yaxshi aloqada bo'lgan. Yozuvchining o'g'li Habibullo Qodiriyning ta'riflashicha: "Qodiriy rus asarlarini o'z ona tilidagi kabi tez o'qir, katta-katta kitoblarni ikki-uch kunda o'qib tushiraverar, imlo-insholari ham yaxshi edi"

A. Qodiriy L.Tolstoy, Chexov, Turgenev kabi mashhur yozuvchilarning asarlari bilan nafaqat tanish, balki ular haqida teran mushohadaga ega bo'lgan.

Bemalol aytish mumkinki, Qodiriy 1910- yillarning oxirida ulkan asar yaratish uchun ma'naviy tayyor edi.

A. Qodiriy “O'tgan kunlar” romanini milliy uyg'onish harakati siyosiy kurashlar bosqichiga ko'tarilgan davrda yozishga kirishdi. Bu hol romandagi ijtimoiy-siyosiy voqealarga munosabatda ham ko'zga tashlanadi. Muallif asarni yaratish jarayonida Muhammad Solih Qorining “Tarixi jadidi Toshkand”, Mirza Olim Mushrifning “Ansobus-salotin va tavorixul-xavoqin» (“Qo'qon xonligi tarixi”), Ishoqxon Ibratning “Tarixi Farg'ona”, Mulla Olim Mahdum Hojining “Turkiston tarixi” asarlarini chuqur o'rganganligi va ulardan istifoda qilganligi ko'zga tashlanadi. Bu solnomalar A. Qodiriyning har ikki romani uchun tarixiy manba vazifasini o'tagan.

Xalq “O'tgan kunlar”ni katta mamnuniyat va samimiyat bilan kutib oldi, qisqa muddatda butun O'rta Osiyo xalqlarining sevimli asariga aylanib ketdi. Hatto o'sha kezlarda butun romanni yod bilganlar bo'lgan. Afsuski, mavjud sho'rolar hukumati, kommunistik mafkura uni noxush qabul qildi. Asar yaratila boshlagan davr bilan uning dunyo yuzini ko'rishi, ya'ni 1926-yil orasida sho'ro mafkurasida katta o'zgarishlar sodir bo'lgan edi.

“O'tgan kunlar” romani haqida birinchi tanqidiy maqolani rus yozuvchisi Mixail Sheverdin yozib, “Birinchi o'zbek romani” nomi bilan “За партию” jurnalining 1928 yil 3-sonida chiqargan va romanni “zararli” asar sifatida baholagan edi. Ushbu maqola roman va muallifiga ko'plab asossiz ayblar qo'yishga zamin yaratgan.

Abdulla Qodiriyning ikkinchi, “Mehrobdan chayon” romani 1928-yilda yozib tugatildi va 1929-yilda bosmadan chiqdi. Bu ikki buyuk romanning yaratilishidagi oraliq u darajada uzoq emas, bor-yo'g'i 6 yil. Ammo bu oraliq bir-biridan keskin farq qilar, “Mehrobdan chayon” yaratilayotgan davrda kommunistik partiyaviy yakkahokimlik hamma sohaga, shu jumladan, badiiy adabiyotga ham o'z tazyiqini o'tkazishga astoydil kirishgan edi. Buning ustiga 1926-yilda yozuvchi boshiga tushgan tashvishlar, jadidchilik harakati keskin qoralanib, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li kabi uning rahbarlari va faollari ta'qib ostiga olinishi, “O'tgan


kunlar” romani ustidagi mashmashalar “Mehrobdan chayon” romaniga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasligi mumkin emas edi.

Abdulla Qodiriy 1934 yilda zamonaviy mavzuda – qishloq ahli, dehqonlar hayoti haqida o‘ziga xos “Obid ketmon” qissasini yaratdi. Bu asarni 1930-yillar vulgar sotsiologizmi bilan qurollangan adabiy tanqidchilik mafkuraviy buzuvchi asar sifatida baholadi.

Abdulla Qodiriy 1937-yilning so‘nggi kuni 31-dekabrda ikkinchi bor qamoqqa olindi. 1938-yil 4-oktyabrda otib o‘ldirildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar:


1-topshiriq. “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarining o‘xshash va farqli jihatlarini toping.




2- topshiriq. Tarmoqlash metodidan foydalanib “O‘tkan kunlar” romani qahramonlariga ta’rif bering.

Otabek	Kumush	Zaynab	Yusufbek xoji
O‘zbekoyim	Mirzakarim qutidor	Oftob oyim	Xushro‘y
Usta Alim	Homid	Jannat	Xudoyorxon

3-topshiriq. Talabalar tarmoqlash usulidan foydalanib “O‘tkan kunlar” romani badiiyati xususidagi tushunchalarini shakllantiradilar. Badiiy asar syujetiga oid fikrlarni to‘ldiradilar.



4- topshiriq. Topshiriq. Tarmoqlash metodidan foydalanib “Mehrobdan chayon” romani qahramonlarini tavsiflang va ularning o‘zaro bog‘liq tomonlarini ko‘rsating. Talaba har bir obrazning individual xususiyatiga to‘xtaladi.



5-topshiriq. FSMU texnologiyasi asosida Qodiriy ijodiga oid fikr va mulohazalarini bildiradilar.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda Hamda o'quv jarayonini bahs munozarali o'tkazishda q o'llaniladi. Chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga yetkazishga, ochiq holda bahslashishga, bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va lo'nda holda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting.

S– fikringiz bayoniga sabab ko'rsating.

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi fikr keltiring.

U – fikringizni umumlashtiring.

Jadvalni to'ldiring

1-guruh

Savol	Abdulla Qodiriy adabiy merosining XX asr o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini belgilang.
F – fikringizni bayon eting.	
S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating.	
M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi fikr keltiring	
U – fikringizni umumlashtiring.	

2-guruh

Savol	Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiy faoliyatida jadidchilikning tutgan o'rnini haqida fikr bildiring.
F – fikringizni bayon eting.	
S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating.	
M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi fikr keltiring	
U – fikringizni umumlashtiring.	

Talabalar bilimini tekshirish uchun test savollari:

1. Abdulla Qodiriyning “Yangi masjid va maktab” nomli ilk maqolasi qaysi gazetada chop etilgan?

1. “Sadoyi Turkiston”
2. “Turon”
3. “Xurshid”
4. “Sadoyi Farg‘ona”

2. Abdulla Qodiriy she‘rlari nomini aniqlang.

1. “Millatimga”, “Ahvolimiz”.
2. “Buzilgan o‘lkaga”, “Kishan”.
3. “Mirrix yulduzi”, “Yigit”
4. “Na‘matak”, “Monolog”

3. “Uloqda” asari nafaqat Abdulla Qodiriyning, balki o‘zbek hikoyachiligining 1910-yillardagi katta yutug‘i” deb baholagan ijodkor nomini aniqlang.

1. Oybek
2. Abdulla Qahhor
3. Usmon Nosir
4. Abdulla Oripov

4. “Feletonlar qiroli Julqunboy: yig‘latib kuldiradi, kuldirib yig‘latadi” degan e‘tirof qaysi jurnalda bosilgan edi?

1. “Mushtum”
2. “Oina”
3. “O‘zbekiston xotin-qizlari”
4. “Guliston”

5. 1920 yillarda Zarif Bashiriy, A. Qodiriy, Cpo‘lponlarning sa‘y-harakatlari bilan o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlar nomini aniqlang.

1. F. Dyushen. “Tamilla”, “Qamar”
2. M. Sholoxov “Ochilgan qo‘riq”
3. M. Sholoxov “Tinch Don”
4. J. Zaydon “Farg‘ona kelini”

6. Muhammad Solih Qorining “Tarixi jadidi Toshkand”, Mirza Olim Mushrifning “Ansobus-salotin va tavorixul-xavoqin” (“Qo‘qon xonligi tarixi”), Ishoqxon Ibratning “Tarixi Farg‘ona”, Mulla Olim Mahdum Hojining “Turkiston tarixi” asarlari Qodiriyning qaysi asarlari uchun manba bo‘lib xizmat qilgan?

1. “Obid ketmon” qissasiga
2. “Juvonboz” asariga
3. “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlariga
4. Publitsistik maqolalariga
7. “O‘tgan kunlar” romani haqida birinchi tanqidiy maqolani “Birinchi o‘zbek romani» nomi bilan “За партию” jurnalining 1928-yil 3-sonida chiqargan va romanni “zararli” asar sifatida baholagan munaqqid kim edi?

1. Mixail Sheverdin
2. Sotti Husayn
3. Jalil Boybo‘latov
4. Qurbon Beregín

8. Abdulla Qodiriyning 1926-yilda “Mushtum” jurnalida bosilgan “Yig‘indi gaplar” hajviy-mutoyiba maqolasi qaysi mizo bilan nashr qilingan edi?

1. “Ovsar”
2. “Shig‘oy”
3. “Julqunboy”
4. “Dumbul”

9. “O‘tkan kunlar” romani qanday taxallus bilan yozilgan?

1. “Ovsar”
2. “Shig‘oy”
3. “Julqunboy”
4. “Dumbul”

10. Kim “O‘tkan kunlar” romaniga “Yevropa adabiyoti gazi bilan o‘lchaganda ham barkamol asar” deb baho bergan edi?

1. Abdulla Qahhor
2. Oybek

3. Mixail Sheverdin

4. Ozod Sharafiddinov

11. “O‘tkan kunlar” romanida Otabekka “mujassam ishq” timsoli bo‘lib ko‘ringan personaj kim edi?

A. Usta Alim

B. Saodat

S. Yusufbek hoji

D. Kumush

12. Abdulla Qodiriyning qaysi qahramoni “...qo‘limni bog‘lasinlar, chiqarib o‘ldirsinlar!”, deya hayqiradi?

A. Otabek.

B. Yusufbek hoji

S. Anvar

D. Sultonali

13. “U o‘ta aqlli va xudbin, shu bilan birga agressiv kayfiyatdagi ayol. Shu bois u hammani o‘zi bilan hisoblashishga majbur qiladi. Uning xudbinligi agressivligiga xizmat qilgan”. Mazkur fikrlar “O‘tkan kunlar” romanidagi qaysi personaj xarakteriga to‘g‘ri keladi?

A. Zaynab

B. Xushro‘y

S. O‘zbekoyim

D. Kumush

14. “U islomiy aqidalar asosida shakllangan, o‘zbekchilik qadr-qimmatini, go‘zal odob, sharqona madaniyat, ibo, hayo, nazokatni o‘zida jam qilgan musulmon ayolidir. U o‘ziga yuklatilgan farzandlik, kelinlik, xotinlik vazifalarini ado etar ekan, o‘zbekona udum, hayo va ibo chegarasidan chiqmaydi”. Mazkur ta’rif Qodiriyning qaysi qahramoniga tegishli?

A. Zaynab

B. Kumush

S. Ra’no

D. O‘zbekoyim

15. “Bosh qahramonlari xon bilan ro‘para kelgandagi jasoratini, avvalo, o‘z boshidan o‘tkazdi. Uning qahramonlari qanchalik e‘tiqodda sobit bo‘lgan bo‘lsa, birinchi galda, bu yozuvchi shaxsiyatida namoyon bo‘ldi va ma’lum ma’noda qahramonlariga ko‘chirildi”. Mazkur fikr qaysi adib hayotiga tegishli?

A. Hamza

B.A.Qodiriy.

S. Fitrat

D. Cho‘lpon

16. Qodiriyning qaysi qahramoni “Haqsiz jazo!” – deb kulimsirab qo‘ygan edi?

A. Muhammad Rajab poygachi

B.Anvar

S.Otabek.

D. Azizxon

17. Abdulla Qodiriy 1926 yil 8 martda aksilinqilobchi degan ayblov bilan qamoqqa olinadi, ammo uzoq davom etgan qamoq azoblaridan so‘ng unga taqalغان ayblarning, guvohlar bergan ko‘rsatmalarning soxtaligi ayon bo‘ladi. Uning qamalishiga adibning qaysi asari sabab bo‘lgan edi?

1. “Yig‘indi gaplar”

2. “O‘tkan kunlar”

3. “Kalvak maxzumning xotira daftaridan”

4. “Toshpo‘lat tajang nima deydi?”

18. “Qodiriy tarixiy materialni berishda hikoya qilishning sharqona usuli bilan Valter Skott maktabi uslubini san’atkorona omuxta qilgan. Roman bu taxlit asarlardan turmushni haqqoniy tasvirlash bilan, bo‘yoqlar rang-barangligi, psixologik xarakteristikaning nozikligi, til ohangdorligi, ifodaviy-tasviriy vositalarning xilma-xilligi bilan farqlanadi”. Fikr muallifini aniqlang.

1. P. Kirxner

2. I.Baldauf

3. I.Sirtautas

4. A.N.Samoylovich

19. Abdulla Qodiriyning 1934- yilda zamonaviy mavzuda – qishloq ahli, dehqonlar hayoti haqida o‘ziga xos usulda yozilgan asari...

1. “Obid ketmon”
2. “Kalvak maxzumning xotira daftaridan”
3. “Toshpo‘lat tajang nima deydi?”
4. “Baxtsiz kuyov”

20. “Qodiriy rus asarlarini o‘z ona tilidagi kabi tez o‘qir, katta-katta kitoblarni ikki-uch kunda o‘qib tushiraverar, imlo-insholari ham yaxshi edi”. Bu fikrlarni kim bildirgan?

1. Habibulla Qodiriy
2. Mas‘ud Qodiriy.
3. Xondamir Qodiriy
4. Muhiddin Qodiriy.

Savol va topshiriqlar:

1. XX asrning XX yillaridagi ijtimoiy hayot va uning badiiy adabiyotdagi ta’siri masalasiga doir mulohazalaringizni bildiring.
2. Abdulla Qodiriy romanlarida shaxs fojiasiga sabab bo‘luvchi omillarni belgilang?
3. “O‘tkan kunlar” romanida tuzum bilan bog‘liq hodisalarning tarix foni bilan berilishiga munosabat bildiring.
4. Yozuvchining millat taqdiriga o‘zini daxldor deb qarash pozitsiyasi romannning qaysi o‘rinlarida yaqqol namoyon bo‘lgan?
5. Abdulla Qodiriy “shaxsi butun” inson degan qarashni izohlang.
6. Usta Alim qissasining roman poetikasidagi o‘rnini baholang.
7. “O‘tkan kunlar” romanini nima sababdan jadid adabiyoti namunasiga kiritamiz?
8. “O‘tkan kunlar” romani yuzasidan olib borilgan bahs-munozaralar haqida fikr bildiring.
9. Romandagi ayollar obraziga munosabat bildiring.
10. Otabek va Anvarning xon bilan yuzma-yuz kelishi, sizningcha, nimani anglatadi?

4-мавзу:

Cho‘lpon hayoti va ijodi

Reja:

1. Cho‘lpon hayoti va ijodi haqida ma‘lumot.
2. Cho‘lponshunoslik va uning bosqichlari
3. Cho‘lpon hikoyalari va dramalarida ma‘rifatparvarlik g‘oyalari.
4. Cho‘lpon she‘riyatida erk va ozodlik g‘oyalarining ifodalanishi.
5. “Kecha va kunduz romanida shaxs fojiasi talqini.

Tayanch tushunchalar: Jadidchilik va jadid adabiyoti, Cho‘lpon lirikasi, hikoya, dramaturgiya, roman va romanchilik, shaxs fojiasi talqini, jadid obrazi, erk motivi, yo‘l motivi.

Mavzuning maqsadi: Ushbu mavzu orqali talabalarga Cho‘lpon hayoti va ijodi, Cho‘lpon ijodining XX asr boshlari jadid adabiyotiga ta‘siri, Cho‘lpon she‘riyati, Cho‘lpon publitsistikasining jamiyat tarqqiyotidagi o‘rni, Cho‘lpon adabiy merosi va cho‘lponshunoslik haqida ma‘lumotlar berish, talabalarda o‘sha davr siyosiy, ijtimoiy, adabiy hayoti haqida tasavvur uyg‘otish.

Mustaqil o‘qish uchun adabiyotlar:

1. Karimov N va b. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1999.
2. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: O‘zbekiston, 2008.
3. Karimov N. Cho‘lpon (ma‘rifiy roman) T.: Sharq, 2003.
- 4 Qosimov B. va b. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – T.: Ma‘naviyat, 2004.
5. Sodiq. S. Yangi o‘zbek adabiyoti. T.: O‘qituvchi NMIU, 2019.
6. Quronov D. Cho‘lpon. –T.: Sharq. 2000.
7. Cho‘lpon. Asarlar. II jild. – T.: Xazina, 1993.
8. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.

Cho‘lpon adabiyot sahnasida ko‘rinishi bilanoq ko‘zga tashlangan ijodkorlardan. Binobarin, cho‘lponshunoslik uning ijodi bilan birga boshlangan desak, mubolag‘a bo‘lmas. Uning matbuotda e‘lon kilingan birinchi asari esa

mutaxassislarimizning aniqlashlariga qaraganda, “Sadoyi Turkiston”ning 1914-yil 18-aprel sonida “Abdulhamid Sulaymoniy” imzosi bilan bosilgan “Turkistonli qardoshlarimizga” she’ridir. Garchi “Abdulhamid Sulaymoniy” nomi 10-yillardagi matbuot sahifalarida tez-tez uchrab tursa-da, u haqdagi dastlabki maqolalar 20-yillarning boshlarida paydo bo’ldi. Va bularning birinchisi tatar yozuvchisi Zarif Bashiriy (1888-1962)ning 1923-yil 4-mayda “Turkiston” gazetasida shoirning ilk to’plami “Uyg’onish”ga yozilgan taqrizi edi. Shu yili mazkur gazetaning 10 dekabr sonida munaqqid Vadud Mahmud(1897 – 1976)ning shoirning ikkinchi she’riy to’plami haqidagi “Cho’lponning “Buloqlar”i” nomli taqrizi bosilib chiqdi. 1924-yilda tatar adabiyotshunosi Abdurahmon Sa’diy (1889 – 1956), 1925 yilda mashhur Abdulla Qodiriy u haqda yozdilar.

1927-yilda tanqidchi Olim Sharafiddinov(1903 – 1943)ning “O‘zbek shoirlari. (Cho’lpon)” (“Qizil O‘zbekiston” gazetasi, 14 fevral) maqolasi bilan matbuotda shoir ijodi haqida katta bahs ochildi. O.Sharafiddinov Cho’lpon ijodini ilmda endigina shakllanib kelayotgan markscha metodologiya asosida tekshiradi va uning asarlariga sinfiy yondashib, «Cho’lpon boylar, millatchi ziyolilarning mafkurachisidir, shularning shoiridir», «Cho’lponning asarlari bostirilar ekan, uni qattiq tahlil qilib, kuchli senzura o’tkazib, muvofiqlarini bosish kerak» degan xulosani beradi. Unga javobni yosh Oybek berdi. “Cho’lpon shoirni qanday tekshirish kerak?” degan maqola bilan chiqib, uning she’rlarini mafkura emas, san’at qonunlari asosida tekshirish lozimligini uqdirdi va ruslarning Pushkinga munosabatini ibrat qilib keltirdi. Bahsga jurnalist, partiya va davlat xodimlaridan Usmonxon Eshonxo’jayev (1898 – 1938) aralashadi. “Munaqqidning munaqqidi” (“Qizil O‘zbekiston” g., 22, 23, 27 iyun) maqolasini yozib, Oybekning fikrlarini rad etadi. Shoirga “dunyoqarashi yo‘q”, “tanazzulparvar”, “xayolparast” degan ayblarni yopishtiradi. Ulardan “Cho’lponizm”ni keltirib chiqaradi va buning yoshlar uchun g’oyat zararli ekanligini tushuntirishga tushib ketadi. Oybek “Munaqqidning munaqqidi” maqolasining egasiga” javob (mazkur gazeta, 23 avgust) bilan chiqadi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi Akmal Ikromov Respublika madaniyat xodimlarining shu yil 4 – 5 oktyabrda bo‘lib o‘tgan 2-

qurultoyidagi “Mafkuraviy jabhadagi kurash va madaniyat xodimlarining vazifalari” nomli ma’ruzasida bahsga yakun yasaydi. O. Sharafiddinov va Usmonxon fikrlarini qo’llash bilan cheklanmay, “Cho’lponni qayta tarbiyalash mumkinligi” masalasini ham “bahsli” hisoblaydi. Shu tariqa, uning ijodi ustidan “zararli!” degan hukm chiqariladi. Cho’lpon qurultoy hay’atiga arznoma bilan murojaat qiladi, keyingi she’rlarida qisman “millatparastlik” kayfiyatlari bo’lganligini tan olgan holda o’ziga qo’yilayotgan barcha siyosiy ayblarni rad etadi. Unga quloq solmaydilar va qurultoydan quvib chiqaradilar.

Mashhur adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov ushbu 1927-yil mojarosini “Adabiyotshunoslik va tanqidning manqurtga aylanishi” degan ko’p yillik va ko’p pardalik fojining birinchi pardasi” deb ataydi. Shundan keyingi o’n yil Cho’lpon va Cho’lponchilikka qarshi kurash bilan o’tdi. Sho’rolar hukumati uni “fosh qilish”ga o’z davrining deyarli barcha ijodkor ziyolilarini jalb qilishga muvaffaq bo’ldi. U haqda Moskvada o’qib kelgan yosh Otajon Hoshimdan tajribali, dunyo ko’rgan Miyonbuzruk Solihovgacha, yo’qsulparvar tanqidchi Anqaboy Xudoybaxtovdan yozuvchi M. Sheverdingacha yozdilar. Abdurahmon Sa’diy 20-yillardagi qarashlaridan chekinib, Cho’lponni “ashaddiy millatchi” qilib ko’rsatdi. “Kim o’zar”lik musobaqasi shu darajaga yetdiki, uning hali nashr qilinmagan kitoblari haqida “fosh etuvchi” so’z aytib, sovrin talashdilar. Yozuvchi Tuyg’unning Cho’lpon qamalishidan ozgina oldin 1937-yil 22-mayda “Yosh leninchi” gazetasida e’lon qilgan maqolasi shoirning bosilmasdan izziz yo’qolgan “Jo’r” nomli she’riy to’plami haqida edi. Shu tariqa, bu mash’um fojining “ikkinchi pardasi” (O. Sharafiddinov) Cho’lponning hibsga olinib, qatl qilinishi bilan yakunlandi.

Nihoyat, zamon aylanib, sho’ro tizimining temir murvatlari bir oz darz ketib, 1956-yil shabadalari 30-yillar qatag’onlarini yumshatgandek bo’ldi. Cho’lpon oqlandi. Tezkorlik bilan uning ijodiy merosini o’rganuvchi besh kishilik (Bahrom Rahmonov – Yozuvchilar uyushmasining birinchi kotibi — rais; a’zolar: Uyg’un, Mirzakalon Ismoilov, G’ulom Karimov, Ozod Sharafiddinov) e’tiborli hay’at tuzildi. Lekin ish siljimadi. 60-yillarning o’rtalarida “O’zbek tili va adabiyoti” jurnalida shoirning uch-to’rt she’ri bilan “Sho’ro hukumati va sanoyi nafisa” degan maqolasi

chiqdi-yu, yana hamma narsa taqa-taq to‘xtab qoldi. Aksincha, u haqdagi fikr va baho deyarli oldingiday davom etaverdi. Hatto bu boradagi xatti- harakatlar jazolana boshladi. Masalan, 1968-yilda tuzilgan “Tirik satrlar” antologiyasi, birinchi navbatda, Cho‘lpon she’rlaridan namunalar kiritilgani uchun bosmaxonadan chiqmay, qatag‘on qilindi. Noshir va muharrir Markazqo‘m maqomida muhokama qilindi. 70-yillarning oxirida esa, Cho‘lpon va uning zamonasi tadqiqiga qo‘l urgan O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti boshida kaltak sindi. Va bu hol qayta qurish va oshkoralik zamonigacha davom etdi. Nihoyat, 1988-“yilda «Kecha va kunduz” romani Ozod Sharafiddinov so‘zboshisi bilan “Sharq yulduzi” jurnalida e‘lon qilindi. Bir yil o‘tar-o‘tmas, “Yulduzcha” nashriyoti shoirning «Bahorni sog‘indim» nomi bilan mo‘‘jazgina she’riy to‘plamini chop etdi.

1991 yilda G‘afur G‘ulom nashriyoti adibning “Yana oldim sozimni” nomi bilan salmoqli kitobini bosib chiqardi. Mustaqillik Cho‘lpon ijodini xalqqa tanitishni yangi asoslarga ko‘chirdi. “Xazina” ilmiy-ijodiy birlashmasi 1993-yildan uning uch tomlik asarlari nashrini boshladi va shundan ikkitasi 1994-yilda nashrdan chikqdi. “Ma’naviyat” nashriyoti shoir "tavalludining 100 yilligiga uning “Go‘zal Turkiston” nomli bir she’riy to‘plamini e‘lon qildi. Ayni paytda, u haqda keng ko‘lamda tadqiqotlar ham maydonga kela boshladi. Dastlabkilari istiqlolimiz bilan izma-iz maydonga keldi. Bular Ozod Sharafiddinovning «Cho‘lpon. Shoir haqidagi rivoyatlar va haqiqatlar» 4, Naim Karimovning “Cho‘lpon” risolalari edi. Tadqiqotchilar orasida Cho‘lponning hassos va fidoyi muxlisi Ozod Sharafiddinovning xizmatlarini alohida ta’kidlash kerak. Olimning 1991 yilda nashr etgan “Cho‘lpon” risolasi u haqda qilinayotgan ishlarning mazmun va yo‘nalishini belgilab bergan kitob bo‘ldi. “Cho‘lponni anglash” esa, mohiyatan Cho‘lponshunoslik tarixining bugungi kun talqinidir.

“Cho‘lpon” taxallusi bilan shuhrat topgan Abdulhamid Sulaymon 1897-yilda Andijon shahrining Qatortarak mahallasida dunyoga keldi. Otasi Sulaymon Mulla Muhammadyunus o‘g‘li (1874 – 1929) bazzoz edi. Bazzoz – gazlamafurush degani. Taxmin qilish mumkinki, oila o‘ziga to‘q bo‘lgan. Ma’lumotlarga qaraganda, Sulaymon bazzoz zamonasining ko‘zi ochiq ziyolilaridan bo‘lib, “Rasvo” taxallusi

bilan she'rlar yozgan, hatto devon tartib qilgan. O'g'li Cho'lpon bilan she'riy yozishmalari bo'lganini naql qiladilar. Xonadonda zamonning olimu fozillari tez-tez bo'lib turganlar.

Abdulhamid dastlab eski maktabda, so'ng Andijon, Toshkent madrasalarida o'qiydi. Shuningdek, Andijondagi rus-tuzem maktabida ham tahsil olgan. Yoshlikdan matbuot bilan tanishib borgan. Bo'lajak shoirning shakllanishida ayrica rol o'ynagan hodisalardan biri uning Zaki Validiy (1890-1970) bilan tanishuvi bo'ldi. 1912-yilda Zaki Validiyning "Turk va tatar tarixi" degan kitobi bosiladi. Kitob qisqa muddatda katta shuhrat topadi. "Turk yurdu" (Turkiya), "Tarjimon" (Qrim), "Vaqt" (Orenburg) maqolalar beradi. Mashhur Bartold muallifni Peterburgga taklif etadi. Qozon universiteti tarix va arxeologiya jamiyatiga a'zo qilib oladi. Turkistondan taniqli ma'rifatchi Ashurali Zohiriy va Qo'qon xoni og'aliqzodasi Yunushoji Og'aliqov Zaki Validiy bilan yaqindan tanishish va suhbatlashish uchun Boshqirdistonga boradilar. Behbudiy Turkiston tarixini yozishni birgina unga ishonib topshirish mumkinligini matbuotda yozib chiqadi va yosh olimni Samarqand madrasalariga taklif etadi. 15 yashar Abdulhamid ham bu kitobni o'qib chiqadi. Ta'sirlanib, muallifiga minnatdorchilik maktubi yozadi, Andijonga taklif etadi. Taqdirning taqozosi bilan Qozon universiteti Zaki Validiyni 1913-yilning oxirlarida Farg'ona vodiysiga ilmiy safarga yuboradi. Olim Andijonda ekan, Nazir To'raqul (mashhur Nazir To'raqulov, davlat va jamoat arbobi) bilan birga Abdulhamidlar uyida bo'ladi va bu aloqa Zaki Validiy yashirin faoliyatga o'tgan 1920-yilga qadar davom etadi.

Boshqa omillar ham bo'lgan. Yozuvchi V. Yan o'z xotiralarida ("Советская энциклопедия"da Cho'lpon haqida maqola yozish jarayonida u bilan suhbatlashgan edi) shoirning otasi uni mudarris qilmoqchi bo'lgani, lekin u madrasada bir dunyo ko'rgan ziyoli bilan tanishib, fikri tamom o'zgargani, "adabiy-siyosiy ishlarga qizg'in havas uyg'onib", "o'zbek milliy o'quvchisi bo'lishga qaror bergani", ayni paytda, barcha yoshlar singari Fitrat ta'sirida yurgani haqida yozgan edi. MXX arxivi hujjatlaridan ham uning Abdurauf Fitratga alohida ixlosi borligi ma'lum bo'ladi. Jumladan, u Fitratni 1913-yildan g'oyibona tanigan. Ilk bor Samarqandda

Fitrat muharrirlik qilgan “Hurriyat” tahririyatida uchrashganlar. 1919-yildan butun faoliyatlari hamkorlikda, hamfikrlikda kechgan Xullas, Cho‘lponning matbuotdagi dastlabki she‘r va maqolalari 1914-yildan ko‘rinadi. “Sadoyi Turkiston” gazetasi 1914-yil 14-aprel sonida “15 yashar Abdulhamid afandi”ning “Turkistonli qardoshlarimizga” she‘rini mushtariylariga havola etar ekan, o‘quvchilarni “yoshgina qalbi ila yorug‘lik va ilm-maorif yo‘liga boshlagan”idan mamnunligini yashirmagan va uning kelajagiga katta umid bildirgan edi. Mutaxassislarining aniqlashlaricha, “Sadoyi Turkiston”ning 1914-yil 29-aprel sonida chop etilgan “Qurboni jaholat” hikoyasi Cho‘lponning birinchi nasriy asaridir. Dastlabki asarlari “Abdulhamid Sulaymon”, “Abdulhamid Sulaymoniy” imzolari bilan bosildi. So‘ngroq “Qalandar”, “Mirzaqalandar” va nihoyat, “Cho‘lpon” taxalluslari bilan chiqdi. Tariximizga Cho‘lpon nomi bilan kirdi.

V. Yan yuqoridagi xotirasida Cho‘lpon tilidan uning mudarris bo‘lishdan qochib, Toshkentga kelgani va gazeta-jurnallar tahririyatida yurgani aytiladi. Har holda u shu yillari gazetalar bilan yaqin aloqada bo‘lganiga shubha yo‘q. Zaki Validiy uning 1917 – 1918 yillarda siyosiy ishlar bilan ham shug‘ullanganini, jumladan, Orenburgda Boshqirdiston hukumati raisining kotibi lavozimida ishlaganini ma‘lum qiladi. Ikkinchi bir o‘rinda “Turkiston hukumat a‘zolaridan Ubaydulla Xo‘ja va safdoshlari Mirmuhsin, shoir Abdulhamid Sulaymon (Cho‘lpon), buxoroli Abdulhamid Orif o‘g‘li shu paytlarda (1918-yil yozi ko‘zda tutiladi) Boshqirdistonda ishladilar», deb yozadi. Bu ma‘lumotni Boshqirdiston hukumati rahbarining o‘zi keltirayotgan ekan, u har qanday shubhadan xolidir. Shoirning mashhur tatar hurriyatparvari Mullanur Vohidov (1885-1918) o‘limiga bag‘ishlab she‘r yozishi ham bu fikrni tasdiqlaydi. Cho‘lpon, yuqoridagi e‘tiroflariga qaraganda, 1919-yilda Toshkentda Fitrat yonida bo‘lgan, “Chig‘atoy gurungi”da ish olib borgan. 1920-yilning avgustida Bokuda bo‘lib o‘tgan Sharq xalqlari qurultoyida ishtirok etadi. Adibning 1927-yilda o‘zbek ziyolilarining qurultoyiga yozgan arizasidan shu yillari TurkRosTAda, “Ishtirokiyun”, “Qizil bayroq”, “Turkiston”, “Buxoro axbori” gazetalarida mas‘ul lavozimlarda ishlagani ma‘lum bo‘ladi. Taxmin qilish mumkinki, u Buxoroda Fitrat hukumat tarkibida

ishlab turgan 1920-1923 yillarda xizmat qilgan. Ziyo Said uning bir muddat 1920-1922 yillarda chiqib turgan “Buxoro axbori”da mas’ul muharrir bo’lganini qayd etadi. Zaki Validiy xotiralari ham uning 1921-1922 yillarda Buxoroda yashaganini tasdiqlaydi. 1922-yilda Toshkentda chop etilgan “O‘zbek yosh shoirlari” she’riy to‘plami (antologiyasi)da uning 14 she’ri bosilib chiqadi. Shu yili “Uyg‘onish” nomi bilan uning birinchi she’riy to‘plami e’lon qilinadi. 1923-yilning boshlarida esa ikkinchi she’riy to‘plami “Buloqlar” nashrdan chiqadi.

Prof. Ozod Sharafiddinov Cho‘lponning 1924-yilda Moskvada Maorif uyi qoshidagi yosh o‘zbek artistlarining mahoratini oshirish uchun tashkil qilingan dramatik studiyaning adabiy emakdoshi va rahbarlaridan biri bo’lganini ma’lum qiladi. Zaki Validiy “...so‘ng zamonlarda Moskvada adabiyot va san’at instituti yoxud akademiyasida ham tahsil olgan”, deydi, har ikki ma’lumot mohiyatan bir-biriga yaqin. Bu yillar, darhaqiqat, Cho‘lpon uchun tahsil yillari bo‘ldi. Moskva adabiy-madaniy muhiti bilan yaqindan tanishdi. Teatr va teatrchilik sirlarini o‘rgandi. 1926-yilda uchinchi she’riy to‘plami “Tong sirlari” va “Yorqinoy” pyesasi chop etildi. Bu davrga kelib u zamonasining eng mashhur shoiri bo‘lib tanildi. Shu tariqa 1927-yil kirib keldi. Sho‘ro hukumati ijtimoiy uyg‘onish bayrog‘i ostida milliy uyg‘onishga qarshi hal qiluvchi hujumga o‘tdi. Davrning birinchi milliy shoiri Cho‘lpon ziyolilar qurultoyidan haydab chiqarildi. Qiyin-qistov kunlar boshlandi. Asarlari ming bir chig‘iriqqa solindi. Bosilgan she’rlari ustidagi “ur kaltak” kuchaygandan kuchaydi. Dastlab “g‘oyasiz” deyish bilan cheklanilgan bo‘lsa, endi ularni “zararli”, muallifni esa, ochiqdan ochiq “dushman” deya boshladilar. Shoir qand kasaliga muhtalo bo‘ldi. Zamon og‘irlashib bordi. Botu qamaldi. Munavvarqori otildi... Arxiv hujjatlaridan ma’lum bo‘lishicha, 1931-yilda Cho‘lpon Fayzulla Xo‘jayev tomonidan Moskvaga jo‘natib yuboriladi va tadbirkor rahbar shu yo‘l bilan shoirni bir muddat saqlab qoladi. Cho‘lpon 1932–1934 yillarda Moskvada yashadi. SSSR Markaziy Ijroiya Komiteti apparatida tarjimon bo‘lib ishladi. Badiiy tarjima bilan ham shug‘ullandi. Shekspirning “Hamlet”, Karlo Gollodining “Malikai Turondot” asarlarini tarjima qildi. «Kecha va kunduz» romanini yozdi.

U Toshkentga 1935-yilda qaytib keldi. Shoir atrofidagi gap-soʻzlar, tahqir va taʼqib hamon davom etardi. Shularga qaramay, u buyuk bir sabot va iroda bilan original asarlar yozar, tarjimalar qilar edi. U mashʼum 1937-yilga qadar, bor-yoʻgʻi 2 yil oraligʻida «Kecha va kunduz» romanini hamda “Soz” sheʼriy toʻplamini nashrdan chiqardi. “Joʻr” sheʼriy toʻplamini bosmaga topshirdi. Gorkiyning “Ona” romanini, “Egor Bulichev” pyesasini, Pushkinning 25 sheʼri va “Dubrovskiy”, “Boris Godunov” asarlarini, Lohutiyning “Evropa safari”ni tarjima qildi.

Choʻlpon 1937-yilning kuzida qamoqqa olinib, 1938-yil 4-oktyabrda otib tashlanadi.

Choʻlpon bizga qoldirgan adabiy merosining umumiy koʻlami bir qadar maʼlum boʻlsa-da, ular hali bir joyga toʻplanishi u yoqda tursin, ayrimlari aniqlanish bosqichida turibdi. Shunga qaramasdan, shoir asarlari uch tomligining nashr qilinishi va bulardan ikkitasining oʻquvchilar qoʻliga tekkanligi muhim hodisa boʻlib, muallif ijodi haqida fikr yuritishga bemalol imkoniyat beradi. Jumladan, 1-jildidan shoirning “Oʻzbek yosh shoirlari” (1922) toʻplamiga kirgan 14 sheʼri va “Uygʻonish” (1922), “Buloqlar” (1923), “Tong sirlari” (1926), “Soz” (1935) va turli davr matbuotida eʼlon qilingan sheʼrlar, jami – 252 sheʼr oʻrin olgan. Bu shoir sheʼrlarining tugal nashri emas, albatta. Masalan, B. Doʻstqorayev bosmaga tayyorlagan “Goʻzal Turkiston” (1997) toʻplamida yuqoridagi nashrga kirmay qolgan sheʼrlari bor, izohlar bilan chop etdi. Goh-goh matbuotda yangi topilgan sheʼrlari eʼlon qilinib turibdi. Bu, tabiiy hol, albatta. Choʻlpon nosir sifatida ham adabiyotimizda salmoqli oʻrin tutadi. Adib uch jildligining 2-jildiga uning mashhur «Kecha va kunduz» romani bilan birgalikda turli davrlarda yozilib chop etilgan 13 hikoyasi kiritilgan. Ular orasida 1914- yilda eʼlon qilingan ilk hikoyalari “Qurboni jaholat” va “Doʻxtur Muhammadyor”dan sovet davrida bosilgan “Kileoʻpatra” (1923)gacha bor.

20-yillarda nashr etilgan hikoyalari, xususan, oʻzbek ayollari taqdiridan soʻz ochgan “Qor qoʻynida lola”, “Oydin kechalarda”, “Nonushta”, “Gavharoy” kabi hikoyalari badiiy saviyasi bilan 10-yillardagi asarlaridan keskin ajralib turadi.

Cho‘lponning eng mashhur nasriy asari, shubhasiz, «Kecha va kunduz» romanidir. Cho‘lpon teatrchilik bilan ham shug‘ullandi. Ayniqsa, Buxoro va Moskvada ekanligida. Bir qator dramalar yozdi. Mutaxassislar uning “Boy” (1914), “Xalil farang” (1917), “Yorqinoy” (1920), “Cho‘pon sevgisi”, “Cho‘rining isyoni”, “Mushtumzo‘r”, “O‘rtoq Qarshiboyev”, “Hujum” (V.Yan bilan hamkorlikda) kabi sahna asarlari yozganligi haqida ma’lumotlar beradilar. Lekin, afsuski, ularning aksariyati matni yo‘q, taqdiri noma’lum. Ayrimlarininggina mazmuni va yo‘nalishi haqida qaydlar bor. Masalan, Zaki Validiy «Cho‘rining isyoni», «Mushtumzo‘r», «O‘rtoq Qarshiboyev» o‘zbek inqilobiy harakati tarixidan olingandir”, deb yozadi. “Hujum” nomidan ko‘rinib turganidek, xotin-qizlar ozodligi mavzuiga bag‘ishlangan. Cho‘lpon uch jildligining 2-jildiga 1923- yilda chop etilgan “Gunoh” nomli ixcham bir “kulgu tomosha”si bilan “Yorqinoy” kiritilgan. Demak, yuqorida nomlari keltirilgan 8 asarning 2 tasininggina matni bor.

“Yorqinoy”ning 3 jildlikdagi nashri 1926-yilgi Moskva bosmasi asosida amalga oshirilgan. O.Sharafiddinovning aniqlashicha, o‘zbek dramteatri repertuarida eng uzoq, salkam o‘n yil saqlangan asarlardan. Asarning markazida Yorqinoy obrazi turadi. O. Sharafiddinov Cho‘lponning Yorqinoy obrazini yaratishida «Oloy malikasi» nomini olgan Qurbonjon dodxoh (1811 – 1907) ni ko‘zda tutgan bo‘lishi ehtimolini qayd etadi.

Cho‘lponning adabiy-tanqidiy merosi va tarjimalaridan ham namunalar chop etilgan. Masalan, 1994-yilda uning adabiy-tanqidiy maqolalaridan bir dastasi “Adabiyot nadir?” nomi ostida “Cho‘lpon” nashriyoti tomonidan chop etildi. I.S.Turgenev, N.V.Gogol, L.Andreyevdan qilingan ayrim tarjimalari 3 jildlik asarlarining 2-jildida bosildi. Umuman olganda, ziyolilar shoir tarjimalaridan sobiq sho‘ro davrida ham xabardor edilar. Masalan, I.A.Krilovning:

Daraxtning bo‘shini qurt yeydi doim

Tarixda misollar juda ko‘p bunga... —

satrlari bilan boshlanadigan mashhur “Bo‘ri bilan qo‘zichoq” masalini bilmaydigan yo‘q. Yoki necha o‘n yillar davomida Hamza teatri sahnasidan tushmay kelgan “Hamlet”ni oling. Bu tarjimalar allaqachon xalq mulkiga aylangan edi, faqat

ularning tarjimoni ko'rsatilmas edi. Shuningdek, adibning adabiy-tanqidiy asarlari ham estetik tafakkurimiz rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Cho'lpon adabiyotning juda ko'p tur va janrlarida samarali ijod etgan bo'lsa-da, shoir sifatida ko'proq shuhrat topdi. Uning o'z davrida to'plamlarda bosilib chiqqan va bugun ma'lum bo'lgan she'rlari u qadar ko'p emas. Lekin ular o'zbek ziyolilariga chaqmoqdek ta'sir qilgan va butun adabiyotni o'z izmiga olgan edi.

U she'riyatga juda erta kirib keldi. Ilk she'rlaridanoq milliy shoir sifatida tanildi. Masalan, bizga ma'lum bo'lgan va matbuotda chop etilgan ilk she'ri "Turkistonli qardoshlarimizga" o'ksik Vatan – Turkiston jarohatlari haqida edi.

1917-yil 28-noyabrdagi "Turkiston muxtoriyati"ni olqishlab chiqdi, uni "ozod turk bayrami" sifatida qabul qildi. Unga mehru muhabbatini izhor etdi. Uni qo'lga kiritgan Vatan va xalqni sharafladi: "Turkiston muxtoriyati"ni olqishlab chiqdi, uni "ozod turk bayrami" sifatida qabul qildi. Unga mehru muhabbatini izhor etdi. Uni qo'lga kiritgan Vatan va xalqni sharafladi:

Muxtoriyat olindi,
Ishlar yo'lga solindi.
Milliy marshlar cholindi,
Dushman o'rtansun endi!
Hurriyat – bayrog'imiz,
Adolat – o'rtog'imiz,
Xursand bo'lgan chog'imiz,
Mevalansun bog'imiz!
Turkistonli – shonimiz, turonli – unvonimiz,
Vatan – bizni jonimiz, fido o'lsun qonimiz!

Shoir sovet hokimiyati zo'rayib, erkin fikr qiyin-qistovga tushayotgan 1926-yilda uchinchi va "Soz"ni hisobga olmaganda, so'nggi she'riy kitobiga quyidagi serma'no satrlarni epigraf qilib keltirgan edi:

Bir esib o'tdilar "Uyg'onish" yellari,
Bir qaynab toshdilar ko'zyoshi – "Buloqlar".
Ey, tongda qaltirab o'ynashgan yaproqlar,

Tek turing, yoyilsin endi “Tong sirlari”.

1920-yilda yozilgan va o‘z davrida juda katta muhokamalarga sabab bo‘lgan “Buzilgan o‘lkaga” degan she‘riga shoir “doston” deb izoh bergan. Aslida u hajman uncha katta emas, 60 satr atrofida. Lekin uning bag‘riga Turkistonday jahon sivilizatsiyasining chorrahasida kelgan bir o‘lkaning fojiasi singdirilgan.

Millat va Vatan timsoli shoir she‘rlarida xilma-xil tarzda namoyon bo‘ladi. Masalan, uni go‘zal yor (“Go‘zal”), hatto binafsha (“Binafsha”) qiyofasida ham uchratish mumkin.

Cho‘lpon she‘riyatining sevimli mavzularidan biri xotin-qizlar ozodligidir. U bu masalani istiqloq uchun kurashning tarkibiy qismi deb biladi. Shoir nazdida istibdodning eng og‘ir yuki ular zimmasiga tushgan edi. Birgina mustamlakachilik emas, o‘z ichimizdagi mutaassiblik, jaholat azobini ko‘proq ular tortdi. Ular tilidan aytilgan:

Kulgan boshqalardir, yig‘lagan menman,

O‘ynagan boshqalar, ingragan menman.

Erk ertaklarini eshitgan boshqa,

Qullik qo‘shig‘ini tinglagan menman...— satrlarida juda katta haqiqat bor edi.

Cho‘lpon nodir poetik iste‘dod egasi edi. Va bu iste‘dod XX asr Rusiyasi maydonga keltirgan totalitar-shovinistik tuzumga duch keldi. Birdaniga uning mohiyatini anglab yeta olmadi. Haq va haqiqat yo‘lidagi kurashlar sifatida qabul qildi. Nimaligini idrok etishi bilan unga qarshi isyon ko‘tardi. Bu isyon dastlab ochiq, oshkor kechdi. So‘ng esa, tabiiyki, pardalanib bordi. Buni hisobga olmoq kerak.

Zaki Validiy Cho‘lponni qozoq uyg‘onishining buyuk shoiri Mag‘jon Jumaboy (1893-1937) bilan qiyoslagan edi. Bu bejiz emas. Mag‘jon 1922-1924-yillarda Toshkentda yashagan. Shu davr Turkiston muhitini yaxshi biladi. Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetida o‘qigan. Demak, bu yerdagi ziyolilar bilan ham yaqin munosabatda bo‘lgan. So‘ng 1924-1926-yillarda, ayni bir paytda har ikki shoir Moskvada bo‘ldilar. Ularning biri-biri bilan shunchaki tanish emas, hatto yaqin bo‘lganliklari ehtimoli yo‘q emas.

Shoirning yirik bir she'riy to'plami («Mag'jon Jumaboyev o'lanlari») 1923-yilda Toshkentda taniqli davlat arbobi Sultonbek Xo'janov (1894–1938) so'zboshisi bilan chiqqan edi. Uning: «Turkiston eki dunyo esigig'o'y, Turkiston er Turktung besigig'o'y», deb boshlanadigan mashhur she'ri shu yerda bitilgan, shu to'plamda e'lon etilgan... Har ikki shoir ijodining g'oya va obrazlar tizimida ma'lum o'xshashliklar borki, buni payqash qiyin emas. Validiy muqoyasani har ikki shoir she'riyatidagi obrazlar tizimining o'xshashligi asosiga quradi. Chunonchi, har ikki shoir ham Rusiya va Turkistonni bir-biriga zid qo'yib tasvirlaydilar. Mag'jon ularni “tun” va “kun” timsollari bilan bersa, Cho'lpon “G'arb” va “Sharq” yoxud “zolim” va “mazlum” ta'birlari bilan ifodalaydi. Bunga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, Cho'lpon she'rlarida tabiat manzaralari, fasllar tasviri aksariyat shoirning ruh va kayfiyatinigina emas, qay bir darajada g'oya va maslagini ham o'zida namoyon etadi.

20-yillarning o'rtalariga kelib, shoir she'rlarining ifoda usullari bir oz o'zgardi. Endi ulardagi fikr va g'oyalar ilgarigiday ochiq-oshkor emas, bo'rtib ko'rinib turmaydi. Mana

«Kuz yomg'iri» tasviri:

To'kildi tomchilar...

Yaproqning yuzlari

Tomchiga o'ptirib ho'llandi,

Chuqurcha ko'llandi...

Tomchini ko'pdirib,

Betida o'ynatdi

Chuqurcha.

U - jindek ko'lcha.

Tomchilar –

Ko'klarning suvlari

Yerlarni qamchilar...

She'r 1926-yilda, shoir tepasida tanqid tayoqlari sinib turgan bir paytda yozilgan. Uni shunchaki bir manzara doirasida qoldirib bo'lmaydi. O'ylaymizki, undagi har bir tafsidda kayfiyat, holat, ma'no bor.

Cho'lpon she'riyati xalqchil g'oyalari, yuksak millatparvarlik va vatanparvarlik ruhi bilangina emas, chinakam xalqona ifoda vositalari bilan ham o'quvchilar qalbini zabt etgan, muallifini tirikligidayoq mumtoz shoirga aylantirgan edi.

«Kecha va kunduz» romanidan parcha dastlab 1935-yilda «Sovet adabiyoti» jurnalida e'lon qilingan edi. 1936-yilda u alohida kitob bo'lib bosilib chiqdi. Asar, nomlanishidan ma'lum bo'lganidek, yaqin o'tmishni mavzu qilib olgan. Muallif xalqimiz tarixining kechasi va kunduzini ko'rsatmoqni niyat qilgan edi. Tarix va zamon muqoyasasi XX asr sho'ro adabiyotining sevimli mavzularidan edi. Ayniqsa, 30-yillarda bu avjiga chiqqan edi. Cho'lpon 27-yildagi mash'um zarbadan, 30-yillarning boshida etilib kelayotgan qatag'onlar hididan so'ng sho'ro adabiyoti tomon yuz burish majburiyati ostida qoldi. «Soz» she'riy to'plami bunga dalil. Ushbu romanning sarlavhalanishi ham muallifning majburiy murosasiga kishini ishontiradi. Lekin biz mazkur romanning birinchi – o'tmish (kecha) qismiga egamiz. Uning ikkinchi – sho'ro zamoni (kunduz) yetib kelgan emas. Tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, u nashriyotga topshirilgan, hatto korrekturasi ham chiqib kelgan, biroq tergov jarayonida yo'qolgan.

Romanning bosh g'oyasi, asosan, maishiy turmush manzaralari, an'anaviy kundoshlik mojarolari va yangi davrga xos bo'lgan xususiyatlar, chunonchi, «kapitalistik munosabatlar» va «burjua axloqi» deb atalgan, islomiy turmush tarzidan uzoq fe'l-odatlar tasviri yordamida ifodalanadi.

Romanda davr manzaralari haqqoniy va ta'sirchan tasvirlangan. Jadid — qadim bahslari, Birinchi Jahon urushi va mardikorlik voqealari, «Tarjimon», «Vaqt» gazetalari bilan bog'liq ma'lumotlar, Orenburgdagi mashhur «Husayniya» madrasasi tafsilotlari asar to'qimasiga mahorat bilan singdirib yuborilgan.

«Kecha va kunduz» o'zbek romanchiligi taraqqiyotida muhim voqea bo'ldi. U «O'tkan kunlar» boshlab bergan yo'lni muvaffaqiyat bilan davom ettirdi.

Tariximizning g‘oyat murakkab va mas’uliyatli bir davrini, milliy uyg‘onish tariximiz manzaralarini haqqoniy yoritib berdi. Esda qoladigan bir qator obrazlar yaratib, o‘zbek romanchiligini yangi, yuksak pogonaga olib chiqdi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq. “Bilamiz. Bilishni xohlaymiz. Bilib oldik” – “BBB metodi asosida bilimlarini tekshiradilar. Masalan:

Bilamiz	Bilishni xohlaymiz	Bilib oldik
Cho‘lpon ijodi haqida maktab darsliklaridan bilamiz.	Cho‘lpon ijodining o‘rganilishi haqida bilishni xohlaymiz	Cho‘lpon ijodi haqida fikr bildirgan va uni o‘rgangan munaqqid va olimlar haqida bilib oldik

Shu tariqa bu metod bilan «Kecha va kunduz» romaniga oid topshiriqlarni ham berish mumkin.

Asar qahramonlari haqida bilganlarimiz	Asar qahramonlari haqida bilishni istaymiz	Asar qahramonlari haqida bilib oldik
--	--	--------------------------------------

2-topshiriq. “Ikki qismli kundalik” metodi orqali talabalarda estetik did, tafakkur darajasi, xayolot olami va idrok tarzini namoyon etishd alohida ahamiyat kasb etadi. Bu usul bilan badiiy matn ustida ishlash ko‘lamini kengaytirish, uni tahlil qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash, asar g‘oyasi va qahramonlar holatini tushunish uchun “Ikki qismli kundalik” metodi qulay didaktik imkoniyatlarga ega bo‘lib, undan yakka tartibda, juftliklar hamda kichik guruhlarda ishlash jarayonlarida foydalanish mumkin.

«Kecha va kunduz» romanida muallif qarashlari	Obrazlar tasviriga oid shaxsiy mulohazalar

--	--

1- bosqichda asar matni o‘qishga tavsiya qilinadi. Matn bilan to‘liq tanishilganidan so‘ng ikkinchi bosqich vazifasiga o‘tiladi;

2- bosqichda kundalikning chap tomoniga muallif g‘oyalari – asardagi o‘zlariga yoqqan yoki ma’qul bo‘lmagan sifatlar yoziladi;


3- bosqichda esa o‘ng tomonga izohlanayotgan qahramon sifatiga xos belgilar, tasvir vositalarining yozuvchi g‘oyasini yoritishdagi ahamiyati, asar haqidagi umumiy xulosalar yoziladi;

4-bosqichda o‘quvchilarning xohishlariga ko‘ra bir nechtdan ko‘chirmalar va izohlarni o‘qish taklif etiladi. Izohlar o‘qilayotganda savollar berish, bayon qilinayotgan fikrlarga tengdoshlarining munosabati bilan qiziqish mazkur bosqichning sharti hisoblanadi. Jarayon juftliklar yoki kichik guruhlarda ishlash orqali davom ettirilib, so‘nggi bosqichga o‘tilishi ham mumkin;

5- bosqichda talabalar o‘zlarining bilish darajasini namoyish etadilar, o‘qituvchi esa nimalarga kengroq to‘xtalish, nimalarni batafsil muhokamaga tortishni aniqlab oladi.

3-topshiriq. “Asar qahramonlariga maktub” metodi ham o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va asar qahramonlariga baho berish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, **“Zebiga maktub”** , **“Qurvonbibiga maktub”**, **“Sultonxonga maktub”**, **“Miryoyubga maktab”** kabi

4-topshiriq. “Venn diagrammasi” metodi. «Kecha va kunduz” romani asosida mazkur diagrammani qo‘llash mumkin. Mazkur diagramma uch va undan ortiq doiralardan tashkil topadi. Ularda matnga aloqador bo‘lgan so‘zlar yoziladi. Badiiy asar qahramonlari xarakterining o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi so‘zlar ajratib olinadi. Ularning o‘xshash va farqli jihatlariga e’tibor beriladi.



Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. “Sadoyi Turkiston”ning 1914-yil 18-aprel sonida “Turkistonli qardoshlarimizga” nomli she’rga Cho‘lpon qanday imzo qo‘ygan edi?

1. “Abdulhamid Sulaymoniy”
2. “Qalandar”
3. “Andijoniy”
4. “Cho‘lpon”

2. Cho‘lpon haqidagi dastlabki maqolalar qachondan paydo bo‘ldi?

1. 20- yillarning boshida
2. 30- yillarning boshida.
3. 40 yillarning boshida.
4. 10-yillarning boshida.

3. Cho‘lponning “Uyg‘onish” to‘plamiga dastlab taqriz yozgan odam kim edi?

1. Zarif Bashiriy
2. Vadid Mahmud.
3. Abdulla Qodiriy.
4. Sadriddin Ayniy.

4. “O‘zbek shoirlari. (Cho‘lpon)” nomli maqolasi bilan Cho‘lpon ijodini sinfiylik nuqtai nazaridan tekshirib katta bahs-munozaralarni ochib bergan adabiyotshunos kim edi?

1. Olim Sharafiddinov

2. Oybek.

3. Sotti Husayn.

4. Usmon Nosir.

5. “Cho‘lpon shoirni qanday tekshirish kerak?” degan maqola bilan chiqib, uning she‘rlarini mafkura emas, san‘at qonunlari asosida tekshirish lozimligini uqdirgan inson kim edi?

1. Oybek

2. Usmonxon Eshonxo‘jayev

3. Olim Sharafiddinov

4. Akmal Ikromov

6. Kim “Munaqqidning munaqqidi” (“Qizil O‘zbekiston” g., 22, 23, 27 iyun) maqolasida Cho‘lpon ijodiga xolis munosabat bildirgan Oybekning fikrlarini rad etgan, unga “dunyoqarashi yo‘q”, “tanazzulparvar”, “xayolparast” degan ayblarni yopishtirgan munaqqid kim edi?

1. Usmonxon Eshonxo‘jayev

2. Olim Sharafiddinov.

3. Mirmuxsin Shermuhammedov.

4. Vadud Mahmud

7. Kimning xotiralarida (“Советская энциклопедия”da Cho‘lpon haqida maqola yozish jarayonida u bilan suhbatlashgan edi) shoirning otasi uni mudarris qilmoqchi bo‘lgani, lekin u madrasada bir dunyo ko‘rgan ziyoli bilan tanishib, fikri tamom o‘zgargani, “adabiy-siyosiy ishlarga qizg‘in havas uyg‘onib”, “o‘zbek milliy o‘quvchisi bo‘lishga qaror bergani”, ayni paytda, barcha yoshlar singari Fitrat ta’sirida yurgani haqida yozilgan edi?

1. V.Yan

2. Zaki Validiy

3. Nazir To‘raqulov

4. Otajon Hoshim.

8. Cho‘lponning birinchi nasriy asari ...

1. “Qurboni jaholat”

2. “Novvoy qiz”

3. “Qor qo‘ynida lolalar”

4. “Doktor Muhammadiyor”

9. Kim Cho‘lponni Moskvaga jo‘natib yuborib qatag‘onlardan bir muddat saqlab qoldi?

1. Fayzulla Xo‘jayev

2. Akmal Ikromov

3. Fitrat

4. Otajon Hoshim

10. Eshmurod obrazi Cho‘lponning qaysi asari qahramoni?

1. “Qurboni jaholat”

2. “Novvoy qiz”

3. “Qor qo‘ynida lolalar”

4. “Doktor Muhammadiyor”

11. “...o‘zbek, fors tillarini suvday biladi. SHoir Ado she‘rlarini egalaridan yaxshiroq tushuntirib bera oladi. Nodir kitoblar yig‘adi...”. «Kecha va kunduz» romanidagi ushbu ta‘rif egasi kim edi?

1. Noyib to‘ra

2. Zunnun

3. Miryoqub

4. Mariya

12. “Buzilgan o‘lkaga” degan she‘riga Cho‘lpon nima deb izoh bergan?

1. “doston”

2. “sochma she‘r”

3. “poema”

4. “ballada”

13. Zaki Validiy Cho‘lponni kim bilan qiyoslagan edi?

1. Mag‘jon Jumaboy

2. Muxtor Avezov

3. Abay Qo‘nonboyev

4. O‘ljas Sulaymonov

14. “Turkiston eki dunyo esigig‘o‘y, Turkiston er Turktung besigig‘o‘y”
misralarining muallifi kim?

1. Mag‘jon Jumaboy

2. Muxtor Avezov

3. Abay Qo‘nonboyev

4. O‘ljas Sulaymonov

15. “Cho‘lpon boylar, millatchi ziyolilarning mafkurachisidir, shularning shoiridir”,
“Cho‘lponning asarlari bosdirilar ekan, uni qattiq tahlil qilib, kuchli senzurdan
o‘tkazib, muvofiqlarini bosish kerak” degan xulosani bergan munaqqid kim edi?

1. Olim Sharafiddinov

2. Otajon Hoshim

3. Anqaboy

4. Oybek

16. Ozod Sharafiddinov Cho‘lponning qaysi obrazni yaratishida «Oloy malikasi»
nomini olgan Qurbonjon dodxoh (1811– 1907) ni ko‘zda tutgan bo‘lishi ehtimolini
qayd etadi?

1. Yorqinoy

2. Poshshaxon

3. Sultonxon

4. Zebi

17. «To‘kildi tomchilar...

Yaproqning yuzlari

Tomchiga o‘ptirib ho‘llandi,

Chuqurcha ko‘llandi...

Tomchini ko‘pdirib,

Betida o‘ynatdi»

Chuqurcha.

U - jindek ko‘lcha. Ushbu misralar Cho‘lponning qaysi she‘ridan olingan?

1. “Kuz yomg‘iri”
2. “Buzilgan o‘lkaga”
3. “Kishan”
4. “Kulgan boshqalardir...”

18. “Daraxtning bo‘shini qurt yeydi doim

Tarihda misollar juda ko‘p bunga...”. Cho‘lpon tarjimasidagi ushbu masal kimning qalamiga mansub?

1. I. A. Krilov
2. L.Tolstoy
3. L.Andreyev
4. R.Txokur

19. 20-yillarda nashr etilgan hikoyalari, xususan, o‘zbek ayollari taqdiridan so‘z ochgan “Qor qo‘ynida lola”, “Oydin kechalarda”, “Nonushta”, “Gavharoy” kabi asarlari janriga ko‘ra...

1. hikoya
2. pyesa
3. lirik she‘r
4. satirik komediya

20. Cho‘lponning birinchi she‘riy to‘plami...

1. “Uyg‘onish”
2. “Buloqlar”
3. “Jo‘r”
4. “Tong sirlari”

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Cho‘lpon hayoti va ijodiga oid ma‘lumotlarni umumlashtiring.
2. Cho‘lpon she‘riyatining poetik xususiyatlarini “Somon parcha”, “Binafsha” she‘rlari misolida yoritib.
3. Cho‘lpon hikoyalarida erk va ozodlik g‘oyalarining ifodalanishi xususida fikr bildiring.

4. “Adabiyot nadir?” maqolasida muallifning adabiy-estetik qarashlarini yoritib.
5. “Qurboni jaholat va “Doktor Muhammadiyor” hikoyalarini qiyoslang.
6. «Kecha va kunduz» romanining obrazlar tizimiga oid fikringizni bildiring.
7. «Kecha va kunduz» romani shaxs fojiasi talqini qaysi obrazlar qismati misolida ochib berilgan?
8. Miryoqub obrazi – analitik qahramon degan fikrni izohlang.
9. Romandagi ayollar obraziga oid mulohazalaringizni izohlang.
10. Cho‘lponshunos olimlarning Cho‘lpon haqidagi qarashlariga munosabat bildiring.

Glossariy:

XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi – 1900-2000- yil oralig‘idagi adabiyot.

XX asrning 20- yillar adabiyoti – 1920-yildan 1930-yilgacha oraliqdagi adabiyot.

Abdulla Avloniy (1878—1934) – Jadid adabiyoti vakili, pedagog, dramaturg, publitsist.

Abdulla Qodiriy – (1894-1938). O‘zbek jadid adabiyotining ko‘zga ko‘ringan namoyandasi. “O‘tkan kunlar” – birinchi o‘zbek romanining muallifi. O‘zbek romanchilik maktabining asoschisi.

Adabiy tanqid – adabiyotshunoslikning asosiy sohalaridan biri. Adabiy tanqid hozirgi adabiy jarayon muammolarini o‘rganish, yangi paydo bo‘lgan asarlarni bugungi kun nuqtai nazaridang‘oyaviy-badiiy tahlil va talqin etish, baholashni maqsad qilib qo‘yadi.

Behbudiy (1875-1919) – jadid adabiyotining vakili. Dramaturg, publitsist, siyosiy arbob.

Vulgar sotsiologizm – XX asrning 20–30-yillari sho‘ro adabiyotshunosligida kuzatilgan qarashlar tizimi, adabiyotga yondashuv tamoyili. Bu tushuncha adabiyot va san’at ijtimoiy-iqtisodiy bazisning ustqurmasi, ular mafkura sohasi sifatida sinfiy tabiatga ega degan qarashni mutlaqlashtirish natijasida yuzaga kelgan.

Jadidchilik – XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asr boshlarida turkiy xalqlar va tojiklar orasida yuzaga kelgan, Turkiston xalqlarining manfaatlarini ifodalagan, ma’rifat uchun kurashgan, o’qish-o’qitish ishlarini isloh qilgan. Diniy maktablarning dasturlariga dunyoviy fanlarni kiritishga intilgan ma’rifatparvar oqim.

Ijod – badiiy, ilmiy, san’atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish, yaratuvchilik faoliyati.

Mafkura – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g’oyalar majmui.

Roman – katta epik asar.

Hikoya- kichik epik asar.

Tragediya – yakunida bosh qahramon fojiasi bilan yakunlangan asar.

Tragik qahramon – asarda fojiali qismat egasi bo’lgan qahramon.

She’r – muayyan misralardan tashkil topgan, o’zaro ohangdoshlikka ega, lirik kechinmalar ifodasi.

Hamza (1889-1929) – pedagog, dramaturg, publitsist, nosir.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Avloniy A. She’rlar, ibratlar. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 1-jild. – T.: Ma’naviyat, 2006.
2. Azimova H. Milliy dramaturgiya va Abdulla Avloniy. –T.: Universitet, 2001.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar (Tuzatilgan va to’ldirilgan 3-nashri). – T.: Ma’naviyat, 2006.
4. Yo’ldoshev Q. Yoniq so’z. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 539 b.
5. Karim B. Qodiriy qadri. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003. – 84 b.
6. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. Toshkent, Muharrir, 2011. – 87 b.
7. Karimov N va b. XX asr o’zbek adabiyoti tarixi. – T.: O’qituvchi, 1999. –543 b.

8. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: O‘zbekiston, 2008. –536 b.
9. Karimov H. O‘zbek romanlarining taraqqiyot tamoyillari (Uslubiy qo‘llanma). – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. –122 b.
10. Karimov B. Abdulla Qodiriy fenomeni. –T.: Info kapital group,2019. – 480 b.
11. Normatov U. Qodiriy mo‘jizasi. – T.: O‘zbekiston, 2010. –375 b.
12. Normatov U. Qodiriy bog‘i. – T.: Yozuvchi, 1995. – 217 b.
13. Normatov U. “O‘tgan kunlar” hayrati. –T.: O‘qituvchi, 1996. – 79 b.
14. Normatov U. Tafakkur yog‘dusi. –T.: Fikr media, 2005. – 119 b.
15. Normatov U. Qodiriy mo‘jizasi. –T.: O‘zbekiston, 2010. – 272 b.
16. XX asr o‘zbek adabiyoti. / Karimov N. va boshqalar/. – T.: O‘qituvchi, 1999. – 392 b.
17. Sodiq. S. Yangi o‘zbek adabiyoti. T.: O‘qituvchi NMIU, 2019. –720 b.
18. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. –T.: Sharq, 2004. – 640 b.
19. Qahramonov Q. Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 183 b.
20. Qodiriy A. Diyori bakr. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2007. – 469 b.
21. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr, 2010. – 398 b.
22. Qo‘shjonov M. Qodiriy – erksizlik qurboni. –T: Fan, 1992. – 95 b.
23. Fitrat A. Tanlangan asarlar(darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlari). – T.: Ma’naviyat, 2009. – 360 b
24. Qosimov B. va b. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – T.: Ma’naviyat, 2004. –543 b.

Internet manbalari:

<http://www.ziynet.uz>.
<http://www.ziyo.uz>.
<http://www.kutubxona.uz>.
<http://www.arxiv.uz>.

MUNDARIJA

Kirish.....

**1-mavzu: XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy- siyosiy
va madaniy hayot.....**

2-mab3y: Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi.....

3-mab3y: Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi.....

4-mab3y: Cho'lpon hayoti va ijodi.....